

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA  
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI  
O'RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA'LIMI MARKAZI

---

A.T. IMOMNAZAROV

## NEFT VA GAZ KONLARINING ELEKTR JIHOZLARI

*Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma*

*Cho'lpox nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi*  
*Toshkent — 2007*

31.29.5- Ўзбек республикаси  
оғизбаджими турини алоғи  
Oliy va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi  
o'quv metodik birlashmalar faoliyatini  
muvofiqlashtiruvchi Kengash nashrga tavsiya etgan

*Mas'ul muharrir:*

Beruniy nomidagi Davlat mukofoti laureati, texnika fanlari  
doktori, professor **O.O. Hoshimov**

**Taqrizchilar:** *N.S. Savriddinov* — Toshkent Davlat texnika universiteti dotsenti, texnika fanlari nomzodi,  
*E.A. Shonazarov* — Toshkent Kino va video kasb-hunar kolleji o'qituvchisi

Ushbu o'quv qo'llanmada neft va gaz konlari elektr jihozlarining ishlash asoslari, turlari, ularga xizmat ko'rsatish va yoritish mavzulari yoritilgan.

O'quv qo'llanma neft va gaz sanoati uchun o'rta bo'g'in elektromexanik mutaxassislarni tayyorlaydigan kasb-hunar kollejlari uchun mo'ljallangan. Bundan, shuningdek, texnika oliy o'quv yurtlarining ushbu soha bo'yicha mutaxassislar tayyorlaydigan bakalavriatura talabalari ham foydalanishlari mumkin.

41572  
HO 3

2503010400 - 57  
360 - /04/ 2007

ISBN 978-9942-0-60002-2  
2013/09 8246  
nomidagi © Cho'lpox nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2007- y.  
O'zbekiston MK

---

## KIRISH

Neft va gaz sanoati korxonalarini texnologik qurilma va mashinalarining elektr jihozlari xizmatini tashkil etuvchi yuksak malakali o'rta bo'g'in mutaxassislarni tayyorlash davlat ahamiyatiga ega masala bo'lib, mamlakatning energetika mustaqilligining asosini tashkil etadi. Neft va gaz sanoatining birlamchi korxonalarini negizi bo'lgan burg'ulash qurilmalari mashina va mexanizmlari yer ostidan chiqarib olinayotgan xom neft va gazni tortib olish yordamida quvurlar orqali qayta ishlovchi korxonalarga uzatadi. Burg'ulash qurilmalari mashina va mexanizmlarining elektr yuritmalari o'nlab turlarga ega. Bu elektr yuritmalarning kuch sxemalarida zamonaviy yarimo'tkazgichli asbob (tiristorlar, kuch transzistorlari va b.) lar va boshqarish tizimida mikroprotessorli tizimlar qo'llaniladi. Elektr yuritmalarning yakka holda katta quvvatli ekanligini hisobga oladigan bo'lsak, ularni boshqarishda energiya tejamkor usullardan foydalanish katta samara beradi.

Neft va gaz sanoati zamonaviy elektr jihozlari tarkibini o'rganish, elektr energiya bilan ta'minlash va boshqarish asoslari sxemalarini tahlil qilish ko'nikmalarini hosil qilish, sanoatning ushbu sohasi bo'yicha o'rta bo'g'in mutaxassislari bo'lgan elektromexaniklarni tayyorlashda katta o'rinn egallaydi.

## ELEKTR JIHOZLARNI PORTLASH XAVFIDAN HIMOYALASH

### 1.1. Portlash xavfi mavjud bo'lgan aralashmalar, neft va gaz sanoati korxonalari binolarining klassifikatsiyasi

Portlashdan muhofazalangan va kon elektr jihozlarini tayyorlash Qoidalari (PMKEJTQ) bo'yicha portlash xavfi bor, tez alangalanuvchi suyuqlik bug'larining aralashmalarini hamda boshqa yonuvchi gazli oksidlovchi gazlar kategoriya va guruhlarga bo'linadi.

Agar bu suyuqliklar bug'larining alangalanish harorati 45°C dan oshmasa, u holda bu bug'lar portlash xavfi bor bo'lgan bug'lar turiga kiradi. Portlash xavfi bor bo'lgan bug'lar quyidagi jihatlari bo'yicha kategoriyalarga bo'linsa, portlashni o'ralgan qobiq ichidan tirkish orqali uzatilishi bo'yicha portlash xavfi bor aralashmalar to'rt guruhgaga bo'linadi (1.1- jadvalga qarang).

1.1- jadval

Portlash xavfi bor aralashmalarning guruh-kategoriyasi	Portlash uzatilishining qaytarilishi 50%, bajmi 2,5 π bo'lgan qobiqning 25 mm kenglikdagi tirkishlar bilan hosil qildigan tirkishning o'lchami
1	1 mm dan katta
2	0,65 mm dan 1 mm gacha
3	0,35 mm dan 0,65 mm gacha
4	0,35 mm gacha

Portlash xavfi bor bug'li va gaz – havoli aralashmalarning o'z-o'zidan alangalanish harorati bo'yicha guruhlarga bo'linishi 1.2- jadvalda keltirilgan.

1.2- jadval

Aralashmalarning portlash xavfi guruhsi	Aralashmaning o'z-o'zidan alangalanish harorati
T1	450°C dan yuqori
T2	300°C dan 450°C gacha
T3	200°C dan 300°C gacha
T4	135° C dan 200°C gacha
T4	100°C dan 135°C gacha

Neft va gaz sanoatida uchraydigan ba'zi yonuvchi moddalarning portlash xavfi bo'yicha qanday kategoriya va guruhlarga mansubligi 1.3-jadvalda keltirilgan.

1.3- jadval

Portlash xavfi bor moddali aralashmalar kategoriysi	Portlash xavfi bor aralashma guruhı				
	T1	T2	T3	T4	T5
1	Ammiak, izohbutilen metan	Butil spiriti,	Uayt spiriti	—	—
2	Atseton, B—100 benzol, propan, toluol, uglerod oksiidi	B—95/130 benzini, butan, spiritlar: n—butil, metil, etil	Benzinlar: A-72, B-70; xom neft	—	—
3	Etilen	Propilen oksiidi, etilen oksiidi	—	Oltin- gugurt efiri	—
4	Vodorod	—	Oltingu- gurtli vodorod	—	Oltingu- gurtli uglerod

Elektr qurilmalarning tuzilishi Qoidalari (EQTQ) ga asosan portlash xavfi bor binolar, ochiq havoga o'rnatiladigan qurilmalar besh klassga bo'linadi, shulardan neft va gaz sanoatiga taalluqlilari to'rtta: P — 1, P — 2, P — 3 va P — 4.

1. P — 1 klassga mansub bo'lgan binolarda portlash xavfi bor aralashmalar sanoat qurilmalarining normal uzoq davom etmagan ish rejimlarida hosil bo'ladi, masalan, texnologik qurilmalarni ishga tushirish va o'chirish vaqtida, usti ochiq idishlarda saqlanayotgan tez alanganuvchi suyuqliklarni saqlashda yoki bir idishdan ikkinchisiga quyishda.

2. P — 1 a klassga mansub binolarda portlash xavfi bor aralashmalar faqat favqulodda holatlarda va texnologik qurilmalarning nosozligi tufayli yuzaga keladi.

3. P — 1 b klassga quyidagi xususiyatga ega bo'lgan P — 1 a klassga mansub binolar kiradi:

- bu binolardagi sanitar normalarida qayd etilgan ruxsat etilgan, normalaridan oshib ketmagan konsentratsiyadagi yonuvchi gazlari portlanuvchanligining pastki chegarasi yuqori (15% va undan ko'p) va hidi o'tkir;

- favqulodda holatlarda texnologik jarayon shartlaridan kelib chiqqan holda umumiy portlashni yuzaga keltiruvchi darajadagi portlovchi

gazlar konsentratsiyasi yuzaga kelmay, faqat ma'lum mahalliy ahamiyatga ega portlash xavfi bor gazlar konsentratsiyasi yuzaga keladi;

— bino ichida oz miqdorda yonuvchi gazlar, tez alangalanuvchi va yonuvchi suyuqliklarning bo'lishi umumiy portlash xavfiga olib keluvchi konsentratsiyaga ega bo'lmaydi va ish davomida bino ichida och q olov bilan ish olib borilmaydi; bunday texnologik qurilmalarda ish alohida shamollatuvchi qurilma (ventilator, havoni so'rvuchi qurilma va h.k.)lar yordamida olib borilsa, u holda bu qurilmalar portlash xavfi yo'q bo'lgan qurilmalar turiga kiradi.

4. P — I g klassga faqat favqulodda holatlarda yoki texnologik qurilmaning nosozligi natijasidagina portlash xavfi yuzaga keladigan, ochiq havoda o'rnatilgan portlash xavfi bor gazlar, bug'lar, yonuvchi va tez alangalanuvchi suyuqliklar (masalan, gazgolderlar, sig'imlar, oquvchi-quyuvchi estakada va h.k.lar)ga ega bo'lgan qurilmalar kiradi. Ochiq havoda o'rnatilgan qurilmalarga portlash xavfi bor qurilmalar deb qaralishi quyidagicha belgilanadi:

— ochiq oqizish-quyish joylaridan gorizontal va vertikal bo'yicha 20 m gacha masofadagi tez alangalanuvchi suyuqliklarni ochiq usulda quyish va oqishga mo'ljallangan estakadalar;

— portlash xavfi bor bo'lgan texnologik qurilmadan gorizontal va vertikal bo'yicha 3 m gacha va suyuqliklarni saqlovchi hamda so'rvuchi klapanlardan 5 m masofagacha joylashgan boshqa qurilmalar.

Portlash va yonish xavfi bo'limgan texnologik qurilmalar va materiallar joylashtirilgan ishlab chiqarish binolarining portlash xavfi mavjud bo'lgan binolar bilan yonma-yon joylashishi, ularni portlash xavfi bor bo'lgan klasslarning qaysi biriga mansub bo'lishi 1.4- jadvalda ko'rsatilgan.

1.4- jadval

Xonaning portlash xavfi bo'yicha klassi	Portlash xavfi bor xonadan ajratilgan yonma-yon xonaning klassi	
	Devor va eshik bilan	ikki devor va eshiklar bilan koridor yoki tambur hosil qiliqigan
P-1 P-1a P-1b	P-1a P-1b Portlash va yonish xavfi yo'q	Portlash va yonish xavfi yo'q

Elektr jihozlarning portlash xavfini bartaraf etishning amalda sakkiz usuli qo'llaniladi: portlash o'tmaydigan qobiq, portlashga qarshi mustahkamligini oshirish, yuqori bosim ostida kompressorlar yordamida

puflash, qobiq ichini moy bilan to'ldirish, uchqunlanishdan saqlanish, kvars bilan to'ldirish, avtomatik elektr tarmog'idan uzish, alohida vositalar.

## 1.2. Portlashni o'tkazmaydigan qobiqli elektr jihozlar

Bunday elektr jihozlar jihoz ichidagi portlash natijasida yuzaga keladigan, katta bosimga bardosh beradigan, shikastlanmaydigan va portlashning tarqalishiga yo'l qo'ymaydigan qobiqdan iborat bo'ladi.


Elektr jihoz qobig'ining ichki qismida portlash xavfi bor aralashmaning alangalanish manbai mavjud bo'lib, portlashga normal ish rejimidagi kontaktlarning uchqunlanishi, o'ta yuklanish va qisqa tutashuv toklari natijasida qizishi sabab bo'ladi.

Portlash o'tkazmaydigan elektr jihozlar V harfi bilan belgilanadi. Odatda elektr jihozlarning korpusiga V harfi yozilganidan so'ng portlash xavfi mavjud aralashmaning kategoriysi va guruhi hamda ishlatalish joyi ko'rsatiladi. Masalan, V2 T2 tarzda belgilash, elektr jihozning portlash o'tkazmaydigan qobiqli, portlash xavfi bor aralashma kategoriysi 2 gacha va portlash xavfi bor aralashma guruhi T2 gacha bo'lgan muhitda ishlashga mo'ljallanganligini anglatadi.


Rotori qisqa tutashtirilgan asinxron motorlarning VAO rusumi portlash xavfi bor yopiq xonalarda va ochiq joylarda ishlatishga mo'ljallangan. Bu motorlar sinxron tezligi 600—3000 ayl/min bo'lgan quvvati 0,27—100 kVt va 132—315 kVt (kuchlanishi 220—380—660 V) hamda sinxron tezligi 750—3000 ayl/min bo'lgan quvvati 200—2000 kVt (kuchlanishi 6000 V) qilib ishlab chiqarilmogda. (Shuningdek, VAO2 rusumi ham ishlab chiqarilmogda). 1.1- rasmida VAO2 rusumdagи asinxron motorning konstruktiv tuzilishi keltirilgan.

Jo'mrak va zulfinlarning yuritmalarini harakatga keltirish uchun V3T3 turidagi ASV rusumdagи asinxron motorlar ishlatiladi. Ular qisqa vaqtli ish rejimida ishlaydi, aylanish tezligi 1500 ayl/min bo'lib, quvvati 4,5 kVt gacha va yopiq konstruksiya ega (1.2- rasm).

Odatda elektr yuritmalarini ishga tushirish va ishga tushishini rostlashda elektr apparatlari portlash xavfi bor xonalardan tashqariga o'rnatiladi. Bu xonalarda faqatgina boshqarish va kommutatsiya apparatlari hamda texnologik qurilmalar bilan mekanik bog'langan tugmali boshqarish pultlari, boshqarish kolonkalar, oxirgi o'chirgichlar va h.k. lar o'rnatiladi. Bu apparatlar portlash o'tkazmaydigan korpus va qopqoqli bo'lib, ularni birlashtirish oraliq'ida tirqish bo'ladi, bu tirqish alangani uzatilishidan saglaydi. Jihozni tarmoqqa ulash uchun alohida mufta qo'llanilib, unga po'lat quvur ichiga joylashtirilgan zirhli kabel yoki sim tortib kelinadi.



**1.1- rasm. VAO2 rusumdagи asinxron motorning asosiy konstruktiv elementlari:**  
 1—stanina paketi; 2—silindrik korpus; 3—qovurg'a; 4—ichki havoni  
 sirkulatsiyalovchi quvurcha; 5—ichki havo ventilatori; 6—rotor;  
 7—tashqi havoni yo'naltiruvchi ventilator; 8—panjalar; 9—stator chulg'ami;  
 10—podshibnik shchitlari; 11—podshipnikli bo'g'in.



**1.2- rasm. ASV rusumdagи asinxron motoring asosiy konstruktiv elementlari:**  
**1—rotor; 2—stator; 3—podshipnik shchitlari;**  
**4—ulanish qurilmasi; 5—ilgak.**

Portlashga qarshi yuqori darajada ishonchli qilib yasalgan elektr jihozlar N harfi bilan belgilanadi. Bu holda elektr jihozning konstruksiyasida portlashni o'tkazuvchi elementlar ham bo'ladi va N

harfidan so'ng aralashma kategoriyasini bildiruvchi raqam qo'yiladi. Agar bunday elementlar bo'lmasa, u holda 0 raqami yoziladi. Bu raqamdan keyin aralashma guruhini bildiruvchi harf yoziladi. Masalan, elektr jihozdagi N2T2 belgilash, elektr jihoz portlashga qarshi yuqori darajada ishonchli qilib yasalganligini va portlashni o'tkazmaydigan elementi borligi (masalan, motorning halqali kontaktlari portlash o'tkazmaydigan qalpoqcha bilan berkitilgan) 2- kategoriyali aralashmaga mo'ljallanganligi va aralashma tarkibi bo'yicha T1 va T2 guruhlarga mansubligini bildiradi.

V—1 va V—2 klasslarga oid ishlab chiqarish xonalarida portlashga qarshi yuqori ishonchli qilib yasalgan elektr jihozlarni qo'llash mumkin emas.

### **1.3. Ventilator vositasida kuchli bosim ostida puflanadigan elektr jihozlar**

Kuchli bosim ostida puflanadigan elektr jihozlarning quvvati katta bo'ladi (katta quvvatli elektromotorlar, ba'zida statsionar boshqarish pultlari) va portlash xavfi bo'lgan xonalardagi statsionar qurilmalarda ishlatishga mo'ljallangan.

Bunday elektr jihozlarning ma'lum qismlari zinch berkitilgan qobiq bilan o'ralib, alohida ventilatsion qurilmada hosil qilingan toza havo (yoki inert gaz) oqimi bilan puflash ventilatori orqali puflanadi. Buning natijasida qobiq ichida kuchli bosimli havo hosil bo'lib, jihozni o'rab turgan muhitdagi mavjud portlash xavfi bo'lgan aralashmaning qobiq ichiga kirishiga to'sqinlik qiladi.

Elektr jihozning havo bilan puflanmaydigan qismlari (masalan, elektromotorlarning tarmoqqa ulanish qutichasi) portlashni o'tkazmaydigan qobiq ichiga joylashtiriladi yoki boshqa turdag'i portlashdan himoyalanishning ikkinchi bir varianti qo'llaniladi.

Kuchli bosim ostida puflanadigan portlashdan himoyalangan elektr jihozlar yuqori darajadagi ishonchli jihozlar kabi belgila-nadi, ammo birinchi harfi o'rniga P harfi qo'yiladi. Masalan, elektr jihozdagi POT4 belgilash, elektr jihozning kuchli bosim ostida puflanadigan portlashni o'tkazmaydigan elementi bo'limgan portlashdan himoyalanganligini va portlash xavfi bor bo'lgan aralashmalarning T4 guruhigacha barcha to'rt kategoriyasiga mansub muhitlarda ishlashi mumkinligini bildiradi.


Bir necha rusumda kuchli bosim ostida puflanadigan, quvvati 320 dan 12500 kVt gacha bo'lgan elektr mashinalar POT5 va P1T5 markalar bilan ishlab chiqariladi va ular portlovchi aralashmalarning hamma turlari mavjud bo'lgan muhitlarda ishlatiladi. Porshenli



*1.3- rasm. POT4 turidagi SDKP—14—44—12- seriyadagi sinxron motoring umumiy ko'rinishi.*

kompressorlarning yuritmalari uchun kuchli bosim ostida toza havo bilan puflanadigan tezligi 250—600 ayl/min va quvvati 320—6300 kVt bo'lgan (kuchlanishi 6000 V) SDKP seriyadagi sinxron motorlar ishlab chiqariladi. 1.3- rasmda shu seriyadagi motoring umumiy ko'rinishi berilgan.

Bunday motorlarning ventilatsion tizimi ochiq va yopiq usullarda bajariladi. 1.4- a rasmda mashina ichidagi havo oqimi qutblararo rotor darchasiga motoring ikki yonidan kirib borib, statorning ventilatsion kanallari orqali stator korpusi kamerasiga chiqib keluvchi, motoring ochiq siklda ishlaydigan ventilatsiya sxemasi tasvirlangan.



*1.4- rasm. SDKP seriyadagi motorlarning ventilatsiya sxemalari:*  
*a—ochiq sikl bo'yicha; b—yopiq sikl bo'yicha; 1—elektromotor; 2—bosim hosil qiluvchi ventilator; 3—zulfin; 4—havo o'tkazgichlar; 5—havo chiqaruvchilar; 6—puflash ventilatori; 7—havoni so'ruvchi o'tkazgichlar; 8—havo sovitkich.*

Motorni sovituvchi toza havo, zichlangan tizim va suv bilan sovitiladigan havo sovitkichidan o'tuvchi yopiq tizimli siklda ishlaydigan ventilatsiya sxemasi 1.4-*b* rasmida tasvirlangan.

Ochiq va yopiq ventilatsion tizimlarda motorga kiritiladigan havoning harorati ( $-15$ ) — ( $+30$ )°C oraliqda bo'lishi kerak. Fundament orasidagi havoning bosimi va motorning stator korpusi hamda shchitlari tagidagi havoning bosimi esa  $3,5 \times 10^{-4}$  MPa dan kam bo'lmasligi kerak.

Markazdan qochuvchi kompressor va nasoslarning yuritmalarini uchun STDP seriyadagi quvvati 630—12500 kW va tezligi 3000 ayl/min (kuchlanishi 6 va 10 kV) bo'lgan sinxron motorlar qo'llaniladi. Motor ichida sirkulatsiya bo'ladigan havo suvli havo sovitkichlar yordamida sovitiladi.

Shuningdek, markazdan qochuvchi kompressor va nasoslarda 4A rusumdag'i rotori qisqa tutashtirilgan asinxron motorlar ham ishlatiladi. Ularning quvvati 500—5000 kW va sinxron tezligi 3000 ayl/min (kuchlanishi 6 kV) ga ega.

#### **1.4. Moyga botirilgan elektr jihozlar**

Portlashdan himoyalangan elektr jihozlarning bunday bajarilgan turlari uchqunlanuvchi va uchqunlanmaydigan tokli qismlari transformator moyi yoki xususiyatiga ko'ra unga yaqin bo'lgan boshqa moyga solib qo'yiladi. Bunda elektr jihoz tok o'tkazuvchi qismlari portlash xavfi bor bo'lgan muhit bilan o'zaro ta'sirga kirishmaydi va ularning alanganishi sodir bo'lmaydi.

Agar elektr mashina yoki apparatlarning hamma qismlarini moyga solib qo'yishning imkonini bo'lmasa, u holda ularning bu moyga solinmagan qismlari portlashdan himoyalashning boshqa turi bo'yicha tayyorlanadi.

Me'yoriy sharoitda uchqunlanishi kuzatiladigan izolatsiyalanmagan tok o'tkazuvchi qismlar, ulovchi qisqichlar, detallar moy ichiga solinganida ularning ustidagi moy qatlaming qalinligi 10 mm dan kam bo'lmasligi va moyning eng yuqori qatlamiadi harorat 100°C dan oshmasligi talab etiladi. Bundan tashqari moyga solib qo'yilgan kommutatsion apparatlardan 0,25 sekund davomida ular uchun ruxsat etilgan qisqa tutashuv toki o'tkazilganida portlashdan himoyalangan moyning xususiyati o'zgarmasligi kerak. Asinxron motorlarni ishga tushiruvchi elektr apparatlarning stator chulg'amidan o'tayotgan tokning qiymati nominal qiymatidan 6 marta katta bo'lganida normal kontak'larni uzadigan tizimga ega bo'lishi kerak.

Moyga to'ldirilgan elektr jihozlar portlash xavfi bor binolarda va ochiq joylardagi texnologik qurilmalarda qo'llanilishi mumkin.

Moy to'ldirilgan elektr jihozlar M harfi bilan belgilanadi, bu harfdan so'ng O yoki raqam yoziladi, bu aralashma kategoriyasini va konstruksiyasida portlashni o'tkazmaydigan element bor yoki yo'qligini bildiradi, raqamdan so'ng yoziladigan harf aralashmalar guruhini anglatadi. Masalan, elektr jihozdagi M3T1 belgilash elektr jihozning moyga to'ldirilgan turida bajarilganini bildiradi va 3- kategoriyadagi T1 aralashma guruhiga mo'ljallangan portlashni o'tkazmaydigan elementi borligini anglatadi.

Moyga to'ldirilgan turidagi portlashdan himoyalangan elektr motorlar nest qazib chiqarish sanoatida ishlatiladigan harakatlantiruvchi qurilmalar hamda sentrifuga yuritmalarida qo'llaniladi.

Moyga to'ldirilgan portlashdan himoyalangan ishga tushirish elektr apparatlarini portlash xavfi bor bo'lgan barcha binolarda va hatto agressiv muhitdagi texnologik qurilmalarning elektr yuritmalari boshqarishda qo'llash mumkin. Bunday elektr jihozlarni silkinishlar yoki zarblar kuzatiladigan ishlab chiqarish binolarida qo'llash taqiqlanadi.

### **1.5. Kvarts bilan to'ldirilgan va maxsus ishlangan uchqunlanish xavfsiz bo'lgan elektr jihozlar**

Uchqunlanish xavfsiz bo'lgan elektr jihozlarning portlashdan himoyalanishi, elektr zanjirlarda tok va kuchlanishning qiymati shunday qiymatgacha kamaytiriladiki (uchqunlanish, yoy, cho'g'lanuvchi razryad va h.k.), bunda hosil bo'lgan elektr razryad quvvati normal va avariya holatlarida portlash xavfi bor bo'lgan aralashmalarining alangalanishi uchun yetarli darajada bo'lmaydi.

Tuzilishi bo'yicha uchqunlanish xavfsiz bo'lgan elektr jihozlar umumsanoat portlashdan himoyalangan elektr jihozlardan farq qilmaydi, faqatgina ba'zi bir elementlari portlashdan himoyalaydigan qobiq bilan o'ralgan bo'lishi mumkin.

Uchqunlanish xavfsiz bo'lgan ijroda bajarilgan elektr jihozlarga portlash xavfi bor bo'lgan xonalardagi elektr qurilmalarda ishlatiladigan aloqa qurilmalari, nazorat-o'lchov va rostlash apparatlari kiradi. Bunday ijrodagi elektr jihozlarning belgilashlardagi birinchi harf I bo'ladi.

Kvarts bilan to'ldirilgan elektr jihozlarda tok o'tkazuvchi qismlariga kvarts qumi sepilgan bo'ladi. Bunday ijrodagi elektr jihozlarning belgilashdagi birinchi harf K bo'ladi.

Uchqunlanishni bartaraf etish uchun maxsus siqilgan inert gazi va epoksid smola bilan to'ldirilgan qobiqlardan foydalanilgan ijrodagi elektr jihozlarning belgilashlardagi birinchi harf S bo'ladi. Uchqunlanish xavfsiz

bo‘lgan elektr jihozlarning aynan mana shu ijroda bajarilgan turlari neft va gaz sanoatida keng qo‘llaniladi.

### **Nazorat uchun savollar**

1. Portlash xavfi bor tez alangalanuvchi suyuqlik bug‘larining aralashmalarini va boshqa yonuvchi gazli oksidlovchi gazlar qanday kategoriya hamda guruhlarga bo‘linadi?
2. Neft va gaz sanoatida uchraydigan yonuvchi moddalarning portlash xavfi bo‘lgan qanday turlarini bilasiz?
3. Elektr qurilmalarning tuzilishi Qoidalariga (EQTQ) asosan portlash xavfi bor binolari va ochiq havoga o‘rnatiladigan qurilmalar qanday klasslarga bo‘linadi?
4. Amalda elektr jihozlarning portlash xavfini bartaraf etishning qanday usullari qo‘llaniladi?
5. Portlashni o‘tkazmaydigan qobiqli elektr jihozlarning asosiy konstruktiv elementlari va ularning funksiyalarini tushuntirib bering.
6. Kuchli bosim ostida puflanadigan elektr jihozlarda portlash xavfi qanday bartaraf etiladi?
7. Qanday maqsadlarni ko‘zlab elektr jihozlarning tokli qismlari transformator moyiga botirilib qo‘yiladi?
8. Kvarts bilan to‘ldirilgan va maxsus ishlangan uchqunlanish xavfsiz bo‘lgan elektr jihozlarning asosiy konstruktiv elementlarining funksiyalari nimalardan iborat?

### ELEKTR QURILMALARINI HIMOYALASH VA BOSHQARISHDA QO'LLANILADIGAN ELEKTR VA ELEKTRON APPARATLAR

#### 2.1. Elektr va elektron apparatlar haqida umumiyl tushunchalar

Elektr stansiyalarda ishlab chiqarilgan elektr energiyaning iste'molchilarga taqsimlanishi va ularni maxsus elektr va elektron apparatlar yordamida amalga oshiriladi. Kommutatsiya apparatlari ishlash asoslariga ko'ra **elektr** va **elektron** apparatlarga bo'linadi. Elektr apparatlarda elektr zanjirlarni kommutatsiya qilish elektromagnit harakatlantiruvchi kontaktlar yordamida amalga oshiriladi. Elektron kommutatsiya apparatlarda kommutatsiyalash kontaktlarsiz tiristor, tranzistor va boshqa yarimo'tkazgichlar vositasida bajariladi.

Vazifasiga ko'ra elektr apparatlar elektr qurilmalarni elektr tarmog'iga ulash va o'chirish, ishga tushirish, rejimlarini rostlash va nazorat qilish hamda ba'zi elektr ko'satkichlari qiymatini cheklash kabi vazifalarni bajaradi. Elektr apparatlar nominal kuchlanish qiymati bo'yicha **past kuchlanishli** (1000 V gacha) va **yuqori kuchlanishli** (1000 V dan yuqori) turlarga bo'linadi.

Yuqori kuchlanishli elektr apparatlar elektr stansiyalar bilan sanoat korxonalarini o'zaro bog'lab turuvchi yuqori kuchlanishli elektr tarmoq va tizimlarni ishga tushirish, yuklanishlarni rostlash, nazorat qilish hamda me'yorida bo'lishini ta'minlash kabi vazifalarni bajaradi.

Past kuchlanishli elektr apparatlar turli dastgohlar, elektrotexnologik qurilmalar va xilma-xil ishlab chiqaruvchi mashina hamda mexanizmlarning elektr zanjirlarini to'g'ridan-to'g'ri korxonaning ichki elektr tarmog'iga ulab ishga tushirish, ish rejimlarini rostlash va nazorat qilish kabi vazifalarni bajaradi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, aksariyat kommutatsiya apparatlari funksional imkoniyatlari ko'ra universal bo'ladi.

Kommutatsiya uchun xizmat qiluvchi, ya'ni elektr zanjirlarini tarmoqqa ulash va tarmoqdan uzish vazifasini bajaruvchi elektr apparatlar turkumiga **avtomatik uzgichlar (avtomatlar)**, **turli rusumdag'i kontaktorlar va relelar**, **qisqa tutashtrigichlar va saqlagichlar** kiradi.

**Avtomat uzgich (avtomat)** — elektr zanjirini elektr tarmog'iga ulash hamda qisqa tutashuvlardan elektr qurilmalarni saqlash uchun ham xizmat qiladi.

**Kontaktorlar** — elektromagnit qurilma bo'lib, ularning asosiy kontaktlari elektr qurilmani tarmoqqa ulash vazifasini bajarsa, yordamchi kontaktlari boshqaruv zanjirida ishga tushiruvchi tugmalarni shuntlash va elektr qurilmani boshqarish jarayonida ishtirot etadi.

**Rele** — kommutatsiya qurilmasi bo'lib, boshqarilayotgan zanjirlarning holatini berilgan elektr ta'sir qiluvchi kattaliklar (kuchlanish, tok, chastota va h. k.) ta'sirida notejis o'zgartirish uchun xizmat qiladi.

**Qisqa tutashtirgich** — elektr zanjirlarida sun'iy qisqa tutashuvni yuzaga keltirish uchun xizmat qiladi.

**Saqlagich** — o'zi himoyalayotgan elektr zanjirini undan o'tayotgan katta miqdordagi tokdan himoyalash maqsadida tarmoqdan uzib qo'yadi. Buning uchun unda maxsus tok o'tkazuvchi qismlar ko'zda tutilgan bo'lib, zanjirdagi tokning qiymati ruxsat etilgan qiymatidan oshib ketganida bu qismlar erib ketadi, natijada zanjirida tok uziladi.

**Yurgizish-rostlash apparatlari** elektr mashinalarni ishga tushirish, kuchlanishi, toki va tezliklarini rostlash uchun yoki boshqa turli elektr qurilmalari (masalan, elektr pech va payvandlash qurilmalari)ni ishga tushirish va ularning asosiy ko'rsatkichlarini rostlash uchun qo'llaniladi. Yurgizish-rostlash apparatlariiga, shuningdek, tugmalar, paketli o'chirgichlar, kontrollerlar, kontaktorlar, yuritgichlar va reostatlar kiradi.

**Tugma** — bosh barmoq bosib turgan vaqt ichidagina elektr zanjirini tarmoqqa ulaydigan yoki uzuvchi mexanik ulagichdir.

**Paketli o'chirgich** — bir necha qatlamlar — paketlardan iborat bo'lib, ularning ichida qo'zg'aluvchan va qo'zg'almas kontaktlar joylashgan bo'ladi; dastakni aylantirish natijasida ba'zi kontaktlarning ulanishi, ba'zilarining esa uzelishi sodir bo'ladi.

**Kontroller** — ko'p holatlari apparat bo'lib, elektr mashinalar va transformatorlarni ularning rezistorlari, chulg'amlarini kommutatsiyalash orqali boshqarish uchun xizmat qiladi.

**Kontaktor** — o'zi qaytuvchi ko'p holatlari elektr apparat; qiymati o'ta yuklanish toklaridan oshmaydigan tokli zanjirni tez-tez kommutatsiya qila oladi. Elektromagnit yordamida ishlaydi.

**Yuritgich** — kommutatsiyalovchi elektroapparat; elektr motorlarni ishga tushirish, to'xtatish va himoya qilish uchun xizmat qiladi.

**Reostat** — elektr zanjir qarshiligini o'zgartiradigan qarshilik qiymati ma'lum oraliqda pog'onali rostlanadigan faol qarshiliklar yig'indisi bo'lgan yurgizuvchi-rostlovchi qurilma.

**Nazorat apparatlari** — texnologik mashina va mexanizmlarning elektr va noelektr ko'rsatkichlarini nazorat qilib boradi. Ularga turli rusumdagagi relelar va har xil elektr va noelektr o'chov o'zgartikchilari (datchiklar) kiradi.

**Chegaralovchi apparatlar** — qisqa tutashuv toklarini va o'ta kuchlanishlarni chegaralash uchun xizmat qiladi. Ularga reaktorlar va zaryadlagichlar kiradi.

## **2.2. Elektr zanjirlarni himoyalovchi kommutsatsiya apparatlari**

Elektr qurilmalarni ishlatish jarayonida ma'lum sabablarga ko'ra normal ish rejimi buzilganida elektr jihozlarning ishdan chiqishining oldini olish va ishlayotgan qurilmaning ishonchhlilik darajasini oshirish uchun elektr himoya vositalari qo'llaniladi. Elektromotorlarni himoya qilishda **nol, maksimal tok, minimal tok va issiqlik himoya usullari** qo'llaniladi.

**Nol himoya** tarmoq kuchlanishining qisqa muddatga o'chishi yoki juda kamayishi natijasida o'chirilgan elektromotorni tarmoqda kuchlanish yana nominal qiymatiga erishganida motorni tarmoqqa o'z-o'zidan ulanishidan asraydi. Bu himoya liniya kontaktorlari va avtomatik uzgichlar yordamida amalga oshiriladi.


**Kontaktorlarning** asosiy vazifasi elektr qurilmalarni tarmoqqa ulash va tarmoqdan uzish bo'lsa ham bu kommutatsiya apparatlari nol himoya vazifasini ham bajaradi.

Kontaktorlarning tuzilishi va ishlash asoslarini ko'rib chiqamiz (2.1-rasm). **Yurgizish** knopkasi bosilganida kontaktoring elektromagnit chulg'ami (*1*) tarmoqqa ulanib, undan tok o'tadi va natijada (*F*) magnit oqimi vujudga keladi. Magnit oqimi qaytaruvchi prujina (*11*) va kontakt prujinasi (*9*) kuchini yengishga yo'nalgan kuchni yuzaga keltiradi, bu kuch yakor (*10*) ni o'zak (*2*) ka tortadi. Qo'zg'aluvchan kontakt (*8*) qo'zg'almas kontakt (*5*) ga tortiladi va asosiy kontakt tutashib motor (*M*) ni tarmoqqa ulaydi. Ayni vaqtida yordamchi kontakt (*12*) **yurgizish** tugmasini shuntlaydi, qo'yib yuborilganida chulg'am (*1*) zanjiri uzilmaydi va kontaktor ulangan holatda qoladi. Qo'zg'aluvchan kontakt (*8*) qo'zg'almas kontakt (*5*) ga bosilishi uchun kontaktorda kontakt prujinasi (*9*) o'rnatilgan, bu prujina bundan tashqari qo'zg'aluvchan kontaktning qo'zg'almas kontaktga urilganidagi titrashni kamaytiradi ham.

2.1- rasmda kontaktor kuch zanjirini uzayotgan holatda ko'rsatilgan. Bu hodisa yuritma elektromagnit chulg'aming zanjiri uzilganida sodir bo'ladi, shunda qo'zg'aluvchan tizim qaytaruvchi prujina (*11*) ta'sirida normal holatni egallaydi.

Asosiy kontaktlar ajralganda ular orasida yoy (*Y*) vujudga keladi, bu yoy so'ndiruvchi kamera (*7*) da so'nadi. Kamerada izolatsiyalovchi to'siqlar bo'lib, ular yoyni cho'zadi va uning qarshiligini oshiradi. Yoyning kontaktlardan kameraga tez o'tishi uchun magnitli puflash tizimi mavjud bo'lib, u po'lat o'zak (*4*) ka o'ralgan chulg'am (*3*) dan iborat.

Tarmoqdagi kuchlanish qiymati nolga teng yoki juda kichik qiymatga ega bo'lganida elektromagnit chulg'ami (*1*) dagi magnit oqimi (*F*) ning qiymati nolga teng yoki juda kichik bo'lishi sababli prujina (*9*) ning tortish kuchi magnit oqimi hosil qiladigan kuchdan



2.1- rasm. Kontaktorning tarkibiy tuzilishi:

1,3—chulg‘amlar; 2—g‘altak o‘zagi; 4—magnit bilan puflash o‘zagi; 5, 8, 12—qo‘zg‘almas, qo‘zg‘aluvchan va yordamchi kontaktlar; 6—izolatsiyalovchi to‘siq; 7—yoy so‘ndiruvchi kamera; 9, 11—kontakt prujinasi va qaytaruvchi prujina; 10—yakor; Y—yoy; M—motor.

katta bo‘lib, asosiy qo‘zg‘aluvchan kontakt (8) ni qo‘zg‘almas kontakt (5) dan ajratadi va motor (M) tarmoqdan uziladi. **Yurgizish** tugmasini shuntlab turgan yordamchi kontakt (12) uziladi va chulg‘am (7) ham tarmoqdan uziladi. Tarmoqda kuchlanishning qiymati nominal qiymatga ega bo‘lganida motor (M) ni qayta ishga tushirish **yurgizish** tugmasini bosish bilan amalga oshiriladi. Texnologik sabablarga ko‘ra ishlab turgan motorni o‘chirish **To‘xtatish** tugmasini bosish bilan amalga oshiriladi. Bunda chulg‘am (1) tarmoqdan uziladi, qo‘zg‘aluvchan kontakt (8) qo‘zg‘almas kontakt (5) dan ajraladi va motor (M) tarmoqdan uziladi.

Kontaktorlar tok turiga qarab o‘zgarmas va o‘zgaruvchan tok kontaktorlarga ajratiladi. O‘zgarmas tok kontaktorining magnit tizimi yaxlit elektrotexnik po‘latdan yasaladi, o‘zgaruvchan tok kontaktoriniki esa magnit tizimidagi isroflarni kamaytirish maqsadida alohida izolatsiyalangan elektrotexnik po‘lat tunukachalardan yig‘iladi.

2.1- jadvalda elektr qurilmalarini ishga tushirish va nol himoya maqsadlarida qo‘llaniladigan ba’zi o‘zgarmas va o‘zgaruvchan tok kontaktorlarning texnik ko‘rsatkichlari keltirilgan.

**Avtomatik uzgich (avtomat)** elektr zanjirlarni tarmoqqa ulash va tarmoqdan uzish, qisqa tutashuvlar va o‘ta yuylanishlar huda funksiyalarini bajaruvchi universal kommutatsiya apparatidir.

Alisher Navoiy

nomidagi

2013-yil

8246

O‘zbekiston MK

Hozirda ishlab chiqarish mashina va mexanizmlarining elektr yuritmalarida asosan A3700 va AE — 2000 rusumli avtomatlar qo'llanilmoqda. A3700 rusumli avtomatlar 40 dan to 630 A gacha nominal tokka mo'ljallangan bo'lib, ular ishlab ketish toki 400 dan to 6300 A gacha bo'lgan yarimo'tkazgichli yoki elektromagnitli maksimal tok ajratkichlar bilan har xil modifikasiyalarda ishlab chiqarilmoqda.

2.1- jadval

Rusumi	Nominal ko'rsatkichlar		Chulg'am ko'rsatkichlari		Bir soatda ruxsat etilgan ulab o'chirishlar soni, 1/soat	Vazifasi, tuzilishining xususiyatlari va qo'shimcha ma'lumotlar
	Kuchlanishi, V	Toki, A	Kuchlanish, V	Quvvati, Vt		
KP1, KP2	220	20, 40, 75 25, 63,	110, 220	20	1200	O'zgarmas tokda ishlaydi
KPD100	220	100, 160, 250, 400	110, 220, 24, 48, 110, 220	16—35 38	1200	—, —
MKI	220, 500	40			—	O'zgaruvchan va o'zgarmas toklarda ishlaydi
KH100— KH400	<320	25— 200	<320	19—50	—	—, —
KTD121	500 gacha	40	—	—	1200	O'zgaruvchan tokda ishlaydi: qutblar soni 3,
KT7000	380, 660	100, 160	—	—	600	qutblar soni 2, 3, 4, 5
KPT6000	380, 660	100, 160, 250, 400, 630	—	—	1200	qutblar soni 2, 3, 4


2.2- a rasmida A3700 rusumli avtomatik uzgichning umumiyo ko'rinishi tasvirlangan. 2.2- b rasmdagi statik holat avtomatik uzgichning uziqan holati bo'lib, bosh kontaktlar (3) va (4) ochiq, kommutatsiya toki esa uzuvchi kontaktlar (1) ning parallel zanjiri orqali o'tmoqda. Bunday kommutatsiya tufayli bosh kontaktlarda yoy vujudga kelmaydi va kontaktlar kuyishining oldi olinadi. Bosh kontaktlar yetarlicha ajralganida uzuvchi (yoy so'ndiruvchi) kontaktlar (1) ajraladi. Tok zanjirining kommutasiysi natijasida hosil bo'lgan yoy so'ndiruvchi kamerada so'nadi. Ishonchli

kontakt hosil bo'lishi uchun uzuvchi va bosh kontaktlarga kontakt prujinalari (2) o'rnatilgan.

Avtomatni ularash uchun dastak (11) ni bosish (dastakli yuritma) yoki elektromagnit (10) ga kuchlanish berish (masofadan ularash) kerak, bu elektromagnit richaglar (12) yordamida asosiy ko'taruvchi detal (5) ni ish holatiga buradi. Shunda uzuvchi prujina (13) cho'ziladi va butun tizim ilgak (6) da turadi.

Bosh kontaktlar (3) va (4) orqali qisqa tutashuv toki o'tganida maksimal ajratkich g'altagi (8) qo'zg'aluvchan o'zakli g'altakka ta'sir qiladi, ilgak (6) ni urib chiqaradi va prujina (13) kommutatsiyalovchi zanjirni uzadi.

Minimal ajratkich tarmoq kuchlanishi beriladigan g'altak (9) ka va prujinaga ega. Tarmoq kuchlanishi nominal bo'lganida ularning kuchlari muvozanatlashadi va solenoid shtoki avtomatning uzilishiga ta'sir qilmaydi. Tarmoq kuchlanishi pasayganida qo'zg'aluvchan o'zak hosil qilayotgan kuch yetarli bo'lmaydi va uning shtogi prujina ta'sirida ilgak (6) ni urib chiqaradi. Avtomatda, shuningdek, elektr jihozlarni knopka (SQ) yordamida masofadan turib to'xtatish imkoniyati ham ko'zda tutilgan.



2.2- rasm. A3700 rusumli avtomatik uzgichning tarkibiy tuzilishi:

a—umumiyo ko'rinishi; b—prinsipial sxemasi; I—uzuvchi kontakt;

2, 7, 13—prujinalar; 3, 4—asosiy (bosh) kontaktlar; 5—ko'taruvchi detal,

6—ilgak; 8, 9—maksimal va minimal ajratkich g'altaklari;

10—elektromagnit; 11—dastak; 12—richaglar.

Avtomatlar elektromagnitli yoki issiqlik ajratkichga hamda issiqlik va elektromagnit elementlari bo'lgan kombinatsiyalangan ajratkichga ega bo'lishi ham mumkin.


Avtomatik uzgichlarda elektromagnitli yoki issiqlik ajratkichlarning bo'lishi, ularning kichik qvvatli motorlarni to'g'ridan-to'g'ri elektr tarmoqqa ulab ishga tushirish va motorlarni o'ta yuklanish tokidan himoya qilish sxemalarida keng qo'llanishiga asos bo'ladi.

2.2- jadvalda sanoat qurilmalarining elektr zanjirlarida eng ko'p qo'llaniladigan ba'zi avtomatik uzgichlarning texnik ko'rsatkichlari keltirilgan.

Elektr zanjirlarni qisqa tutashuv va maksimal toklardan himoya qiluvchi eng ko'p tarqalgan usul **eruvchan saqlagichlarni** qo'llashdir.

2.2- jadval

Rusumi	Nominal toki, A	Nominal kuchlanish, V	Qutblar soni	Ajratkichi borligi		Ajratuvchi tok qiymati, A	Uzilish tokining chegara qiymati, A		O'chish vaqtি, s	Alohiba xususiyatlari
				issiqlik	elektromagnit		o'zgarmas tok	o'zgaruvchan tok		
A3160	50	110=220~	1-2-3	Bor	Yo'q	15-50	1.6-1.3	2.5-4.5	0,015-0,03	Masofadan boshqariladi
A3110	100	220=220~	2-3	Yo'q	Bor	15-100	5	2.5-10	0,01-0,015	—“—
AK-63	63	—“—	—“—	—“—	—“—	0,63-63	5	9	0,02-0,04	Ulovchi va uzuvchi kont. hittadan
AK-50	50	400=320	—“—	—“—	—“—	2-50	4,5	9	0,04	—“—
AP-50	50	220=500~	—“—	Bor	Bor	2,6-50	1-2	0,3-2	0,02	Ulov.k. 1-2, Uzuv.k. 1-3.
A-63	25	100=220~	1	—	Bor	0,63-25	2	2,5	—	—“—
AE2000	25, 63,100	220=500~	1,2,3	—	Bor	6-25 1-20	5,10	16	—	—“—
AE1000	25	240~	1	Bor	Bor	—	—	1,5	—	—“—
AC-25	25	220 380	2,3	—	Bor	—	3,2-2,0 90	2,0	—	—“—
ACT-2/3	25	500=	1	Bor	—	—	—	—	0,08	Yurituchi elektromagnitli



**2.3- rasm. Saqlagichlarning tarkibiy tuzilishi:**


1—izolatsiyalovchi naycha; 2—chiqish pichoqlari; 3—qalpoqchalar;  
4—eruvchi quyma; 5—to'ldirgich (masalan, har xil kvars qumlari).

2.3- rasmda eruvchan saqlagichlarning tarkibiy tuzilish sxemasi keltirilgan.

Saqlagichning asosiy elementi rux va misdan tayyorlanadigan eruvchi quymadir.

**2.3- jadval**

Nomla-nishi	Saqlagichning rusumi	Kuch-lanish, V	Nomi-nal tok, A	Eruvchi quymaning nominal toki, A
Ajraluvchi va chekllovchi to'l-dirilmagan saqlagichlar	PR—2—15 PR—2—100 PR—2—200 PR—2—360	500=	15 60 100 200 350	6, 10, 15, 15, 20, 25, 35, 45, 60, 60, 80, 100 100, 125, 160, 200, 200, 225, 260, 300, 350
To'ldirilgan tezkor saqlagichiar	PNB5—380 PNB5—380/250 PNB5—600/100 PNB5—600/250	380~ 600~	100 250 100 250	40, 63, 100 160, 250 63, 100 160, 250
Bir qutbli saqlagichlar	PRC—6 PRC—20	380~	6 20	1, 2, 4, 6 10, 16, 20
Trubkasimon saqlagichlar	PPT—10	250=	10	6, 10
Saqlagichlar	PK—45 PK—50	600~ 600~	5 5	0,15; 0,25; 0,5; 1,0 0,25; 0,5; 1,2,3,4,5



**2.4- rasm. Maksimal tok relesining tuzilishi:**

1— g'altak; 2— qo'zg'almas o'zak; 3—tekshirish g'altagi; 4—tok graduirovka shkalasi; 5—ko'rsatkich; 6—rostlash prujinasi; 7—tumshuq; 8—qo'zg'aluvchan yakor.

Saqlagichlarning ishlashi elektr tokining issiqlik ta'siriga asoslangan. Elektr zanjirdan ruxsat etilgandan katta tok o'tganida eruvchi quymaning ingichka qismi tez qiziydi, eriydi va uziladi, bu bilan elektr zanjirni tarmoqdan uzib qo'yadi.

2.3- jadvalda elektr qurilmalarni qisqa tutashuv va katta toklardan himoya qilishda qo'llaniladigan ba'zi eruvchan saqlagichlarning texnik ko'rsatkichlari keltirilgan.

**Maksimal tok releları** elektr zanjirlarni juda tez o'chirishda ishlatiladi (2.4- rasm). Rele qo'zg'almas o'zak (2) ka joylashtirilgan g'altak (1), shuningdek, tumshuq (7) bilan mexanik bog'langan qo'zg'aluvchan yakor (8) va rostlash prujinasi (6) dan iborat. O'zakning pastki qismida qo'yiladigan toklarning graduirovka shkalasi (4) va uning ko'rsatkichi (5) mahkamlangan. G'altak (1) dagi tokning qiymati shkalada ko'rsatilgan qiymatdan oshib ketsa, u holda yakor (8) o'sha zahoti o'zakka tortiladi, prujina kuchini yengib, tumshuq (7) apparatning o'chiruvchi mexanizmini ishga tushiradi.

Relening ishlash qobiliyatini tekshirib turish maqsadida o'zakka qo'shimcha g'altak (3) o'matilgan bo'lib, bu g'altak tarmoqqa o'chirgich orqali parallel ulanadi. Tekshirishdan oldin apparat o'chiriladi, shkala ko'rsatkichi kuch zanjiri kuchlanishiga mos keluvchi holatga qo'yiladi, apparat ulanadi va undan keyin g'altak o'chirgichi ulanadi. Bu holatda apparat o'chishi lozim.


Elektr zanjirlarning maksimal tok himoyasi uchun, odatda, RE570 va RE70 rusumidagi relelardan foydalaniлади. Bu releлarning chulg'amlari motorning ikki fazasiga (masalan, asinxron motorni himoyalaganda) уланади, kontaktlari esa liniya kontaktorining boshqaruv zanjiridagi chulg'amiga ketma-ket уланади.

2.4-jadvalda o'zgarmas va o'zgaruvchan tok elektr zanjirlarini katta qiymatli toklardan himoyalaydigan ba'zi maksimal tok releлarning texnik ko'rsatkichlari keltirilgan.

2.4- jadval

Rusu-mi	Relening bajaradigan vazifasi, xususiyati	Nominal kat-taligi	Nominal qiymatini o'rnatish chegarasi	Kontaktlar soni		Kontaktdagi tok, A	
				ochiq	yopiq	o'chi-rilganda	yogil-ganda
PE—571T	O'zgaruv-chan tokli zanjirlar uchun	1,5 — 600 A	0,75—2,0	1	—	0,8—10	5—50
PEB —200	O'zgarmas tokli zanjirlar uchun	1,5 — 600 A	—	2	—	—	—

Elektromotorlarni katta qiymatli toklardan himoya qilishda issiqlik releлари ham qo'llaniladi. Issiqlik releлarning tarkibiy tuzilishi quyidagi chizmada ko'rsatilgan (2.5- rasm).



2.5- rasm. Issiqlik relesining tarkibiy tuzilishi:

1— qizdiruvchi element; 2 va 3— issiqlik kengayish koefitsiyentlari turilcha bo'lgan o'zaro payvandlangan metall plastinalar; 4— richag; 5— prujina; 6— kontakt; 7— knopka.

Himoyalananayotgan motorning toki qizdiruvchi element (*1*) orqali o'tadi. Qizdiruvchi element yaqinida issiqlik kengayish koefitsiyentlari turlicha bo'lgan va o'zaro payvandlangan ikkita plastina (*2*) va (*3*) joylashgan. Qizdiruvchi elementdan chiqayotgan issiqlik oqimi ta'sirida plastina (*3*) ning kengayishi (*1*) plastinanikiga nisbatan ko'proq bo'ladi va shuning uchun ham bimetall tepaga qarab bukiladi. Tok kuchi keraklicha katta bo'lganida richagning bimetall plastinalarning yuqori uchiga ilinib turgan joyi chiqib ketadi va pribuzina (*5*) ta'sirida soat strelkasiga teskarib buriladi hamda kontakt (*6*) ochiladi. Knopka (*7*) bosilganidan so'ng richag (*4*) ning o'z holiga qaytishi bimetallarning sovishidan keyingina amalga oshadi va kontakt (*6*) yana ulanadi.

2.5- jadval


Relening texnik ko'rsatkichlari va alohida xususiyatlari	Rele rusumi	
	TRP	TRN
Nominal toki, A	1—0	0; 5—32
Nominal kuchlanishi, V	500 va 400	500 va 400
Iste'mol quvvati, Vt	3,7—11,9	3—4,4
Qutblar soni	1	2
Kontaktlar soni	1 yopiq va 1 ochiq	1 yopiq va 1 ochiq
Bimetall markasi	TB—3 va TB—36	TB—36
Ishlab ketish temperaturasi, °C	235	230
Bevosita qizdirish qurilmasi	Bor	Yo'q
Bilvosita qizdirish qurilmasi	Bor	Bor
Har ikkala usulda qizdiruvchi qurilma	Bor	Yo'q
Ruxsat etiladigan tokni rostlash	+25%	+25%
Nominal tokka nisbatan tok qiymati olti marta katta bo'lganida relening ishlab ketish vaqtini sekund	3—20	6—20

Issiqlik relelari motorning ikki fazasiga to'g'ridan-to'g'ri ulanadi va uning kontaktlari liniya kontaktorining boshqaruvi zanjiridagi chulg'amiga ketma-ket ulanadi.

2.5- jadvalda elektromotorlarni katta qiymatli toklardan himoya qilishda keng qo'llaniladigan ba'zi issiqlik relelarining texnik ko'rsatkichlari keltirilgan.

### 2.3. Elektron kommutatsiya apparatlari

Kuch zanjirlarini kommutatsiyalovchi elektromagnitli apparatlar (kontaktorlar, avtomatlar va h. k.)ning asosiy kamchiligi kontaktlarining ishonchliligining pastligidir. Kontaktlar orasida yoning hosil bo'lishi kontaktlarni qizdiradi, eritadi va oqibatda ularni ishdan chiqishiga olib




2.6- rasm. Tiristorli o'zgaruvchan tok kontaktorining elektr sxemasi.

keladi. Kuch zanjirlari tez-tez ulab va uzib turiladigan qurilmalarda kommutatsiyalovchi apparatlar kontaktlarining ishonchsiz ishlashi va tez ishdan chiqishi qurilmaning ishlashiga va ish unumiga salbiy ta'sir qiladi. Boshqariluvchi diodlar — tiristorlar asosida yaratilgan **tiristorli kontaktorlarda** bunday kamchiliklarga barham berilgan.

2.6- rasmda tiristorli o'zgaruvchan tok kontaktorining elektr sxemasi keltirilgan bo'lib, bu yerda kontaktlar vazifasini V1 va V2 tiristorlar bajaradi. Bu kontaktorlar elektrotermik qurilmalarda qizdiruvchi elementlarni ularash va uzish uchun ishlataladi.

Kontaktorni ularash va yuklanishga kuchlanishni berish uchun rele (*K*) ishga tushib, uning kontaktlari V1 va V2 tiristorlarning boshqaruv zanjirlarida ulanadi. Agar shu vaqtida tarmoq kuchlanishining (*I*) uchida musbat potensial (o'zgaruvchan tok sinusoidasining musbat yarim to'qini) bo'lsa, u holda tiristor V1 ning boshqaruvchi elektrodiga rezistor R1 va diod VD1 orqali musbat kuchlanish beriladi. Tiristor V1 ochiladi va yuklanish *Z* orqali tok o'tadi. Tarmoq kuchlanishining qutblari almashganda tiristor V2 ochiladi. Shunday qilib, yuklanish o'zgaruvchan tok tarmog'iga ulanadi. Rele K uzilganida boshqariluvchi elektrodlar zanjiri uziladi, natijada tiristorlar ulanmaydi va yuklanish tarmoqdan uziladi.



2.7- rasm. Tiristorli o'zgarmas tok kontaktorining elektr sxemasi.

Tiristorli kontaktorlar elektron sxemalar yordamida kontaktsiz boshqariladi.

Asinxron motorlarni ishga tushirish va to'xtatish uchun PT rusumdag'i tiristorli yuritgichlar ishlab chiqilgan bo'lib, ular 16 va 40 A tokka va 380 V kuchlanishga mo'ljallangan; motorlarni kommutatsiyalash va o'ta yuklanish, qisqa tutashuv va fazalar uzilishidan himoya qilish uchun esa PTK rusumdag'i tiristorli yuritgichlar ishlab chiqarilgan.

**Tiristorli o'zgarmas tok kontaktori** tiristorli o'zgaruvchan tok kontaktoridan farqli holda majburiy kommutatsiya sxemasiga ega bo'lishi kerak. Tiristorni yopish uchun boshqaruvi signalining bo'lishi yetarlicha bo'lmay, balki tiristor tokining qiymati ham nolgacha pasaygan bo'lishi kerak.

Tiristorli o'zgarmas tok kontaktorining kuch sxemasi 2.7- rasmda keltirilgan. Tiristor V1 yuklanish Z ni ulaydi, tiristor V2, kondensator C va rezistorlar R1, R2 va tiristor V1 ning majburiy yopilishini ta'minlaydi.

Yuklanishni ularish uchun knopka SQ1 ni bosish kerak, shunda tiristor V1 ning boshqaruvi elektrodiga musbat potensial beriladi va u ochiladi, yuklanish Z orqali esa tok  $I_0$  o'tadi. Ayni vaqtida kondensator C zaryadlanib majburiy kommutatsiya zanjirini ishga tayyorlaydi.

Yuklanishni tarmoqdan uzish (tok  $I_0$  ni 0 gacha pasaytirish) uchun knopka SQ2 ni bosish kerak. Tiristor V2 ochiladi va kondensator C rezistor R2 orqali zaryadsizlana boshlaydi. Zaryadsizlanish toki  $I$  yuklanish  $Z$  dan o'tayotgan  $I_0$  ga qarshi yo'nalgan bo'ladi. Tiristor VI orqa'i o'tuvchi natijalovchi tok nolgacha kamaygan zahoti yuklanish  $Z$  tarmoqdan uziladi.

Uch fazali o'zgaruvchan tok zanjiriga yuklamalarni ularash, asinxron motorlarni ishga tushirish va kuchlanishini rostlash uchun tiristorli yuritgichlar va tiristorli boshqarish stansiyalaridan foydalilanildi.

Quyidagi 2.6- jadvalda asinxron motorlarni boshqarishda keng qo'llaniladigan ba'zi tiristorli yuritgich va tiristorli boshqarish stansiyalarining texnik ko'rsatkichlari keltirilgan.

2.6- jadval


Apparat rusumi	Nominal tok, A	Nominal kuchlanish, V	Apparat rusumi	Nominal tok, A	Nominal kuchlanish, V
PT-16-380-U5	16	380	TCU-141-32BIU3	25	380
PT-16-380P -U5	16 40	380	TCU-141-42BIU3	40	380
PT-40-380-U5	40	380	TCU-141-52BIU3	63	380
PT-40-380P-US	100	220/380	TCU-141-72BIU3	160	380
TCUR-2107-U3	25	220/380	TCU-152-12BIU3	10	380
TCUR-2124-U3	63	220/380	TCU-152-32BIU3	25	380
TCUR-2126-U3	100	220/380	TCU-152-42BIU3	40	380
TCUR-2127-U3	10	380	TCU-152-52BIU3	63	380
TCU-141-12BIU3			TCU-152-72BIU3	160	380

#### 2.4. Elektr qurilmalarini ishga tushirish va ko'rsatkichlarini rostlash vazifalarini bajaruvchi qo'l bilan boshqariluvchi apparatlar .

Qo'l bilan boshqarish deganda, xizmat ko'rsatuvchilarining o'zları apparatlarni ularshi va uzishi tushuniladi. Asosiy qo'l bilan boshqariladigan apparatlarga: **rubilniklar, paketli uzgichlar va qayta ulagichlar, kontrollerlar va komandoapparatlar** kiradi.

Rubilniklar eng sodda qo'l bilan boshqariladigan apparatlardan bo'lib, bir, ikki va uch qutbli qilib ishlab chiqariladi. Qo'zg'aluvchan pichoq rubilniklarning kommutatsiyalovchi elementi bo'lib, rubilnik ulanganda bu pichoq kontakt tayanchlarining jag'lari orasiga kiradi.

Avval ta'kidlanganidek, ba'zi hollarda bitta apparat bir nechta vazifani bajarishi mumkin, masalan, ayrim zamor iviy rubilniklarda




2.8- rasm. BPV - 34 rusumidagi saqlagich - o'chirgich blokining tarkibiy tuzilishi:

1, 4 — o'chirgichning ustki va pastki jag'lari; 2 — dastak; 3 — saqlagichlar.

pichoqlar sifatida saqlagichlardan foydalaniladi. Bunday rubilniklar bir vaqtning o'zida kommutatsiya va himoya vazifalarini bajaradi.

2.8- rasmdagi BPV—34 rusumli blokli rubilnik uchta saqlagich (3) dan iborat bo'lib, ular umumiyl traversaga mahkamlangan. Dastak (2) yordamida traversa harakatga keltirilganida saqlagichlar

traversa bilan birga harakatlanadi va ularning pichoqlari kontakt tayanchlari (1) va (4) ning jag'lari orasiga kiradi. Bu rubilniklar yopiq qilib ishlanib, ularning ochiladigan qopqog'i dastak bilan mexanik tarzda bog'langan: dastak rubilnik pichoqlarini kontakt jag'laridan sug'urib olingandagina qopqoqni ochish mumkin va qopqoq yopilganidagina dastak rubilnik pichoqlarini kontakt jag'lari orasiga harakatlantirishi mumkin.



2.9- rasm. Paketli

o'chirgichning tarkibiy tuzilishi:

1—dastak; 2—o'q; 3—paketlar;  
4, 5—qo'zg'almas va qo'zg'a-luvchan kontaktlar;  
6—chiqish uchlari.

**Paketli o'chirgichlar va qayta ulagichlar** boshqaruv va signalizatsiya zanjirlarida kichik quvvatli motorlarni ishga tushirish va reverslash, asinxron motor chulg'amlarini «yulduz» usuli o'tniga «uchburchak» usulida ularash uchun ishlataladi.

Paketli o'chirgichlar (2.9- rasm) qator qatlamlari — paketlar (3) dan iborat bo'lib, ularning ichida qo'zg'a-luvchan (5) va qo'zg'almas (4) kon-


taktlar joylashgan. Qo'zg'aluvchan kontakt (5) o'q (2) ga mahkamlangan; o'q (2) dastak (1) yordamida aylanadi va qator qayd qilingan holatlarga ega bo'lib, bu holatlarda paketlardan birining qo'zg'almas kontaktlari ularanadi. Qo'zg'almas kontaktlarning chiqish uchlari (6) o'chirgich korpusi ichiga mahkamlangan. Bunday paketli o'chirgichlarning asosiy kamchiligi sirpanma kontaktlarning ishonchhlilik darajasi pastligidir.

**Kulachokli rusumidagi paketli o'chirgichlarda** bu kamchilik bartaraf etilgan bo'lib, ularda elektr zanjiri tarmoqqa qo'zg'almas kontaktlar orqali ularanadi. Qo'zg'aluvchan kontaktlar vazifasini dielektrik kulachoklar o'taydi, ular o'zining joylashuvi va o'chirgich o'qining holatiga qarab kontaktlarni tutashtiradi.


**Kontrollerlar** ishslash asosi va vazifasiga ko'ra paketli o'chirgichlarga yaqin bo'lib, kuch elektr zanjirlarini ma'lum dastur bo'yicha almashlab ularash uchun ishlatiladi. Kontrollerlar **barabanli** va **kulachokli** turlarga bo'linadi.

Barabanli kontrollerlarda (2.10- rasm) elektr zanjirlarning kommutatsiyasi baraban (1) aylanganda, qo'zg'aluvchan (2) va qo'zg'almas (3) kontaktlar ularanganda amalga oshadi.

**Kulachokli kontroller** seksiyalaridan birining tuzilishi 2.11- rasmda tasvirlangan. Kulachok (3) burilganida rolik (2) kulachokda bo'ladi yoki uning o'yig'iga tushadi. Rolik kulachokda dumalayotganida



2.10- rasm. Barabanli kontrollerning tarkibiy tuzilishi:  
1—baraban; 2, 3—qo'zg'aluvchan va qo'zg'almas kontaktlar.



2.11- rasm. Kulachokli kontroller seksiyasining tarkibiy tuzilishi:  
1, 6—qo'zg'almas va qo'zg'aluvchan kontaktlar; 2—rolik; 3—kulachok;  
4, 5—prujinalar.

kontaktlar (1) va (6) ajralgan holatda bo'ladi. Rolik o'yiqqa tushiganida kontaktlar prujinalar (4) va (5) ta'sirida tutashadi.

**Komandokontrollerlar** uncha katta katta bo'limgan kulachokli kontrollerlar bo'lib, kam quvvatli boshqaruva zanjirlarida almashlab ulash uchun ishlataladi.

**Knopkalar** boshqaruva sxemalarida zanjirlarni ulash va uzish uchun ishlataladi. Knopkalar har xil konstruksiyada (har xil kontaktlarning xilma-xil to'plamlari bo'lishi mumkin) ishlab chiqariladi; dastlabki holatiga o'zi qaytuvchi knopkalar, bosgandan so'ng knopkani ma'lum holatda qotirib qo'yuvchi ilgaklari bo'lgan knopkalar, maxsus kalit bilan ulanadigan knopkalar shular jumlasidandir.

2.7- jadval

Apparatning nomlanishi A	Apparat-ning rusumi	Nominal kuchlanish, V	Nominal tok, A		Qutblar soni
			o'zgarmas	o'zgaruvchan	
Paketli o'chir-gichlar	PVM1—10	220=380~	6,3	4	1
	PVM2—10		10	6,3	2
	PVM3—10		10	6,3	2
	PVM3—25		25	16	3
	PVM3—60		63	40	3
	PVM3—100		100	63	3
	PVM3—250		250	160	3
Bir nol holatli uch yo'nalishli qayta ulagichlar	PPM2—10/H3	220=380~	10	6,3	2
	PPM2—25/H3		25	16	2
	PPM2—50/H3		63	40	2
Ikki nol holatli ikki yo'nalishli qayta ulagichlar	PPM2—10/H3	220=380~	10	6,3	3
	PPM2—25/H3		25	16	3
	PPM2—100/H3		100	63	3
Paketli kula-chokli o'chir-gichlar	PKV—10	380~	—	10	3
	PKV—25		—	25	3
	PKV—63		—	63	3
Paketli kula-chokli qayta ulagichlar	PKP—10	380~	—	10	3
	PKP—25		—	25	3
	PKP—63		—	63	3
Rostlanmaydigan kula-chokli komandoapparatlar	KA5000	440=500~	15 gacha	15 gacha	—
Rostlanadigan kulachokli va elektr yuritmali komandoapparatlar	KA 4000	440=500~	15	15	—

Motor yuritmali tezkor ixcham komandokontrollerlar	KPB-10	220=220~	25	25	—
Mikroqayta ulagichlar	MP2000	220=220~	2,5	2,5	—
Ochiq rusumli boshqaruv knopkalari	KE	220=500~	6,3	6,3	—

2.7- jadvalda sanoat qurilmalari elektr zanjirlarini tarmoqqa ulashda va boshqaruv zanjirlarida keng qo'llaniladigan ba'zi boshqaruv knopkalari, paketli o'chirgichlar va qayta ulagichlar hamda komando-apparatlarning texnik ko'rsatkichlari keltirilgan.

## 2.5. Elektr qurilmalarini ishga tushirish va ko'rsatkichlarini rostlashga xizmat qiluvchi apparatlar


Avtomatik boshqaruv tizimlarida har xil elektr qurilmalar — (motorlar, elektrotexnologik qurilmalar, o'zgartigichlar va h. k.)ni elektr tarmog'iga ulash uchun elektromagnit apparatlar **kontaktorlar, magnitli yuritgichlar va avtomatlar** keng qo'llaniladi.

**Kontaktor va avtomatlarning asosiy vazifasi** elektr qurilmalarni tarmoqqa ulash va tarmoqdan uzish jarayonlarini avtomatik amalga oshirishdan iborat. Shu bilan birga bu apparatlarning ikkinchi — asosiy vazifasi nol himoya funksiyasini ham bajargani sababli, 1.2- paragrafda ular to'g'risida keng material berilgani uchun bu paragrafda asosan magnitli yuritgichlar haqida ko'proq ma'lumot beramiz.

**Magnitli yuritgich** asosan asinxron motorlarni ishga tushiruvchi kontaktorlar asosida yaratilgan elektromagnit apparatdir.

Kichikroq quvvatli asinxron motorlarni boshqarish uchun **to'g'ri yuruvchi magnit tizimli yuritgichlardan** foydalaniadi (2.12- rasm). Magnit o'tkazgich (1) boshqaruv chulg'ami (2) bilan birga yuritgich korpusiga qo'zg'almas qilib mahkamlangan. Boshqaruv chulg'amidan tok i o'tganida magnit tizimida magnit oqimi F vujudga keladi, uning ta'sirida yakor (4) prujina (3) ning siqish kuchini yengib, qo'zg'almas magnit o'tkazgichga tortiladi. Yakorga mahkamlangan qo'zg'aluvchan kontaktlar (6) qo'zg'almas kontaktlar (5) ga tutashadi va kommutatsiyalanayotgan zanjirdan tok I o'tadi. Yassi prujina (7) kontaktlarni siqadi.

Boshqaruv g'altagi tarmoqdan uzilganida magnit maydon kuchlanganligi so'na boshlaydi va prujina (3) ta'sirida yakor chekka o'ng holatni egallaydi, natijada kommutatsiyalovchi kontaktlar ajraladi.



2.12- rasm. To'g'ri yuruvchi magnit tizimli yuritgichning tarkibiy tuzilishi:


1—magnit o'tkazgich; 2—chulg'am; 3, 7—prujinalar; 4—yakor;  
5, 6—qo'zg'almas va qo'zg'aluvchan kontaktlar; 8—qisqa tutashtirilgan o'ram.

Sanoatda to'g'ri yuruvchi qo'zg'aluvchan tizimli PME va PM rusumli yuritgichlardan keng foydalilanadi.

PM rusumli yuritgichlar rotorini qisqa tutashtirilgan asinxron motorlarni to'g'ridan-to'g'ri tarmoqqa ulash va masofadan turib ishga tushirish hamda to'xtatish uchun xizmat qiladi. Bu yuritgichlar issiqlik relesi RTL yordamida motorni ruxsat etilmagan davomililikdagi o'ta yuklanishdan va fazalardan biri uzilganida vujudga keluvchi katta qiyamatli toklardan himoya qiladi. Nominal kuchlanishi 380 V va toki 10—63 A ga mo'ljallangan yuritgichlarning kontaktorlari ІІ — simon rusumli va toki 80—200 A ga mo'ljallanganlarini esa ІІІ — simon rusumli to'g'ri yuruvchi tizimga ega bo'ladi.

O'rtacha quvvatli (17—75 kWt) hamda 380/500 V kuchlanishli asinxron motorlar burilma qo'zg'aluvchan tizimga ega bo'lgan PA rusumli magnitli yuritgichlar yordamida boshqariladi (2.13- rasm). Yuritgich metall asos (1) ga yig'iladi. Qo'zg'almas kontaktlar (2) izolatsion kamera (10) ichiga, ko'priks rusumidagi qo'zg'aluvchan kontaktlar (9) esa yakor (6) ga o'rnatilgan. Kontaktlar kontakt prujinalari (8) bilan bosiladi, zanjirning ikki marta uzilishi esa yoyning so'nish sharoitini yaxshilaydi.

Chulg'am (5) li qo'zg'almas magnit o'tkazgich (4) amortizatsiyalovchi prujinalar (3) ga o'rnatilgan. Yuritgichning qo'zg'aluvchan tizimi o'zining og'irligi va prujina (7) hisobiga uzilgan holatga qaytdi. Yakor titrashining oldini olish uchun elektromagnit qutbiga qisqa



2.13- rasm. Burilma yakorli magnitli yuritgichning tarkibiy tuzilishi: 1—asos; 2, 9—qo'zg'almas va qo'zg'aluvchan kontaktlar; 3, 7, 8—prujinalar; 4—qo'zg'almas magnit o'tkazgich; 5—chulg'am; 6—yakor; 10—izolatsion kamera; 11—issiqlik relesi.

tutashtirilgan o'ram o'rnatilgan. Motorlarni o'ta yuklanishdan himoya qilish uchun yuritgich ichiga issiqlik relesi (11) o'rnatilgan.

2.8- jadvalda elektroavtomatika tizimlarida keng qo'llaniladigan ba'zi magnitli yuritgichlarning texnik ko'rsatkichlari keltirilgan.

2.8- jadval

Magnit yuritgichlarning rusumi	Kuchlanish 380/500 V bo'lganda yuritgichning toki, A	Kontaktlar soni		Issiqlik relesi bilan ta'minlanganlar
		yopuvchi	ochuvchi	
PME—071	3/1,5	1	4	Yo'q
PME—111	10/6	2	2	Yo'q
PME—112	10/6	2	2	Bor
PME—212	25/14	2	2	Bor
PME—214	25/14	4	4	Bor
PA—312	40/21	2	2	Bor
PA—314	40/21	4	4	Bor
PA—412	63/35	2	2	Bor
PA—414	63/35	4	2	Bor
PA—511	110/61	2	2	Yo'q
PA—612	110/61	4	2	Bor
PA—514	146/80	2	2	Bor


## 2.6. Elektr qurilmalarining boshqaruv zanjirlarida qo'llaz'iladigan elektr relelar

Elektr relelar eng ko'p tarqalgan qurilmalar bo'lib, avtomatik liniyalarning boshqaruv tizimlari, elektrotexnologik qurilmalar va elektromotorlarning boshqaruv sxemalari tarkibiga kiradi. Elektr relelarning konstruksiyasi, ishlash asoslari va bajaradigan vazifalari turlichadir.

Elektr qurilmalarning boshqaruv sxemalarida **elektromekanik relelar** ko'p ishlatiladi. Bu relelarning ishlashi kirish zanjirlaridan o'tuvchi elektr toki ta'sirida rele mekanik elementlarining nisbiy siljishidan foydalanishga asoslangan. Bu relelar qo'zg'aluvchan kontaktlari yordamida avtomatik boshqaruv tizimlarining elektr zanjirlarida kommutatsiyani amalgalashadi.

Elektromekanik relelar ishlash asosiga ko'ra **elektromagnitli, magnitolelektrik, elektrodinamik va induksion** xillarga bo'linadi.

RPL rusumidagi elektromekanik relening tuzilishi 2.14- rasmida keltirilgan bo'lib, u quyidagi tarkibiy qismlar: qo'zg'almas o'zak (3) ka o'ralgan g'altak (2), yakor (4), kontakt traversasi (6) va kontaktlar (8), (10) ni o'z ichiga olgan qo'zg'aluvchan tizim; qo'zg'aluvchan tizimni



2.14- rasm. RPL rusumli elektromekanik relening tarkibiy tuzilishi:


1, 14—chulg'amning chiqish uchlari; 2—g'altak; 3—o'zak; 4—yakor;  
5, 7, 9, 11—qo'zg'almas kontaktlar; 6—traversa; 8, 10—qo'zg'aluvchan kontaktlar; 12—prujina; 13—korpus.

boshlang'ich holatda ushlab turuvchi prujina (12), qo'zg'almas kontaktlar (5), (7), (9), (11) va rele g'altagi chulg'amining chiqish uchlari (1) va (14) o'rnatilgan korpus (13) dan iborat. Rele quyidagicha ishlaydi. G'altak (2) ning chiqish uchlari (1) va (14) ga kuchlanish berilganda undan tok o'tadi, yakor (4) esa elektromagnit kuchlar ta'sirida pastga tushib traversa (6) ni unga mahkamlangan kontaktlar (8) va (10) bilan birga harakatga keltiradi. Bunda boshlang'ich holatda tutashib turgan kontaktlar (7) va (9) orasidagi zanjir uziladi hamda kontaktlar (5) va (11) orasida yana ulanadi. Rele g'altagi kuchlanish manbaidan uzilganida qo'zg'aluvchan tizim prujina (12) ta'sirida boshlang'ich holatiga qaytadi: kontaktlar (7), (9) zanjiri ulanadi va kontaktlar (5), (11) zanjiri uziladi. Konstruksiyasiga qarab rele har xil miqdordagi ulovchi va uzuvchi kontaktlarga ega bo'lishi mumkin.

Avtomatik boshqaruv tizimlarida **vaqt rele**leri ham keng qo'llaniladi. Vaqt relelarining chulg'ammlariga kuchlanish berilgandan yoki olingandan keyin elektr qurilmaning ishga tushish yoki o'chirish (kontaktlarning ulanish yoki uzilish) vaqtini ma'lum vaqtga kechiktirishni ta'minlaydi. Vaqt relelarida kechiktirish har xil usullarda: mexanika qismining konstruksiyasi bilan pnevmatik sekinlatkichlar yordamida elektromagnit usulda maxsus elektron sxemalar bilan amalga oshiriladi.

Relelarning elektromagnit tizimida ikkita g'altakni qo'llash natijasida maxsus konstruksiyali «xotiralovchi» reles, ya'ni kuchlanish olingandan so'ng kontaktlar holatini saqlab qoluvchi reles har qisimida har xil vazifalar (vaqt bo'yicha kechiktirishni, xotirlash)ni bajaradi.

RPL rusumli rele to'g'ri yuruvchi magnit tizimiga ega bo'lib (2.15-a rasm), qo'shimcha qurilmalar (2.15- b, d, e rasm) yordamida har xil vazifalar (vaqt bo'yicha kechiktirishni, xotirlash)ni bajaradi.



2.15- rasm. To'g'ri yuruvchi magnit tizimli RPL rusumli rele (a) va uning qo'shimcha qurilmalari: b—kontaktli qurilma; d—kechiktiruvchi qurilma; e—xotira qurilmasi.

Kontaktli qurilma (2.15- b rasm) oniy ishlovchi to'rtta kontaktdan iborat bo'lib, ular har xil birikmada ajratuvchi va ulovchi bo'lishi mumkin. Qurilmaning to'g'ri yuruvchi traversasi relening traversasi bilan tutashtirilgan bo'lib, kontaktlarning oniy ulanishi va uzilishini ta'minlaydi.


2.15- d rasmida tasvirlangan qo'shimcha qurilma kontaktlarning ishga tushish vaqtini pnevmatik sekinlatkich yordamida kechiktiradi. Qurilma pnevmokamera, vaqtning kechiktirilishini rostlovchi elementlar majmuasi, harakatni uzatuvchi mexanizm va kommutatsiyalovchi kontaktlardan iborat. Rostlovchi elementlar majmuasi yordamida kontaktlarning ishga tushish vaqtini berilgan oraliq chegarasida kechikadigan qilish mumkin. Qurilmaning konstruksiyasiga qarab ishga tushish vaqtining kechikuvi rele uzilganda va ulanganda amalga oshishi mumkin.

Xotira qurilmasi (2.15- e rasm) korpusga joylashtirilgan elektromagnitli yuritma va qulfovchi qurilmadan tuzilgan. U rele kontakt tizimining g'altagida tok bo'limganida releni ulangan holatda ushlab turadi, xotira qurilmasi g'altagiga kuchlanish berilganda releni uzadi. Bu qo'shimcha qurilma avtomatik boshqaruv tizimlarini yaratishda relelarning imkoniyatlari katta ekanligini ko'rsatadi.

Avtomatik boshqaruv tizimlarida **magnit bilan boshqariladigan kontaktlari bo'lgan elektromagnitli rele** — gerkonlar ham keng qo'llaniladi.

Gerkonning tuzilishi 2.16- rasmida tasvirlangan. Havosi so'rib olingen shisha ballon (4) inert gaz bilan to'ldirilgan va ferromagnit materialdan yasalgan kontaktlar (1) ballonga kavsharlangan. Bu ballon atrofiga o'zgarmas tokli boshqaruv chulg'ami (2) joylashtirilgan. Rele ulanganda bu chulg'amdan tok o'tadi va magnit maydon (3) vujudga keladi, u kontaktlar (1) ni magnitlaydi, natijada ular bir-biriga tortilib, boshqaruv zanjirini ulaydi.

Gerkonlar o'lchami va og'irligining kichikligi, ishonchlik darajasining yuqoriliqi va titrashlarga chidamliligi bilan elektromagnit relelardan farq qiladi. Gerkonlardan foydalanilganda kommutatsiya



2.16- rasm. Gerkonning tarkibiy tuzilishi:

1—kontakte; 2—chulg'ami; 3—magnit maydon; 4—shisha ballon.

apparaturasi ish ko'rsatkichlarining tashqi muhitga og'irlik ko'rsatkichlari yaxshilanadi.

2.9- jadvalda elektr qurilmalarning avtomatik boshqarish tizimlarida qo'llaniladigan ba'zi tok, kuchlanish va vaqt relelari hamda gerkonlarning asosiy texnik ko'rsatkichlari va funksional imkoniyatlari keltirilgan.

2.9- jadval

<b>Apparatning nomlanishi</b>	<b>Rusumi</b>	<b>Bajaradigan vazifasi va texnik ko'rsatkichlari</b>
O'zgarmas tok rele	PTG	Kuchlanishi 500 V gacha bo'lgan avtomatik va boshqaruva sxemalarida ishlashga mo'ljallangan. Toklarning o'zgarish oralig'i 1, 6 A dan to 1000 A gacha.
Elektromagnit rele	P-12, P-10 H 13, P-11H, P-12H BC-33	O'zgaruvchan va o'zgarmas tokli elektr zanjirlarini kommutatsiyalash uchun qo'llaniladi. Kontaktlarning nominal toki 10 A.
Vaqt relesi	BC-33	Bir o'zgaruvchan tokli zanjirdan ikkinchisiga komandalarni vaqt bo'yicha sekinlatib uzatishga mo'ljallangan. Kuchlanish ko'rsatkichlari: 380 V, 50 Gs yoki 240 V, 60 Gs.
Dasturli vaqt relesi	BC-10	Bir o'zgaruvchan tokli zanjirdan ikkinchisiga komandalarni vaqt bo'yicha belgilab sekinlatib uzatishga mo'ljallangan. Kuchlanish ko'rsatkichlari: 240 V gacha, 50 va 60 Gs.
Yarim o'tkaz-gichli vaqt relesi	BI-36	Avtomatik sxemalardagi komandalarni bir zanjirdan ikkinchisiga avvaldan relening kirish qismiga kelayotgan impulslar soni va chastotasini aniqlagan holda vaqt bo'yicha boshqarishga mo'ljallangan. Kuchlanish ko'rsatkichlari: 110 V, 50 Gs. Kommutatsiyalanuvchi quvvat — 2,5 V. Impulslar soni 99 dan kam emas. Ijrochi organ — kontaktksiz kalit.
Pnevmatik vaqt relesi	RPV-72	Komandalarni bir elektr zanjirdan ikkinchisiga vaqt bo'yicha boshqarib uzatishgamo'ljallangan. Ta'minot kuchlanishi ko'rsatkichlari: o'zgarmas tok kuchlanishi 440 V; o'zgaruvchan tok kuchlanishi 660 V va 50—60 Gs.
Universal oraliq relesi	RPU-2	O'zgaruvchan tok kuchlanishi 440 V gacha chastotasi 50, 60 Gs li hamda o'zgarmas tok kuchlanishi 220 V gacha bo'lgan avtomatik va boshqaruva zanjirlarida ishlashga mo'ljallangan. 8 ochuvchi va 4 yopuvchi kontaktlarishor Kontaktlarning nominal toki — 6 A.
Gerkonli oraliq relesi	RPG-4	Kuchlanishi 12, 24, 48, 60, 110 V bo'lgan o'zgarmas tokelektr yuritmalarini avtomatik boshqaruva tizimlarida qo'llaniladi.

## **Nazorat uchun savollar**

1. Elektr qurilmalarni ishga tushirish, boshqarish va himoyalashda kommutatsiyalovchi apparatlarning tutgan o'rni qanday?
2. Elektr zanjirlarni himoya qilishning qanday turlarini bilasiz?
3. Elektr zanjirlarni nol himoya qilish qanday himoya usuli va qaysi elektr apparatlар yordamida amalga oshiriladi?
4. Kontaktor qanday ishlaydi?
5. Avtomatik uzgich (avtomat) qanday ishlaydi?
6. Saqlagich elektr zanjirida qanday vazifani bajaradi?
7. Magnitli yuritgich qanday asosiy elementlardan tuzilgan?
8. Nima uchun o'zgaruvchan tok kontaktorining magnit tizimi yupqa po'lat tunukachalardan yig'ilgan bo'ladi?
9. Qo'l bilan boshqarishda ishlatiladigan kommutatsiyalovchi apparatlari qanday turlarga bo'linadi?
10. Paketli o'chirgich qanday tarkibiy qismlardan iborat?
11. Barabanli kontrollerda kommutatsiya qanday amalga oshiriladi?
12. Kulachokli kontrollering har bir seksiyasi qanday elementlardan tuzilgan?
13. Elektr qurilmalarni ishga tushirish va ko'rsatkichlarini rostlashga xizmat qiluvchi apparatlarga qanday talablar qo'yiladi?
14. Tiristorli o'zgaruvchan tok kontaktori qanday ishlaydi?
15. Tiristorli o'zgarmas tok kontaktori qanday ishlaydi?
16. Elektromexanik rele qanday ishlaydi?
17. Gerkonlar qanday ishlaydi?
18. Elektr zanjirlarni katta toklardan himoyalashda qanday relelar qo'llaniladi?
19. Maksimal tok relesi qanday ishlaydi?
20. Issiqlik relesi qanday ishlaydi?

## ELEKTR YURITMA ASOSLARI

### 3.1. Elektr yuritma haqida umumiy tushunchalar

Elektr yuritma tarkibiy tuzilishi bo'yicha elektrotexnik va mexanik qurilmalardan iborat elektromexanik tizimdir (3.1- rasm). Har qanday elektr yuritma (6) ning asosiy elementi elektromotor (1) dir. Elektromotor elektr energiya (EE) ni mexanik (ME) ga o'zgartiruvchi elektromexanik o'zgartkichdir. Elektromotorda hosil qilingan mexanik energiya uzatish qurilmasi (8) orqali ishchi mashinaning ijrochi organi (7) ga uzatiladi. Uzatish qurilmasining vazifasi elektromotor harakati bilan ijrochi organ harakatini o'zaro moslashtirishdir.


Elektr yuritma elektr energiyani elektr tarmog'i (3) dan boshqariluvchi o'zgartkich (5) orqali oladi. Boshqariluvchi o'zgartkich elektromotor uchun mos keluvchi ko'rsatkichlari rostlanadigan elektr energiya manbai vazifasini o'taydi. Boshqariluvchi o'zgartkichning kuch sxemasi (2) boshqaruv tizimi (4) yordamida boshqariladi. Boshqaruv tizimining boshqaruv signali  $U_v$ , vazifalovchi signal  $U_v$  va bir nechta qo'shimcha signallar  $U_{os}$  (har xil elektrik va noelektrik o'lchov o'zgartkichlarning signallari) asosida shakllanadi.

Shunday qilib, ishchi mashina ijrochi organlari harakatini boshqarishga xizmat qiluvchi elektromotor, boshqariluvchi o'zgartkich va uzatish qurilmasidan iborat elektromexanik tizim **elektr yuritma** deb ataladi.

Elektr yuritma asosini mustaqil, ketma-ket va aralash qo'zg'aluvchan o'zgarmas tok motorlari; asinxron, sinxron, ventilli va odimlovchi o'zgaruvchan tok motorlari; o'zgarmas va o'zgaruvchan chiziqli elektromotorlar tashkil etadi.

Elektr yuritmalarda mexanik uzatish qurilmalari sifatida turli xil reduktorlar, shkvilar, variatorlar, zanjirli va tasmalni uzatmalar va h. k. lar keng qo'llaniladi.

Boshqariluvchi o'zgartkichlarga **elektrik boshqariluvchi** o'zgarmas tok yarimo'tkazgichli to'g'rilaqichlar va impuls kengligi boshqariladigan o'zgartkichlar, chastota va kuchlanish rostlagichlari hamda induktiv - sig'imli parametrik o'zgartkichlar kirishi bilan bir qatorda elektromexanik o'zgartkichlar vazifasini bajaruvchi o'zgarmas tok generatorlari, asinxron va sinxron generatorlar kiradi.



3.1- rasm. Elektr yuritmaning tarkibiy tuzilishi.

Yarim o'tkazgichli boshqariluvchi o'zgartkichlar kuch sxemalarining boshqaruvi tizimlari elektr yuritmalarga qo'yiladigan vazifaviy shartlarga ko'ra oddiy boshqaruvi knopka va komandoapparatlar, magnitli ishga tushiruvchi qurilmalar, mantiqiy elementlar, rostlagichlar, kuchaytirgichlar, mikroprotsessorlar va turli elektron qurilmalardan tashkil topgan bo'lishi mumkin.

Elektr yuritma harakat turiga qarab **aylanma** yoki **ilgarilanma**, ijrochi organining tezligi rostlanuvchi yoki rostlanmaydigan harakatning o'zi uzlusiz yoki **uzlukli va reversiv** bo'lishi mumkin.

Elektromotorlarning soniga qarab **individual**, **guruhiy** va **o'zaro elektrik bog'langan** elektr yuritma turlari mavjuddir.

Individual elektr yuritmalarda ishchi mashinaning bir ijrochi organining harakatini bir motor amalga oshiradi. Guruhiy elektr yuritmalarda esa ishchi mashinaning bir nechta ijrochi organlari harakatlarini bir motor harakatga keltiradi.

Ikki yoki undan ortiq elektrik yoki mehanik bog'langan va o'z harakatlarini moslashtiruvchi individual elektr yuritmalar **o'zaro bog'langan elektr yuritmalar** deb ataladi. Agar bu bog'lanishlar mehanik bo'lsa, ya'ni motorlarning harakati umumiy valni aylantirishga yo'naltirilgan bo'lsa, u holda bu elektr yuritmalar **o'zaro mehanik bog'langan ko'p motorli elektr yuritmalar** deyiladi. Agar motorlarning o'zaro bog'lanishi elektr zanjirlar orqali amalga oshiriladigan bo'lsa, u holda bu elektr yuritmalar **elektr val** deb yuritiladi.

Elektr yuritmalarning turlari xilma-xil bo'lishidan qat'i nazar, ularning asosiy vazifasi elektr energiyani mehanik energiyaga o'zgartirish jarayonida mehanik harakat xarakterini aniqlash va uni boshqarishdan iboratdir.

Zamonaviy elektr yuritmalar rivojlanishining asosiy yo'nalishlari:

- zamonaviy o'zgartikichlar va ularni boshqarishda mikroprotsessorlardan foydalanilgan holda rostlanuvchi komplekt elektr yuritmalarni yaratish va ishlab chiqarish;
- rostlanuvchi asinxron elektr yuritmalardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish;
- texnologik jarayonlarning algoritm hamda modellarini yaratish va elektr yuritmalarni loyihalash jarayonini avtomatlashtirish uchun ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirish;
- energiya tejamkor elektr yuritmalarni loyihalash, yaratish va joriy qilish;
- zamonaviy avtomatlashtirilgan elektr yuritmalarni loyihalash, yaratish va ishlatishni amalga oshira oладиган ilmiy va texnik mutaxassislarni tayyorlash.

### 3.2. Elektr yuritmaning harakat tenglamasi

Elektromotorning harakatlanuvchi qismi (rotor yoki yakor), kinematik uzatish qurilmasining elementlari va ijrochi organ bilan birqalikda elektr yuritmaning **mehanika qismini** (yoki **kinematik sxemasini**) tashkil etadi.

Elektr yuritmaning mehanika qismi har bir elementining harakati mehanika qonunlari bilan izohlanadi. Bu harakatlar ilgarilanma va aylanma xarakterga ega bo'lishi mumkin. Shu bilan birga ko'pgina elementlarining massasi va inersiya momentlari harakati davomida o'zgarmasligini hisobga

olsak, u holda elektr yuritmaning harakat tenglamasi quyidagi ikki tenglama bilan ifodalanadi:

$$\sum F = mdv / dt = ma; \quad (3.1)$$

$$\sum M = Jd\omega / dt = J\varepsilon, \quad (3.2)$$

bunda:  $\sum F$  va  $\sum M$  — elementga ta'sir etuvchi umumiy kuchlar va momentlar;  $m$  va  $J$  — elementning massasi va inersiya momenti;  $a=dv/dt$  va  $\varepsilon=d\omega/dt$  — ilgarilanma va aylanma harakatdagi elementlarning tezlanishlari;  $t$  — vaqt.

(3.1) va (3.2) tenglamalar, element harakatining tezlanishiga, unga ta'sir etuvchi kuchlarning (momentlarning) algebraik yig'indisiga to'g'ri va massasi (inersiya momenti)ga teskari proporsionalligini anglatuvchi ma'lum mexanika qonunini ifodalaydi. Agar  $dv/dt=d\omega/dt=0$  bo'lsa, u holda:

$$\sum F = 0, \quad \sum M = 0, \quad (3.3)$$

boshqacha qilib aytganda, agar elementga ta'sir etuvchi kuch va momentning yig'indisi nolga teng bo'lsa, u holda elektr yuritmaning mexanika qismi elementi o'zgartmas tezlik bilan harakat qilayotgan (yoki tinch holatda) bo'ladi.


Agar  $\sum F > 0$  va  $\sum M > 0$  bo'lsa, u holda elektr yuritmaning mexanika qismi tezlanish bilan harakat qilayotgan bo'ladi, agar  $\sum F < 0$  va  $\sum M < 0$  bo'lsa, u holda uning harakati so'nuvchi xarakterli bo'ladi.

(3.3) shart bo'yicha elektr yuritma mexanika qismining turg'un mexanik harakati ko'rsatkichlari aniqlanadi.

### 3.3. Elektr yuritmaning turg'un harakati

Elektromotor validagi ishchi mashina ijrochi organi hosil qiladigan statik moment  $M_s$  ga teng motor elektromagnit momenti o'zaro teng bo'lganida elektr yuritmaning mexanik harakati turg'un xarakterga ega bo'ladi.

**Motoring mexanik tavsifi deb, motor tezligining hosil qilinayotgan momentga yoki kuchga bog'liqligiga aytildi.** Mexanik tavsiflar tabiiy va sun'iy turlarga bo'linadi. Motoring tabiiy mexanik tavsifi motorni asosiy sxema bo'yicha ko'rsatkichlari nominal bo'lgan elektr tarmog'iga ulash



3.2- rasm. Elektromotor (a) va ba'zi ishchi mashina ijrochi organlarining mexanik tavsiflari (b).

natijasida olingan mexanik tavsifga aytildi, bu tavsif har bir motor uchun yagonadir. 3.2- a rasmida turli rusumdag'i motorlarning tabiiy mexanik tavsiflari keltirilgan.

1—4- tavsiflar mos ravishda sinxron, mustaqil qo'zg'aluvchan o'zgarmas tok motori, asinxron va ketma-ket qo'zg'aluvchan o'zgarmas tok motorlarining mexanik tavsiflari; 5—metall yo'nuvchi dastgohlar bosh mexanizmlarining; 6—transportyor va dastgohlar uzatish mexanizmlarining; 7—ko'tarma mexanizmlarning va 8—ventilator, kompressor hamda nasoslarning mexanik tavsiflari.

Motorni asosiy sxema bo'yicha emas, balki uning elektr zanjiriga qo'shimcha elementlar: qarshiliklar, reaktorlar, kondensatorlar ulangan bo'lса yoki bo'lmasa motorga berilayotgan kuchlanishning qiymati nominaldan farqli bo'lса, u holda motor sun'iy tavsiflarda ishlayotgan bo'ladi deyiladi. Sun'iy tavsiflar motorning o'zgaruvchan koordinatalari: tok, moment, tezlik va holatlarni rostlashda foydalilanligi uchun ham bu tavsiflar rostlash tavsiflari deb ham ataladi.

3.2- b rasmida ba'zi ishchi mexanizmlar ijrochi organlarining mexanik tavsiflari keltirilgan. Real ishchi mexanizmlarning mexanik tavsiflari murakkab ko'rinishga ega bo'lib, 3.2- b rasmdagi tavsiflar majmuasidan iborat bo'lishi ham mumkin.

Yuklanish momentlari  $M_s$  harakati xarakteriga qarab aktiv yoki reaktiv bo'lishi mumkin.

Aktiv moment o'zgarmas yo'nalishli bo'lib, elektr yuritmaning harakat yo'nalishi va tezligiga bog'liq emas. Bunday momentlarga 3.2- b

rasmdagi ko'tarma kran mexanizmining mexanik tavsifi (7- tavsif) misol bo'la oladi.

**Reaktiv momentga** misol tariqasida 3.2- b rasmdagi transportyor mexanizmining mexanik tavsifini (6- tavsif) keltirish mumkin. Bunday momentlarning asosini ishqalanish kuchlari hosil qilib, har doim harakat yo'nalishiga teskari yo'nalgan bo'ladi.

Mexanik tavsiflarning bikrligi quyidagi ifoda bilan aniqlanadi:

$$\beta = dM / d\omega \approx \Delta M / \Delta \omega. \quad (3.4)$$

Bu ko'rsatkichdan foydalanan holda 3.2- a rasmdagi sinxron motor tavsifini (1- gorizontal chiziq) mutlaq bikr ( $\beta=\infty$ ), asinxron motorning tavsifini (3- tavsif) o'zgaruvchan bikrlikka ega deyish mumkin. 3.2- b rasmdagi ko'tarma kran mexanizmining tavsifini (7- tavsif) nol bikrlikka ega deb qarash mumkin.

### 3.4. Elektr yuritmaning rostlanuvchi koordinatalari

#### Tezlikni rostlash

Ko'pgina ishlab chiqarish mashina va mexanizmlari ijrochi organlari harakati tezliklarini rostlash talab etiladi. Elektr yuritma yordamida ijrochi organlar harakatining turli tezliklarda bo'lishi, berilgan tezlik qiymatini bir xil o'zgartirmasdan ushlab turish, vazifalovchi signalning biror qonuniyatga bo'yusunmaydigan qiymatlari asosida tezligini rostlash (izlochchi tizimlarda) yoki oldindan berilgan dastur asosida tezlikni rostlash (dasturli tizimlarda) kabi turlarga bo'linadi.

Elektr yuritma tarkibiy qismini tashkil etuvchi elementlari motor va ijrochi organlarning aylanma va ilgarilanma harakatlarining tezliklari o'zaro quyidagicha bog'langandir:

$$\omega_{io} = \omega / i, \quad v_{io} = \omega \rho. \quad (3.5)$$

Keltirilgan ifodadan ko'rinish turibdiki, ijrochi organ tezligini rostlash mexanik uzatish vositalari orqali yoki motor tezligini rostlash orqali amalga oshirish mumkin.

Motor tezligi qiymati o'zgarmas bo'lgan holda mexanik uzatmaning uzatish soni i ni yoki mexanik uzatmaning keltirilgan radiusi  $\rho$  ni o'zgartirish asosida ijrochi organning tezligini rostlash usuli **tezlikni mexanik usulda rostlash** usuli deb ham yuritiladi. Bu usul bilan tezlikni rostlash reduktor, variator, zanjirli uzatmalar va transportyor kabi mexanik qurilmalar hamda elektromagnit mustalar yordamida amalga oshiriladi.

Ikkinci usul mexanik ko'rsatkichlarini o'zgartirmasdan motor tezligini rostlab, ijrochi organ harakati tezligini rostlash, **tezlikni elektr**

**ko'rsatkichlari bo'yicha rostlash** deb ataladi. Bu usul zamonaviy elektr yuritmalarda tezlikni rostlashda keng qo'llaniladi.

Uchinchi usul har ikkala usulni birgalikda qo'llash bo'lib, bu usul amaliyotda kam qo'llaniladi. Asosan metall yo'nvuchi dastgohlarning elektr yuritmalarida qo'llaniladi.

Motorlarning tezligini rostlash quyidagi asosiy ko'rsatkichlar bilan baholanadi: tezlikni rostlash diapazoni, tezlikning stabilligi, rostlashning silliqligi, rostlashning yo'nalishi, motorning ruxsat etilgan yuklanishi, rostlashning samaradorligi.

**Tezlikni rostlash diapazoni.** Bu ko'rsatkich eng katta tezlikning eng kichik tezlikka nisbati bilan aniqlanadi:

$$D = \omega_{\max}/\omega_{\min}.$$

**Tezlikning stabilligi.** Motor validagi yuklanish momentining mavjud o'zgarishlarida tezlikning o'zgarishi bilan xarakterlanadi. Bu ko'rsatkich mexanik tavsifning bikriliq orqali aniqlanadi. Bikrlik qancha katta bo'lsa, tezlikning yuklanish momentiga bog'liqlik darajasi shuncha kam bo'ladi.

**Tezlikni rostlash silliqligi.** Bu ko'rsatkich bir sun'iy tavsifidan ikkinchisiga o'tishdagi tezlik o'zgarishi qiymati bilan baholanadi. Berilgan tezlikni rostlash diapazonida sun'iy tavsiflar soni qancha ko'p bo'lsa, tezlikni rostlash shuncha silliq kechadi.

**Tezlikni rostlash yo'nalishi.** Berilgan yuklanish momentida motorning tezligi tabiyi tavsifidan pastga yoki yuqoriga qarab rostlanishi mumkin. Birinchi holda tezlikni rostlash, tezlikni pastga qarab rostlash deyilsa, ikkinchi holda yuqoriga qarab rostlash deb ataladi.

**Motorning ruxsat etilgan yuklanishi.** Elektromotor shunday hisoblanib loyihalanganki, motor nominal elektrik ko'rsatkichlari (tezlik, tok, moment, kuchlanish va quvvatlari) ishlaganida aktiv qismlarining qizishi qo'llanilgan izolatsiya materiali turi uchun ruxsat etilgan harorat qiymatidan oshmaydi. Agar ushbu shart bajarilsa, motorning jiddiy ta'mirsiz ishlash muddati 15–20 yilni tashkil etadi.

**Tezlikni rostlashning samaradorligi.** Ishchi mashina yoki mexanizm ijrochi organining berilgan texnik ko'rsatkichlari asosida tezligini rostlash turli rusumdag'i elektr yuritmalardan yordamida amalga oshirilishi mumkin. Tezlik diapazoni, tavsif bikriliqi va boshqa ko'rsatkichlari bir xil bo'lgan turli rusumdag'i elektr yuritmalardan birini tanlash texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlarini o'zaro solishtirish natijasidagina amalga oshiriladi. Bu texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlar: sarmoya sarflari, ekspluatatsion sarflar, elektr yuritmaning ishonchligi, qo'llash va ishlatishning qulayligi, ko'plab ishlab chiqarilganligi, boshqaruvin vositalarining universalligi va h. k.lardir.

## Moment va tokni rostlash

Ko'pincha texnologik jarayonlardan kelib chiqqan holda ijrochi organ harakatini tezlashtirish yoki sekinlashtirish kerak bo'ladi, bu jarayonni elektr yuritma momenti yoki kuchini rostlash orgali amalga oshirish mumkin.

Ishchi mexanizmlarning ishlashi vaqtida ishdan chiqishiga sabab bo'lувчи elektr yuritma hosil qiladigan moment yoki kuchning katta qiymatlarini cheklash kerak bo'ladi (masalan, tuproq qazish ishlarida, quduqlar qazishda, mexanik uzalma tishlarining tishlanib qolishida). Momentni rostlash (cheklash) usullarini tanlash uchun aniqlik va iqtisodiy samaradorlik kabi ko'rsatkichlar o'zaro solishtiriladi. O'zgarmas tok elektr motorining hosil qiladigan elektromagnit momenti quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$M=kFI,$$

bunda:  $k$  — motoring konstruktiv doimiyligi;  $F$  — magnit oqimi;  $I$  — yakor toki. Mana shu uch ko'rsatkichni rostlash natijasida moment qiymatini o'zgartirish mumkin.

Motor toki va momentini rostlash bu alohida hal qilinadigan masalalardir. Kollektor — shchetka bo'g'inalining normal ishlashi uchun o'zgarmas tok motori ishga tushirilayotgan paytda ishga tushirish tokining qiymati nominal qiymatiga nisbatan 2—3 martadan ortiq katta bo'lishiga yo'l qo'yilmaydi. Shuningdek, katta quvvatli o'zgarmas va o'zgaruvchan tok motorlarini ishga tushirishda ishga tushirish toklarini cheklash tarmoq kuchlanishida katta qiymatdagi kuchlanish pasayishiga yo'l qo'ymaslik uchun ham amalga oshiriladi.

## Ijrochi organ holatini rostlash

Ba'zi bir turdag'i ishchi mexanizmlarning ijrochi organlarining fazodagi holatlarini texnologik jarayon kechayotgan vaqtida o'zgartirishga zaruriyat tug'iladi. Bularga robot va manipulatorlar, ko'tarish va transport mexanizmlari, klapanlar, dastgohlarning uzatish mexanizmlari va bir qancha shunga o'xshash mexanizmlar kiradi. Ijrochi organning fazoda bir nuqtadan ikkinchi nuqtaga ko'chishi motor valining holatini rostlash asosida amalga oshiriladi. Bunday yuritmalar pozitsion yuritmalar deb ataladi.

Aniqlik darajasi yuqori bo'lishi talab qilinmagan hollarda ijrochi organlarning fazodagi holatini boshqarish yo'l yoki oxirgi o'chirgichlar yordamida amalga oshiriladi.

Aniqlik darajasi yuqori bo'lishi shart bo'lgan hollarda ijrochi organlarning fazodagi holati koordinatalarida bo'lishi uchun elektr

yuritmalarini boshqariluvchi o'zgartkichlar orqali boshqarilishi talab etiladi.

### 3.5. Koordinatalari rostlanuvchi elektr yuritmalarining tuzilishi

Bajarishi kerak bo'lgan amallari, rostlanuvchi koordinatalarining soni, turi hamda texnologik jarayonni avtomatlashtirishdagi ishtiroti bo'yicha elektr yuritmalarining tuzilishi turli xil bo'ladi.

Hamma elektr yuritmalar **avtomatlashtirilgan** va **avtomatlashtirilmagan** guruhlarga bo'linadi. Avtomatlashtirilmagan elektr yuritmalarini ishga tushirish, tormozlash, tezligini rostlash va harakat yo'nalishini o'zgartirishlar oddiy texnik vositalar (magnitli ishga tushrigichlar, avtomat-o'chirgichlar va h. k.) yordamida operator tomonidan amalga oshiriladi. Ammo elektr yuritma zarur himoya, blokirovka va signalizatsiya qurilmalari bilan jihozlangan bo'ladi.

Avtomatlashtirilgan elektr yuritma texnologik jarayon talablaridan kelib chiggan holda ishchi mexanizmnинг ijrochi organini harakatga keltiradi (3.1- rasmga qarang). Avtomatlashtirilgan elektr yuritmalarida operator ishga tushirish va ish oxirida to'xtatish amallarini bajargan holda sozlash va nazorat funksiyalarini ham bajaradi. Texnologik jarayon vaqtida yuzaga keladigan barcha zarur bo'lgan ko'rsatkichlarni rostlash avtomatik ravishda amalga oshiriladi.

Avtomatlashtirilgan elektr yuritma, o'z navbatida, **ochiq** va **yopiq** guruhlarga bo'linadi. **Ochiq tizimli elektr yuritmalar**da tashqi ta'sirlar elektr yuritmaning chiqish ko'rsatkichlari o'zgarishiga olib keladi. Masalan, motor validagi momentning o'zgarishi motor tezligining oshishiga yoki kamayishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun ham bunday elektr yuritmalarining boshqaruvi sifat ko'rsatkichlari yuqori emas.

**Ochiq tizimli elektr yuritmalar**, odatda, motorlarni ishga tushirish, tormozlash va harakat yo'nalishini o'zgartirish uchungina qo'llaniladi. Elektr yuritmaning bunday sxemalarida tezlik, moment, tok, vaqt va boshqa ko'rsatkichlar to'g'risidagi oniy axborotlar asosida avtomatik rostlanadi.

Elektr yuritmadagi tashqi ta'sirlarni butunlay yoki qisman bartaraf qilish uchun yopiq elektr yuritma tizimlari qo'llaniladi. Yopiq elektr yuritmalar **xatolik bo'yicha** va **g'alayonli ta'sir bo'yicha** rostlanuvchi turlarga bo'linadi.

Xatolik bo'yicha rostlanuvchi elektr yuritmalarida chiqish koordinatalari bo'yicha teskarli aloqa zanjiridagi signal vazifalovchi signal bilan solishtirilib, natijasi elektr yuritma uchun boshqaruvi signalini vazifasini bajaradi va natijada

tashqi ta'sirning yuritma chiqish ko'rsatkichiga bo'ladigan ta'siri to'liq yoki qisman bartaraf etiladi.

G'alayonli ta'sir bo'yicha rostlanuvchi elektr yuritmalarda g'alayonli ta'sir (masalan, Ms) qo'shimcha signal sifatida elektr yuritmaning kirish qismiga vazifalovchi signal bilan baravar beriladi va bu yig'ma signal elektr yuritmaning chiqish koordinatalaridagi g'alayonli ta'sirni butunlay yoki qisman bartaraf qiladi. G'alayonli ta'sir o'lchov o'zgartikichlarining murakkabligi sababli bunday yopiq elektr yuritma tizimlari amaliyotda keng qo'llanilmaydi.

Ba'zi hollarda g'alayonli va xatolik bo'yicha birqalikda rostlanuvchi elektr yuritmalar ham qo'llaniladi.

### **3.6. Mustaqil qo'zg'aluvchan o'zgarmas tok motorli elektr yuritmalarning ish rejimlari va tavsiflari**

#### **Mustaqil qo'zg'aluvchan o'zgarmas tok motorining tarmoqqa ulanish sxemasi va tavsiflari**

Mustaqil qo'zg'aluvchan o'zgarmas tok motorining (MQ O'TM) asosiy ulanish sxemasi 3.3- a rasmida keltirilgan. Bu sxemada quyidagi belgilashlar qabul qilingan:  $I_{ya}$ ,  $I_q$  — yakor va qo'zg'atish chulg'ami ( $Q_{CH}$ ) zanjirlaridagi toklar (A); E — yakoming EYUKi (V);  $\omega$  va M — motoring burchak tezligi ( $c^{-1}$ ) va momenti (Nm);  $R_{yach} = r_{yach} + r_{qq} + r_{kch} + r_{shk}$  — yakor chulg'ami qarshiligi; yakor chulg'ami, qo'shimcha qutblar, kompensatsion chulg'amlarning va shchetka kontaktlarining qarshiliklari (Om);  $R_{qch}$  — qo'zg'atish chulg'amining qarshiligi;  $L_{ya}$  va  $L_{qch}$  — yakor va qo'zg'atish chulg'amlarining induktivliklari (Gn);  $R_q$  va  $R_{qq}$  — yakor va qo'zg'atish chulg'amlariga ulangan qo'shimcha qarshiliklar. Shuningdek, yakor va qo'zg'atish chulg'amlari alohida U va  $U_{qq}$  manbalarga ulangan.


Motoring statik tavsiflarini keltirib chiqarishda quyidagi cheklashlarni qabul qilamiz: yakor reaksiyasi hisobga olinmaydi va motor validagi moment elektromagnit momentga teng.

Kuchlanishlar, yakor EYUKi va elektromagnit tenglamalari asosida elektr yuritmaning elektromexanik va mexanik tavsiflarining ifodalarini hosil qilamiz:

$$\omega = (U - IR)/(kF); \quad (3.6)$$

$$\omega = U/(kF) - MR/(kF)^2, \quad (3.7)$$

bunda:  $R = R_{ya} + R_Q$  — yakor zanjirining to'liq qarshiligi;  $F$  — magnit oqimi,  $Vb$ ;  $U$  — yakor zanjiriga berilayotgan kuchlanishi,  $V$ ;  $k = pN/(2\pi a)$  — motoring konstruktiv koefitsiyenti;  $p$  — qutblar soni;  $N$  —



3.3- rasm. MQ O'TM ning elektr tarmog'iga ulanish sxemasi  
(a) va tavsiflari (b).


yakor chulg'ami aktiv o'tkazgichlarining soni; a — yakor chulg'ami parallel tarmoqlari soni.

(3.6) va (3.7) lar bo'yicha MQ O'TM ning elektromexanik va mexanik tavsiflari, ya'ni burchak tezligining tok va momentlarga bog'liqlik tavsiflari yakor kuchlanishi qutblarining har xil ishorali bo'lgan holdagi ko'rinishlari 3.3 b- rasmida keltirilgan.  $kF=const$  bo'lgan hol uchun elektromexanik va mexanik tavsiflar bir xil ko'rinishga ega bo'lgani sababli ham bitta tavsif bilan ifodalangan. Tavsifning A va B nuqtalari xarakterli nuqtalardir. A nuqta motorning salt yurishini anglatadi —  $\omega = \omega_0$ ,  $I = M = 0$ , B nuqta qisqa tutashish, ya'ni ishga tushirish rejimi deb ham yuritiladi —  $\omega = 0$ ,  $I = I_{q0}$  va  $M = M_{q0}$ .

(3.6) va (3.7) tenglamalar asosida MQ O'TM ning sun'iy tavsiflarini yakor va magnit oqimi zanjirlariga qo'shimcha aktiv qarshiliklar ulab va yakor zanjiriga berilayotgan kuchlanish  $U$  ni o'zgartirish natijasida ham olish mumkin. Bu tenglamalardagi tok va moment motorning mexanik yuklanishi  $M_s$  orqaligina aniqlanadi va bu kattaliklar ixtiyoriy olinmaydi.

### Mustaqil qo'zg'aluvchan o'zgarmas tok motori tezligini yakor chulg'amiga qo'shimcha qarshiliklar ulab tezligini rostlash

Tezlikni rostlashning eng sodda usullaridan biri — bu **yakor zanjiriga qo'shimcha qarshiliklar ulash** usulidir. Bunday usulda tezlikni rostlash usuli rostlashning sifat ko'rsatkichlariga uncha yuqori bo'limgan talablar qo'yilgan energetik ko'rsatkichlari asosiy rol o'ynamagan hollarda qo'llaniladi. Bu usulni amalga oshirish oson (3.4- a rasm).




**3.4- rasm. Yakor chulg‘amiga qo’shimcha qarshiliklar ulab tezligi rostlanadigan MQ O’TM ning statik tavsiflari.**

(3.7) tenglamadan ko‘rinib turibdiki,  $\omega_0$  ning qiymati  $R_Q$  ga bog‘-liq emas. Tavsifning nishabligi  $R_q$  qiymatiga to‘g‘ri proporsionaldir. 3.4-rasmida MQ O’TM ning yakor zanjiriga  $R_{q1} < R_{q2} < R_{q3}$  qarshiliklari ularash natijasida hosil qilingan mexanik (elektromexanik) tavsiflar (1-tavsif motorning tabiiy mexanik tavsifi. 2—4-sun’iy mexanik tavsiflar) keltirilgan.


Tezlikni rostlash diapazoni  $D = (2+3):1$  dan oshmaydi. Sababi, tezlik oshgan sari mexanik tavsifning bikriliği kamayib boradi. Tezlik tabiiy mexanik tavsifdan pastiga qarab rostlanadi. Bunday usulda tezlikni rostlash tezlikni pog‘onali rostlash usuliga kiradi.

### **Mustaqil qo‘zg‘aluvchan o‘zgarmas tok motor tezligini yakor zanjridagi kuchlanishni o‘zgartirib rostlash**

(3.6) va (3.7) tenglamalardan ko‘rinib turibdiki, motorning tezligini rostlash uchun yakor zanjiriga qo’shimcha qarshiliklar ulab tezlikni rostlash bilan bir qatorda, yakor zanjiriga berilayotgan kuchlanishni o‘zgartirish hisobiga ham tezlikni rostlash mumkin. Buning uchun motorning yakor zanjiri qiymati o‘zgaruvchi o‘zgarmas tok kuchlanishi manbaidan ta’milnishi kerak. Asosiy elektr tarmog‘i o‘zgaruvchan tok tarmog‘i ekanligini hisobga olsak, boshqariluvchi o‘zgartirkich sifatida asosan yarimo’tkazgichli boshqariluvchi to‘g‘rilagichlar (BT) qo’llaniladi. Motor yakori BT dan ta’milanadigan elektr yuritma tizimi «boshqariluvchi to‘g‘rilagich — motor» tizimi deb ataladi (3.5- a rasm), bu yerda:  $E_{OZ}$  — BT ning EYUK,  $R_{OZ}$  — BT ning ichki qarshiliqi;  $K_{OZ} = E_{OZ}/U_b$  — BT ning kuchaytirish koeffitsiyenti;  $U_b$  — boshqaruv signalini.



a)



b)

3.5- rasm. MQ O'TM ning yakor zanjiridagi kuchlanishni boshqariluvchi to'g'rilaqich yordamida rostlash sxemasi (a) va motorning elektromexanik (mexanik) tavsiflari (b).

BT ning kuchlanishi:

$$U = E_{o'z} - IR_{o'z}. \quad (3.8)$$

MQ O'TM ning qo'zg'atish chulg'ami alohida o'zgarmas tok manbaiga ulangan bo'ladi.

(3.6) va (3.7) larni (3.2) ni hisobga olgan holda BT — M tizimining elektromexanik va mexanik tavsiflari quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$\omega = E_{o'z}/(kF) - I(R_{y_a} + R_{o'z})/(kF) = \omega_0 - \Delta\omega; \quad (3.9)$$


$$\omega = E_{o'z}/(kF) - M(R_{y_a} + R_{o'z})/(kF)^2 = \omega_0 - \Delta\omega. \quad (3.10)$$

(3.9) va (3.10) ifodalardan ko'riniib turibdiki,  $E_{o'z}$  o'zgarishi bilan proporsional motorning ideal salt yurish tezligi  $\omega_0$  ham o'zgaradi.

Motorning 1—7 elektromexanik (mexanik) tavsiflari (3.5- b rasm) chiziqli va o'zaro parallel bo'lib, ular BT EYUK larining quyidagi qiymatlariga mos keladi:  $E_{o'z1} > E_{o'z2} > E_{o'z3}$ ;  $E_{o'z4} = 0$ ;  $E_{o'z5} = -E_{o'z3}$ ;  $E_{o'z6} = -E_{o'z2}$ ;  $E_{o'z7} = -E_{o'z1}$ .

Har qanday boshqaruvchi koordinatalarini rostlashda sifat ko'rsatkichlari yuqori bo'lishi talab qilinadigan elektr yuritmalarda «boshqariluvchi to'g'rilaqich — motor» tizimi keng qo'llaniladi. Shuning uchun ham bu usul avtomatlashtirilgan o'zgarmas tok elektr yuritmalarning asosini tashkil etadi.

Shuningdek, «o'zgarmas tok generatori — motor» (G—M) tizimida ham motorning yakoriga berilayotgan boshqariluvchi o'zgarmas tok kuchlanishi o'zgarmas tok generatoridan olinadi.



3.6- rasm. G—M tizimining sxemasi.

O'zgarmas tok generatori (3) ning yakori motor (4) ning yakori bilan to'g'ridan-to'g'ri elektrik bog'langan, generator yakorini esa asinxron motor (1) harakatga keltiradi va asinxron motor (1) hamda generator (3) uch fazali o'zgaruvchan tok kuchlanishini o'zgarmas tok kuchlanishiga o'zgartiruvchi elektromexanik to'g'rilaqich (2) ni tashkil etadi (3.6- rasm).

Generator (3) ning qo'zg'atish chulg'amidagi toki qiymatini potensiometr (8) yordamida o'zgartirib, generatorning EYUK i EG o'zgartiriladi va bu EYUK motor (4) yakoriga beriladi. EYUK qiymatiga mos ravishda motor (4) ning tezligi nominaldan pastga qarab rostlanadi. Motor (4) ning qo'zg'atish chulg'amidagi toki IQ qiymatini o'zgaruvchan qarshilik (6) yordamida o'zgartirilib uning magnit oqimi qiymati rostlanadi, natijada motor tezligini endi ikkinchi zonada ham, ya'ni nominaldan yuqoriga qarab rostlash mumkin. G—M tizimining elektromexanik (mexanik) tavsiflari 3.5- b rasmdagi tavsiflarga mos keladi.

### Mustaqil qo'zg'aluvchan o'zgarmas tok motorining tezligini magnit oqimini o'zgartirib rostlash


Magnit oqimini o'zgartirib elektr yuritma tezligini rostlash o'zining soddaligi va kam energiya sarf bo'lishi sababli keng qo'llaniladi. Chunki motor qo'zg'atish chulg'amidagi kuchlanishni o'zgartirishga sarf bo'ladigan energiya, yakor zanjirida sarf bo'ladigan energiyadan bir necha barobar kamdir.

Motorlarning nominal ish rejimi motor magnit tizimining to'yin-magan qismiga to'g'ri keladi, bu esa magnit oqimi qiyamatining qo'z-g'atish chulg'ami tokiga chiziqli bog'langan deb qarash imkonini beradi. (3.6) va (3.7) ifodalardan ko'rinish turibdiki, magnit oqimining nominal qiyamatidan kamayish tomonga o'zgartiradigan bo'lsak, motorning tezligi nominaldan katta bo'lgan qiyatlarga erishishi mumkin ekan.


Qo'zg'atish chulg'amidagi tokni o'zgartirish uchun qo'zg'atish chulg'amiga qo'shimcha o'zgaruvchan qarshilik  $R_q$  ulanadi (3.7- b rasm) yoki qo'zg'atish chulg'aminaing boshqariluvchi manbai sifatida boshqariluvchi to'g'rilaqich BT (3.7- a rasm) qo'llaniladi.

Qo'zg'atish chulg'amidagi kuchlanish boshqaruv signali  $U_b$  yordamida boshqariladi. Bu sxema odatda katta quvvatli motorlarning qo'zg'atish chulg'ami toklarini keng oraliqda o'zgartirishda, shuningdek, agar BT sxemasi reversiv qilib bajarilgan bo'lsa, u holda qo'zg'atish toki yo'nalishini o'zgartirib motorni revers qilishda ham ishlataladi.

(3.6) tenglama bo'yicha magnit oqimining kamayishi ideal salt yurish tezligi  $\omega_0$  ning oshishiga olib keladi. Qisqa tutashuv toki  $I_{qt} = U / R_{Y_a}$  magnit oqimi o'zgarishiga bog'liq emas. Magnit oqimlarining  $F_N > F_1 > F_2$  qiyatlari uchun motorning elektromexanik tavsiflari quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi (3.8- a rasm).



3.7- rasm. MQ O'TMi ning qo'z-g'atish chulg'amiga boshqariluvchi to'g'rilaqich (a) va o'zgaruvchan qarshilik ulab (b) qo'zg'atish toki ni rostlash sxemalari.



3.8- rasm. MQ O'TM ning magnit oqimini o'zgartirib tezligi rostlanganidagi elektromexanik (a) va mexanik tavsiflari (b).


Qisqa tutashuv momenti  $M_{q1} = kFl_{q1}$  ekanligini hisobga oladigan bo'lsak  $I_{QT} = \text{const}$ , u holda  $M_{q1} < M_{q2} < M_{q3}$  bo'ladi (3.8- b rasm).

Magnit oqimining kamayishi bilan bir paytda tezlik oshadi hamda moment qiymati kamayadi va ularning ko'paytmasi bo'lgan mexanik quvvat nominalga teng bo'lib o'zgarmasdan qoladi. Shunday qilib, bu usul bilan motor tezligini rostlash mexanik quvvat o'zgarmaydigan yuritmalarda qo'llanilganida, sun'iy tavslardacha motordan quvvati bo'yicha to'liq foydalanish imkonini beradi.


### **Mustaqil qo'zg'aluvchan o'zgarmas tok motorini ishga tushirish va tormozlash**

Motorni ishga tushirish jarayonida uning toki va momentini rostlash yoki chegaralashning eng oddiy usuli yakor zanjiriga rostlanmaydigan qarshilik  $R_0$  ni ulash bilan amalga oshiriladi.

Motorning ishga tushirilishi sun'iy tavslif (*I*) bo'yicha bo'lib, bunda yakor zanjiriga  $R_0$  qarshilik ulangan bo'ladi va bu qarshilik *ishga tushirish qarshiligi* deyiladi (3.9- rasm). Motorni ishga tushirish vaqtida uning toki



**3.9- rasm. MQ O'TM ini ishga tushirish va teskari ulab tormozlash tavsliflari.**



3.10- rasm. MQ O'TM ni dinamik tormozlash sxemasi.

va momenti berilgan ruxsat etilgan qiymatlari  $I_1 = I_{\max}$ ,  $M_1 = M_{\max}$  bilan chegaralanadi. Tezlik oshib borgan sari motorning EYUK oshib, yakordagi tok kamayib boradi va tezlik  $\omega_1$  qiymatiga yetganida qarshilik  $R_Q$ , yakor zanjirdan uzladi, ya'ni  $R_Q$  ning uchlari o'zaro tutashtiriladi. Motor tabiiy tavsif (2) ga o'tib ishlay boshlaydi, bu o'tish vaqtida tok va momentlarning tegishli o'zgarishlari berilgan qiymatdan oshib ketmasligi kerak.

MQ O'TM ning revers yoki **teskari ulab tormoz rejimlarida** ishlashi yakor yoki qo'zg'atish chulg'amrlariga berilayotgan kuchlanishning qutblarini o'zgartirib, yakor zanjiriga qo'shimcha  $R_{Q2}$  qarshilik ulab amalga oshiriladi va motor 5- tavsifda ishlaydi.

Katta quvvatli motorlarni ishga tushirishda elektr energiya sarfi va ishga tushirish jarayoni vaqtini kamaytirish maqsadida yakor zanjiriga qarshiliklar seksiyasi ulanadi.

3.10- rasmdagi sxema bo'yicha motorni **dinamik tormozlanish** rejimiga o'tkazganimizda tezlik  $\omega_{int}$  qiymatiga yetganda, ya'ni motorning 2- tavsifi ijrochi organning mexanik tavsifi 3 bilan kesishganda, yakor zanjiriga  $R_Q$  qarshilik parallel ulanadi va motor 4- tavsif bo'yicha ishlaydi.  $R_Q$  ning qiymati elektr yuritmaning sekinlashish tempi yoki motorning kommutatsiya sharoitlaridan kelib chiqqan holda aniqlangan  $I$  yoki  $M$  qiymatlari asosida hisoblanadi.

**Rekuperativ tormoz rejimida** motorni tarmoqqa ularash sxemasida hech qanday o'zgarish ro'y bermaydi, motor validagi statik moment yo'naliishining o'zgarishi natijasida motoring tezligi salt yurish tezligidan oshib ketadi va motor tarmoqqa parallel ishlayotgan generator sifatida ishlaydi.

### 3.7. Ketma-ket qo'zg' aluvchan o'zgarmas tok motorli elektr yuritmalarining ish rejimlari va tavsiflari

#### Ketma-ket qo'zg' aluvchan o'zgarmas tok motorini tarmoqqa ulash sxemasi va tavsiflari

Elektr transportda va ko'pgina ko'tarish mashina va mexanizmlarining elektr yuritmalarida ketma-ket qo'zg' aluvchan o'zgarmas tok motorlari (KKQ O'TM) keng qo'llaniladi.

Bu motorlarda qo'zg' atish chulg'ami (2) yakor chulg'ami (1) bilan ketma-ket ularishi natijasida qo'zg' atish chulg'amidan va yakor chulg'amidan ham bir xil tok o'tadi. 3.11- rasmida KKQ O'TM ining ularish sxemasi va magnitlanish tavsiflari keltirilgan bo'lib, quyidagi belgilashlar qabul qilingan: 1, 2, 3 — mos ravishda motoring yakori va qo'zg' atish chulg'amlari hamda qo'shimcha qarshilik; 4 — to'g'ri chiziqliga keltirilgan magnitlanish tavsifi va 5 — real magnitlanish tavsifi.


KKQ O'TM ning elektromexanik va mexanik tavsiflari (3.6) va (3.7) formulalar bilan ifodalanadi, ammo magnit oqimining yakor tokiga  $F(I)$  bog'liqligini hisobga olishga to'g'ri keladi, shuning uchun ham bu formulalarni quyidagi ko'rinishda yozamiz:

$$\omega = (U - IR)/[kF(I)]; \quad (3.11)$$


$$\omega = U/[kF(I)] - MR/[kF(I)]^2, \quad (3.12)$$

bunda:  $R = R_{ya} + R_{Q2} + R_Q$  — yakor zanjirining umumiy aktiv qarshiliqi. Magnit oqimi  $F(I)$  tok bilan o'zaro 5 magnitlanish tavsifi bo'yicha bog'langan (3.11- b rasm).

Tok va momentlarning kichik qiymatlarida motoring tezligi katta qiymatga ega bo'ladi hamda ordinata o'qi bilan kesishmaydi. 3.11- a



3.11- rasm. KKQ O'TM ning tarmoqqa ularish sxemasi (a) va magnitlanish tavsifi (b).



3.12- rasm. KQ O'TM ning universal tavsiflari.


rasmdagi sxema bo'yicha tarmoqqa ulangan KKQ O'TM ning salt yurish va rekuperativ generator rejimlari bo'lmaydi.  $I \rightarrow 0$  va  $M \rightarrow 0$  bo'lsa, u holda magnit oqimi  $F \rightarrow 0$  bo'ladi, natijada  $E \rightarrow U$  bo'ladi, ya'ni tezlikning har qanday qiymatida ham  $E < U$  tengsizlik saqlanib qolaveradi.

KKQ O'TM larining tavsiflarini hisoblash va qurish uchun uning universal tavsiflaridan foydalilaniladi (3.12- rasm). Bu tavsiflar nisbiy tezlik  $\omega_r = \omega / \omega_N$  (1- tavsif) va nisbiy moment  $M_r = M / M_N$  (2- tavsif) larning nisbiy tok  $I_r = I / I_N$  qiymatiga nisbatan o'zgarishi tavsiflaridir. Katalog va ma'lumotnomalarda berilgan KKQ O'TM ning nominal qiymatlari bo'yicha nominal burchak tezligi  $\omega_N$ , toki  $I_H$  va momenti  $M_N$  aniqlanadi, shundan so'ng yakor tokining nominal qiymatiga nisbatan 0,4 dan 2,0 qiymatigacha qiymatlar berib, avval  $M(I)$  bog'liqlik funksiyasi aniqlanadi va shu funksiya asosida elektromexanik  $\omega(I)$  va mexanik  $\omega(M)$  tavsiflarini chizamiz.

### Ketma-ket qo'zg'aluvchan o'zgarmas tok motori tezligini yakor chulg'amiga qo'shimcha qarshiliklar ulab rostlash

KKQ O'TM ning yakor zanjiriga qo'shimcha qarshiliklar ulab tezligini rostlash eng oson amalga oshiriladigan tezlikni rostlash usulidir.

3.11- a rasmdagi yakor chulg'amiga ulangan qo'shimcha qarshilik qiymatini rostlash (bir nechta qarshiliklarni ketma-ket ulab, tezlikni pog'onali rostlash) natijasida sun'iy elektromexanik va mexanik tavsiflarni olish mumkin. Bunda barcha sun'iy tavsiflar tabiiy tavsifdan pastda bo'ladi (3.13- rasmdagi 2- tavsiflar).




3.13- rasm. Yakor chulg‘amiga qo‘sishimcha qarshiliklar ulab tezligi rostlanganidagi KKQ O‘TM ning elektromexanik (a) va mexanik tavsiflari (b).

Bu usul bilan motorning tezligi rostlanganida rostlanish diapazonи  $D = (2 + 3):1$  bo‘lib, tezlikning kichik qiymatlarida motorning qisqa muddatli ish rejimida ishlashi iqtisodiy jihatdan ma’qul bo‘ladi.

**Magnit oqimi va kuchlanishni o‘zgartirib hamda yakor chulg‘amiga qo‘sishimcha qarshiliklarni parallel ulab ketma-ket qo‘zg‘aluvchi o‘zgarmas tok motorining tezligini rostlash**

**Magnit oqimini o‘zgartirib motor tezligini rostlash.** Bu usul bilan motor tezligini rostlash motor (1) ning qo‘zg‘atish chulg‘ami (3) ga qo‘sishimcha parallel ulanadigan o‘zgaruvchan qarshilik (2) ni o‘zgartirib amalga oshiriladi (3.14- a rasm). Shuni unutmaslik kerakki,




3.14- rasm. KKQ O‘TM magnit oqimini o‘zgartirib tezligini rostlash sxemasi (a) va mexanik tavsiflari (b).

magnit oqimining rostlanishi bu rusumdagи motorlar uchun to'liq mustaqil bo'lmaydi, chunki bu ko'rilibayotgan sxemada avvaldagidek magnit oqimi elektr yuritmaning yuklanishiga, ya'ni yakor toki I ga proporsionaldir.

$R_p = \infty$  bo'lishi (o'zgaruvchan qarshilikning zanjirdan uzilgan holatiga to'g'ri keladi) motoring tabiiy tavsifida ishlashini bildiradi (3.14- b rasmndagi 4- tavsif).  $0 < R_p < \infty$  oraliqdagi qiymatlarida  $I_q$  tokning bir qismi  $R_p$  qarshilik orqali o'tgani sababli magnit oqimi F kamayadi, natijada motor tezligi oshadi (3.14- b rasmndagi 5- tavsiflar).

**Kuchlanishni o'zgartirib motor tezligini rostlash.** Bu usul bilan tezlikni rostlash motor 2 boshqariluvchi to'g'rilagich I dan ta'minlanib, uning chiqishidagi kuchlanish U ning qiymati boshqaruv signali  $U_b$  orqali boshqariladi (3.15- a rasm).




3.15- rasm. KKQ O'TM ning kuchlanishini o'zgartirib tezligini rostlash sxemasi (a), mexanik tavsiflari (b).

O'zgartkich kuchlanishining turli qiymatlariga mos keluvchi motoring mexanik tavsiflari 3.15- b rasmda keltirilgan. Boshqariluvchi to'g'rilagichning ichki qarshiligidini hisobga olmasak, motor tabiiy mexanik tavsifda ishlaydi (3- tavsif).

Yakor zanjiridagi kuchlanish qiymati nominal qiymatidan kam bo'lgan hollarda motor sun'iy tavsiflarda ishlaydi (4- tavsif).

**Motor yakoriga qarshiliklarni parallel ulab tezlikni rostlash.** Bu usul KKQ O'TM li elektr yuritmalarda kichik tezliklarni va ma'lum ideal salt yurish tezliklarini hosil qilish uchun qo'llaniladi.




3.16- rasm. KKQ O'TM ning yakoriga parallel qarshilik ulab tezikni rostlash sxemasi.

Yakor (1) ga  $R_p$  qarshilik parallel ulanadi, qo'zg'atish chulg'ami (2) ga ketma-ket o'zgaruvchan  $R_{QQ}$  qarshilik ulanadi va qo'zg'atish chulg'ami bilan  $R_{QQ}$  qarshilik kuchlanishni bo'lувчи vazifasini o'taydi (3.16- rasm).

$I=0$  bo'lganida  $R_p$  hisobiga  $I_{QQ} \neq 0$  bo'ladi va shuning uchun motorda ideal salt yurish tezligi  $\omega_0$  mavjud bo'ladi. Motor tezligi  $\omega > \omega_0$  bo'lganida yakordagi tok yo'nalishini o'zgartiradi va tezlikning oshishiga qarab  $I_Q$  kamaya boradi. Yakordagi tokning qiymati  $I = -U/R_p$  ga intilganda  $I_{QQ} \rightarrow 0$ ,  $F \rightarrow 0$  va  $\omega \rightarrow \infty$  bo'ladi. Boshqacha aytganda, elektromexanik tavsif 1 uchun  $I = -U/R_n$  — vertikal chiziq asimptota bo'ladi (3.17- a rasm).

$\omega = \omega_0$ ,  $I = 0$  va  $M = 0$  bo'lib,  $I \rightarrow -U/R_p$ ,  $F \rightarrow 0$  va  $M \rightarrow 0$  bo'lganida tezlik o'qi mexanik tavsiflar uchun asimptota bo'ladi.  $\omega = \omega_0$  bo'lganida  $M = 0$  va  $\omega \rightarrow \infty$  oraliq'idagi tezlikda  $M = M_{MAX}$  bo'ladi (3.16- b rasmdagi 2- tavsif).




3.17- rasm. Yakor zanjiriga qarshilik ulangan KKQ O'TM ning elektromexanik (a) va mexanik tavsiflari (b).


## Ketma-ket qo'zg' aluvchi o'zgarmas tok motorli elektr yuritmalarning tormoz rejimlari

**KKQ O'TM ni dinamik tormozlash.** KKQ O'TM ni mustaqil qo'zg' atishli dinamik tormozlash 3.10- rasmida keltirilgan sxema bo'yicha amalga oshiriladi. Tavsiflari 3.18- rasmda keltirilgan ko'rinishda bo'lib, qarshilik qiymati oshib borgan sari tavsifning nishabligi ham oshib boradi. Qarshilikning  $R_{Q3} > R_{Q2} > R_{Q1}$  qiymatlari uchun mos ravishda 3, 2, 1-tavsiflar to'g'ri keladi.

**Uyg'otishli dinamik tormozlash** 3.19- a rasmdagi sxema bo'yicha amalga oshiriladi. Motor yakori (*I*), qo'zg' atish chulg'ami (*2*) va



3.18- rasm. KKQ O'TM ning mustaqil qo'zg' atishli dinamik tormozlanish tavsiflari.



3.19- rasm. KKQ O'TM ning uyg'otishli dinamik tormozlanish sxemasi (a) va tavsiflari (b).

qo'shimcha qarshilik (3) (bu qarshilik bo'lmasligi ham mumkin) bilan o'zaro yopiq kontur hosil qiladi.


O'zuyg'otish rejimining paydo bo'lishi va joriy qilinishi uchun motordagi qoldiq magnit oqimi  $F_{QOL}$  bo'lishi va uning yo'nalishi qo'zg'atish chulg'ami hosil qilayotgan asosiy magnit oqimi  $F$  yo'nalishi bilan bir xil bo'lishi va  $R_{Y_a} + R_{QCh} + R_{QQ} < R_{QR}$  sharti bajarilishi kerak.

O'zuyg'otish dinamik tormozlash rejimida qoldiq magnit oqimi va yakorning aylanishi natijasida yakorda EYUK hosil bo'ladi va bu EYUK ta'sirida yakor zanjiridan tok o'ta boshlaydi. Bu tok asosiy magnit oqimi ( $F$ ) ni yuzaga keltiradi va bu magnit oqimining yo'nalishi qoldiq magnit oqimi  $F_{QOL}$  yo'nalishi bilan bir xil bo'lgani uchun EYUK qiymatining oshishiga olib keladi. Bu esa, o'z navbatida, motor tokining oshirib motorning o'zuyg'otish jarayoni EYUK bilan yakor zanjiridan umumiy kuchlanish pasayishiga teng bo'lguncha davom etadi.

Qarshiliklarning  $R_{QQ3} > R_{QQ2} > R_{QQ1}$  qiymatlariga mos KKQ O'TM ning o'zuyg'otishli dinamik tormozlash tavsiflari 3-, 2-, 1- tavsiflari to'g'ri keladi (3.19- b rasm).

**KKQ O'TM ni teskari ulab tormozlash.** Bu rejim motor yakoridagi tok yo'nalishini o'zgartirib, qo'zg'atish chulg'amidagi tok yo'nalishi o'zgartirmasdan qoldiriladi (yoki teskarisi), motor momenti ishorasi o'zgaradi. Bu rejimda yakor zanjiri (1) dagi tok qiymatini cheklash uchun qo'shimcha qarshilik (2) ulanadi (3.20- a rasm).

Tormozlash jarayoni tavsiflari 3.20- b rasmida keltirilgan. Tormozlangunga qadar motor  $a$  nuqtada ishlayotgan bo'lsa (1- tavsif), yakor zanjiriga qo'shimcha  $R_Q$  ulab yakordagi tok yo'nalishini o'zgartirganimizdan so'ng motor 1- tavsifdan 2- tavsifning v nuqtasiga o'tadi va bu tormozlanish jarayoni 2- tavsifning vs qismini o'z ichiga oladi.



3.20- rasm. KKQ O'TM ning teskari ulab tormozlanish sxemasi  
(a) va tavsiflari (b).

2- tavsifning  $s$  nuqtasida  $\omega = 0$  bo'ladi va motorning boshqaruv sxemasi tarmoqdan uziladi.

Teskari ulab tormozlash rejimi, shuningdek, motor aktiv moment bilan yuklangan bo'lsa va uning qiymati  $M_{q1}$  qiymatidan katta bo'lgan holda ham sodir bo'ladi.

Aytaylik, motor I- tavsifning  $a$  nuqtasida ishlayotgan bo'lsin va yakor zanjirdagi tokning yo'nalishini o'zgartirmay, balki qo'shimcha qarshilik  $R_0$  ulaganimizda, motor 3- sun'iy tavsifning e nuqtasiga o'tib, tormoz rejimida ishlay boshlaydi. 3- tavsifning e nuqtasida motor momenti yukanish momenti  $M_s$  dan kichik bo'lgani uchun motor sekinlasha boshlaydi, so'ngra  $M_s > M_{q1}$  ta'sirida teskari yo'nalish bo'yicha tezligi osha boshlaydi. 3- tavsifning e nuqtasida motor momenti bilan  $M_s$  tenglashadi. Motor teskari ulanib tormozlash rejimida ishlaydi.

### 3.8. Asinxron motorli elektr yuritmalarning ish rejimlari va tavsiflari

#### Asinxron motorning ularish sxemasi, statik tavsiflari va ish rejimlari

Uch fazali asinxron motor (A) kuchlanishi U va chastotasi f bo'lgan uch fazali o'zgaruvchan tok tarmog'iga ularuvchi stator chulg'amidan, rotor chulg'ami esa ikki xil variantda bajarilgan bo'lishi mumkin.


**Birinchi variant** — asinxron motorning rotori uch fazali chulg'amdan iborat bo'lib, uning uchlari uchta kontakt halqalarga chiqarilgan bo'ladi, bunday asinxron motor **faza rotorli asinxron motor** deb ataladi (3.21- a rasm). Rotor zanjiriga turli elektrotexnik elementlar, masalan, qarshiliklar ulab elektr yuritmaning tezligi, toki va momentini rostlash va shu maqsadda alohida sxemalarni qo'llash ham mumkin.

**Ikkinchi variant** — rotor ariqchalariga aluminiy eritilib quyilib, uchlari o'zaro qisqa tutashtiriladi va bunday asinxron motor **rotori qisqa tutashtirilgan asinxron motor** deb ataladi (3.21- b rasm).

Asinxron motorning elektromexanik tavsifi (3.22- rasm) rotor tokining tezlikka emas, sirpanishga bog'liq o'zgarishi sifatida qaratilishi bilan o'zgarmas tok motorlarining elektromexanik tavsiflaridan farq qiladi. Sirpanishni tezlik bilan almashtirish quyidagi ifoda bilan amalga oshiriladi:

$$\omega = \omega_0 (1-s). \quad (3.13)$$

**Asinxron motorning mexanik tavsifi** quyidagi Kloss formulasi bilan hisoblanadi:




3.21- rasm. Faza rotorli (a) va rotori qisqa tutashtirilgan asinxron motorlarning ularish sxemalari (b).

$$M = \frac{M_k + as_k}{\frac{s}{s_k} + \frac{s_k}{s} + as_k}, \quad (3.14)$$

bunda:  $a = R_1/R_2$  — stator chulg'ami aktiv qarshiligining keltirilgan rotor chulg'ami aktiv qarshiligiga nisbati;  $M_k$  — sirpanishning kritik qiymati  $s_k$  ga to'g'ri keluvchi moment qiymati (kataloglarda motorning nominal momentga nisbatan yuklanganlik ko'rsatkichi  $\lambda_M = \frac{M_k}{M_n}$  sifatida beriladi);  $S_k = S_n(\lambda_M \pm \sqrt{\lambda_M^2 - 1})$ .

Asinxron motor mexanik tavsiyining xarakterli nuqtalari:  
 $s = 0, \omega = \omega_0, M = 0$  — ideal salt yurish nuqtasi;  
 $s = 1, \omega = 0_0, M = M_{OT} = M_{IT}$  — qisqa tutashuv nuqtasi;  
 $s = s_{KM}, M = M_{KM}, s = -s_{KG}, M = -M_{KG}$  — ekstrimum nuqtalar;



3.22- rasm. Asinxron motorning elektr mexanik tavsifi.

$s \rightarrow \pm\infty, \omega \rightarrow \mp\infty, M \rightarrow 0$  — mexanik tavsifning asimptotasi — koordinatalar tizimining tezlik o'qi.

Ba'zi hollarda stator chulg'amining aktiv qarshiligini hisobga olmasdan ( $R_1 = 0$ ) asinxron motorning mexanik tavsifini qurishda soddalashtirilgan formuladan foydalaniildi:

$$M = \frac{2M_k}{\frac{S}{S_k} + \frac{S_k}{S}}. \quad (3.15)$$

Asinxron motor energetik rejimlarning barchasida ishlashi mumkin.

$s = 0, \omega = \omega_0$  — ideal salt yurish rejimi;

$s = 1, \omega = 0$  — qisqa tutashuv rejimi;

$0 < s < 1, 0 < \omega < \omega_0$  — motor rejimi;


$s < 0, \omega > \omega_0$  — tarmoq bilan parallel ishlaydigan generator rejimi (rekuperativ tormozlash);

$s > 1, \omega < 0$  — tarmoq bilan ketma-ket ishlaydigan generator rejim (teskari ulab tormozlash).

Bundan tashqari asinxron motor dinamik tormoz rejimida ham ishlay oladi.

### Asinxron motor koordinatalarini rostlash usullari

**Stator zanjiriga qo'shimcha qarshilik  $R_{1Q}$  larni ulab asinxron motor koordinatalarini rostlash.** Bu usul, asosan, rotori qisqa tutashirilgan asinxron motorlarning o'tkinchi jarayonlarida tok va moment qiymatlarini rostlash (cheklash)da qo'llaniladi. Stator zanjiriga qo'shimcha  $R_{1Q}$  qarshilikning ulanishi berilgan tezlik (sirpanish)da stator va rotor tokining kamayishiga otib keladi.  $R_{1Q}$  qarshilikning ulanishi ideal salt yurish tezligi  $\omega_0$  ni o'zgartirmaydi.




3.23- rasm. Stator chulg‘amiga ulangan qo‘sishmcha qarshiliklarning yordamida koordinatalari rostlanadigan asinxron motorning mexanik tavsiflari.

Stator zanjiriga ulanadigan qo‘sishmcha qarshiliklarning amaliy ahamiyati shundaki, bu qarshiliklarning qiymatiga proporsional ravishda asinxron motorni ishga tushirishdagi qisqa tutashuv toki  $I_{QT}$  qiymatini cheklash imkonini beradi.

3.23- rasmdagi mexanik tavsiflar tahlili shuni ko‘rsatadiki,  $R_{1Q} = \text{var}$  bo‘lganida,  $\omega_0 = \text{const}$  bo‘lib, tabiiy va sun’iy tavsiflar uchun ideal salt yurish tezligi o‘zgarmaydi va barcha tavsiflar  $\omega_0$  nuqtadan boshlanadi. 1- tavsif asinxron motorning tabiiy tavsifi bo‘lib ( $R_{1Q} = 0$ ), qolgan sun’iy tavsiflar qarshiliklarning  $R_{1Q1} < R_{1Q2} < R_{1Q3}$  qiymatlariga mos keluvchi 2, 3, 4- sun’iy tavsiflardir. Sun’iy tavsiflarning  $M_k$  va  $S_k$  qiymatlari  $R_{1Q}$  qiymatiga mos ravishda kamayadi. Sirpanish  $s = 1$  qiymatda asinxron motorni ishga tushirish momenti ham  $R_{1Q}$  qiymatiga qarab kamayadi. Bu usul tezlikni rostlashga yaramaydi, chunki tezlikni rostlash diapazoni juda kichik; bu usul, odatda, asinxron motorning turli o’tkinchi jarayonlarida, ya’ni ishga tushirish, revers va tormozlash vaqtlarida tok va momentni cheklash maqsadlaridagina qo’llaniladi.

**Rotor zanjiriga qo‘sishmcha qarshilik  $R_{2Q}$  larni ulab, asinxron motor koordinatalarini rostlash usuli asinxron motor toki va momentini rostlash bilan bir qatorda tezligini rostlashda ham qo’llaniladi.**



3.24- rasm. Rotor chulg'amiga ulanadigan qo'shimcha qarshiliklarning turli qiymatlariga mos keluvchi fazalar rotorli asinxron motoring mexanik tavsiflari.

Bu usul bilan asinxron motoring sun'iy mexanik tavsiflarini qurganimizda  $R_{2Q}$  ning har qanday qiymatlarida ideal salt yurish tezligi  $\omega_0$  va momentining maksimal (kritik) qiymati  $M_K$  o'zgarmaydi. Ammo sirpanishning kritik qiymati  $S_K$  o'zgaradi. 3.24- rasmida asinxron motoring rotor zanjiriga ulangan qo'shimcha qarshiliklarni o'zgartirib tezligini boshqarish jarayonining mexanik tavsiflari keltirilgan bo'lib, bunda 1- tabiiy tavsif ( $R_{2Q} = 0$ ) va 2—3 ( $R_{2Q3} > R_{2Q2}$ ) sun'iy tavsiflardir.

Tezlikni rostlash diapazoni  $MQ$  O'TM niki kabi  $D=(2+3):1$  bo'lib, tezlikni chuqurroq rostlaganimizda mexanik tavsifning bikriliği kamayib boradi; tezlik asosiy tezlikdan pastga qarab rostlanadi; rostlanish silliqligi  $R_{2Q}$  qiymatining silliq o'zgarishiga bog'liq; rostlash jarayonida elektr energiya isrofi katta. Quvvat isrofini tahlil qiladigan bo'lsak, sirpanish s ning oshishi rotor zanjirida quvvat isrofining oshishiga olib keladi, bu esa FIK kamayishiga sabab bo'ladi.

Bunday usul bilan tezlikni rostlash qisqa muddatli ish rejimida ishlayotgan elektr yuritmalar uchun maqsadga muvofiqdir. Masalan, yuk ko'tarish mashina va mexanizmlarining elektr yuritmalarida keng qo'llaniladi.


## Asinxron motorli elektr yuritma koordinatalarini kuchlanishni o'zgartirib rostlash

Asinxron motorning rostlanuvchan koordinatalarini rostlashni nisbatan sodda boshqaruv sxemalari asosida, stator chulg'amiga berilayotgan kuchlanishni o'zgartirib amalga oshirish mumkin. Bu usulning yana bir jihat energiya tejamkor asinxron elektr yuritmalarini yaratish imkonini ham berishidir.

Rotori qisqa tutashtirilgan asinxron motor koordinatalarini rostlash uchun asinxron motor (2) bilan tarmoq o'rtasida boshqariluvchi o'zgaruvchan tok o'zgartkichi (1) bo'lib, uning chiqish qismidagi rostlanuvchi kuchlanish  $U_{\text{rost}}$  boshqariluvchi o'zgartkichiga berilayotgan boshqaruv signali  $U_b$  ga proporsional o'zgaradi (3.25- rasm). Stator chulg'amidagi kuchlanish 0 dan  $U_{IN}$  gacha o'zgargan holda uning chastotasi  $f = 50$  Gs o'zgarmay golaveradi.

Stator chulg'amidagi kuchlanishning o'zgarishi ideal salt yurish tezligini o'zgartirmaydi, chunki bu tezlik kuchlanish chastotasiga to'g'ri, proporsional qutblar soniga esa teskari proporsionaldir. Sirpanishning kritik qiymati esa motor chulg'amilarining qarshiliklari qiymatiga va motorning yuklanish darajasiga bog'liq. Motorning maksimal momenti esa kuchlanishning kvadratiga to'g'ri proporsionaldir.

Shu sababli  $U_{\text{rost}} = \text{var}$  uchun qurilgan mexanik tavsiflar asinxron motor tezligini rostlash uchun yaramaydi (3.25- b rasm), chunki



3.25- rasm. Asinxron motorning stator chulg'amidagi kuchlanishni o'zgartirib koordinatalarini rostlash sxemasi (a) va mexanik tavsiflari (b).

kuchlanish qiymati kamaygan sari uning yuklanish darajasi kamayib boradi va rostlanish diapazoni ham juda kichik bo'ladi. 3-, 4-, 5-, 6-tavsiyalar kuchlanishning  $U_{IN}$ , 0,8  $U_{IN}$ , 0,6  $U_{IN}$ , 0,4  $U_{IN}$  qiymatlari uchun qurilgan. Shu sababli ham 3.25- a rasmdagi asinxron elektr yuritma tizimini asinxron motorning o'tkinchi jarayonlarida, texnologik talablardan kelib chiqqan holda moment va tok qiymatlariga ta'sir etish uchun qo'llash mumkin.

Boshqariluvchi o'zgaruvchan tok o'zgartkichi sifatida boshqariluvchi transformator, avtotransformator, induksion regulator va tiristorli kuchlanish rostlagichlar (TKR) qo'llaniladi. Hozirgi paytda, asosan, TKR lar qo'llanilmoqda. Chunki boshqa o'zgartkichlarga nisbatan TKR yuqori FIK ga ega bo'lishi bilan bir qatorda asinxron motorlarni boshqarishda avtomatik tizimlarni qo'llash uchun qulay hamdir.


Keng tarqalgan «**Tiristorli kuchlanish rostlagich – asinxron motor**» tizimi asosini tashkil etuvchi TKR ning ishlash prinsipini ko'rib chiqamiz.

3.26- a rasmida bir fazali o'zgaruvchan tokning yuklanishi  $Z_y$  bo'lgan tiristorli kuchlanish rostlagichning kuch sxemasi keltirilgan. TKR ning kuch sxemasi ikki o'zaro parallel qarama-qarshi ulangan VS1 va VS2 tiristorlardan iborat bo'lib, kuchlanish  $U_1$  ning har ikki yarim davrda yuklanishdan tok o'tishini ta'minlaydi. Impulslri faza boshqaruva tizimi (IFBT) ning kirish signali  $U_b$  ta'sirida uning chiqish qismida boshqaruva kuchlanishi  $U_a$  hosil qilinadi va bu signal bilan tiristorlarning ochilish burchagi  $\alpha$  ning qiymati rostlanadi.

Agar VS1 va VS2 tiristorlarga berilayotgan signal  $U_a = 0$  bo'lsa, ular yopiq holatda bo'ladi va TKR ning chiqish qismidagi kuchlanish ham  $U_{rest} = 0$  bo'ladi. Agar tiristorlarga berilayotgan signal  $U_a$  ning qiymati  $\alpha = 0$  ga mos bo'lsa, ya'ni  $U_a = U_{bMAX}$  bo'lganida TKR ning chiqish qismidagi kuchlanish eng katta qiymatga ega bo'ladi, ya'ni  $U_{rest} = U_1$  bo'ladi (3.26- b rasm). Agar  $U_a$  signal qiymati  $\alpha \neq 0$  ga mos bo'lsa, u holda yuklanishga  $U_1$  kuchlanishning ma'lum bir qismi ulangan bo'ladi (3.26- b rasm). Shunday qilib, boshqaruva burchagi  $\alpha$  ni 0 dan  $\pi$  gacha o'zgartirganimizda o'zgartkichning chiqish qismidagi kuchlanish  $U_1$  dan 0 gacha o'zgaradi.

Bir fazali TKR sxema asosida yaratilgan uch fazali TKR ning kuch sxemasida oltita tiristorlari bo'ladi va ular stator chulg'ami fazalari bilan uch fazali tarmoq orasiga ulanadi. Bunday TKR larda parallel qarama-qarshi ulangan tiristorlar o'rniغا xuddi shu funksiyalarni bajaruvchi simistorlarning qo'llanilishi kuch sxemasini soddalashtirishga olib keladi:

TKR dan chiqayotgan kuchlanishning formasi nosinusoidal ko'rinishga ega bo'ladi. Bu nosinusoidal kuchlanish turli chastotali va amplitudali garmonik tashkil etuvchilardan iborat bo'ladi.



3.26- rasm. Bir fazalari tiristorli kuchlanish rostlagichning  
kuch sxemasi (a) va kuchlanish tavsiflari (b).

Asinxron elektr yuritmalarni boshqarishda TKR larni qo'llash motorlarni revers qilish imkonini beradi; majburiy elektr tormozlash mumkin; elektr yuritma o'tkinchi jarayonlari ko'rsatkichlarini rostlash hamda energiya tejamkor ish rejimlarini joriy etish kabi funksional imkoniyatlarini oshiradi.

### Asinxron motorning chastotasini o'zgartirib tezligini rostlash

Bu usul bilan asinxron motor tezligini rostlash eng istiqbolli bo'lib, hozirgi paytda juda keng qo'llanilmoqda.  $\omega_0 = \frac{2\pi f_1}{P}$  ifodadagi asinxron motor kuchlanishi (toki) chastotasi  $f_1$  ni keng diapazonda o'zgartirish natijasida sun'iy tavsiflar hosil qilish mumkin va bu tavsiflar yuqori darajadagi bikrlikka ega bo'ladi. Yana bu tezlikni rostlashning asosiy

xususiyatlaridan biri, chastotaning turli qiymatlaridagi tavsiflarda sirpanishning oshishi ro'y bermaydi va bu quvvat isrofining uncha oshmasligini ta'minlaydi.

Asinxron motordan yanada unumliroq foydalanish uchun hamda energetik ko'sratkichlari: quvvat koeffitsiyenti va FIK hamda yuklanish xususiyati yuqori bo'lishi uchun chastota bilan bir paytda kuchlanishni ham o'zgartirish kerak. Kuchlanishni o'zgartirish qonuniyati yuklanish momenti  $M_s$  xarakteriga bog'liqdir.

Yuklanish momenti  $M_s = M_N = \text{const}$  bo'lganida chastotaning o'zgarishi bilan bir qatorda kuchlanishni ham rostlash ushbu ifoda orqali amalga oshiriladi:

$$\frac{U_1}{f_1} = \text{const.} \quad (3.16)$$

Yuklanish momenti  $M_s = \omega^2 s$  — ventilator xarakteriga ega bo'lganida esa bu chastota bilan kuchlanishning o'zaro bog'lanishi quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

$$\frac{U_1}{f_1^2} = \text{const.} \quad (3.17)$$


Yuklanish momenti  $M_s = \omega_s^{-1}$  — tezlikka teskari proporsional bo'lgan holda kuchlanishning chastotaga bog'liqligi quyidagi formula bilan ifodalanadi:

$$\frac{U_1}{\sqrt{f_1}} = \text{const.} \quad (3.18)$$

Shunday qilib, asinxron motoring tezligini rostlash uchun, albatta, boshqariluvchi chastota o'zgartkich bo'lishi shart bo'lib, bu o'zgartkich stator chulg'amiga berilayotgan kuchlanishning chastotasini keng diapazonda rostlash imkoniyatiga ega bo'lishi kerak.

### Asinxron motoring chastota o'zgartkichga ulanish sxemasi va tavsiflari

Elektr yuritmaning asosiy elementi kuchlanish va chastota o'zgartkichi 1 bo'lib, uning kirish qismi  $U_1=220, 380$  V va h. k. kuchlanishli va chastotasi  $f_1 = 50$  Hz bo'lган tarmoqqa ulangan bo'lib, uning chiqish qismidagi kuchlanishning qiymati ( $U_{1\text{rost}} = \text{var}$ ) va chastotasi ( $f_{1\text{rost}} = \text{var}$ ) keng diapazonda rostlanadi (3.27- a rasm).  $U_{1\text{rost}}$  va  $f_{1\text{rost}}$  larni rostlash boshqaruv signali  $U_b$  orqali amalga oshiriladi,




3.27- rasm. Asinxron motorli chastota bo'yicha tezligi rostlanadigan elektr yuritmaning umumiy tizim sxemasi (a) va mexanik tavsiflari (b).

natijada asinxron motor (2) ning tezligi rostlanadi. Asinxron motorning chastotasini rostlashning eng sodda  $\frac{U_1}{f_1} = \text{const}$  qonuniyatini amalga oshiruvchi elektr yuritmaning mexanik tavsiflari tahlili shuni ko'rsatadi, ideal salt yurish tezligi  $f_1$  ga proporsional ravishda o'zgargan holda motorning maksimal momenti  $M_k = \text{const}$  bo'lib o'zgarmay qoladi.

Mexanik tavsiflar (3.27- b rasm) o'z xususiyatlariga ko'ra  $f_1 < f_{1H}$  va  $f_1 > f_{1H}$  guruhlarga bo'linadi.

Chastota qiymati  $f_1 < f_{1H}$  bo'yicha rostlanganida va chastotaning  $f_{13} = f_{1H}$ ;  $f_{14} < f_{13}$  va  $f_{15} < f_{14}$  lariga mos asinxron motorning tavsiflari 3.26- b rasmdagi 3-, 4- va 5- tavsiflarga to'g'ri keladi. Amaliyotda esa chastotaning kichik qiymatlarida stator chulg'ami aktiv qarshiligidini hisobga olmaslik MK qiymatining kamayishiga olib keladi va shuning uchun stator chulg'amining aktiv qarshiligidida kuchlanish pasayishini hisobga olgan holda kuchlanishni biroz oshirish kerak bo'ladi.

Chastota qiymati  $f_1 > f_{1N}$  bo'yicha rostlanganida asinxron motorning normal ishlashini ta'minlash uchun kuchlanishni nominal qiymatdan oshirib bo'lmaydi, shuning uchun chastotaning rostlanishi kuchlanishning o'zgarmas qiymatida  $-U_1 = U_{1N} = \text{const}$  da amalga oshiriladi (1-, 2- tavsiflar).



3.28- rasm. Sinxron generatorli elektromexanik chastota o'zgartkichning elektr sxemasi.

Shuning uchun  $M_K$  ning qiymati chastota oshgan sari proporsional kamayib boradi.

**Chastota o'zgartkichning ishlash asoslari.** Chastota o'zgartkichlar (CHO') tarkibiy elementlari bo'yicha elektromexanik va statik turlarga bo'linadi.

Birinchi turdag'i CHO' larning asosini sinxron generatorlar tashkil etadi (3.28- rasm).

3.28- rasmdagi chizmada quyidagi belgilashlar qabul qilingan: 1 — asinxron motor; 2 — o'zgarmas tok generatori; 3 — mustaqil qo'zg'aluvchan o'zgarmas tok motori; 4 — sinxron generator; 5, 6, 7 — asinxron motorlar; QCH1, QCH2, QCH3 — o'zgarmas tok generatori, motori va sinxron generatorlarning qo'zg'atish chulg'ammlari.

Asinxron motor (1) o'zgarmas tok generatori (2) ning yakorini aylantiradi va qo'zg'atish chulg'ami hosil qilgan magnit maydon bilan o'zaro ta'siri natijasida yakor chulg'ami uchlarida EYUK hosil bo'ladi. EYUK ning qiymati QCH1 zanjiridagi qarshilik  $R_1$  ni rostlash natijasida noldan to nominal qiymatiga rostlanadi va motor (3) ning tezligi shu kuchlanishga monand o'zgaradi. QCH2 zanjiridagi  $R_2$  qarshilikning vazifasi motor tezligini qo'shimcha rostlashga xizmat qiladi. Sinxron generatordagi hosil bo'layotgan kuchlanishning chastotasi motor (3) ning tezligi bilan belgilansa, haqiqiy qiymati esa QCH3 zanjiridagi  $R_3$  qarshilik yordamida rostlanadi. Shunday qilib, elektromexanik CHO' da olinayotgan o'zgaruvchan tok kuchlanishining qiymati va chastotasi alohida bir-biriga bog'liq bo'lmasligi ko'rsatkichlar kabi rostlanadi.

## **Elektromexanik CHO' larning asosiy kamchiliklari:**

to'rtta to'liq quvvatli elektr mashinalarning bo'lishi shartligi;


FIK ning bor-yo'g'i 50—70 % ga tengligi va tannarxining balandligi.

Yarim o'tkazgichli texnikaning rivojlanishi va ular asosida ishonchli chastota o'zgartkichlarning yaratilishi statik CHO' larning hozirda keng qo'llanishiga omil bo'lmoqda. Bu o'zgartkichlar elektromexanik o'zgartkichlarga nisbatan kichik hajmga egaligi va FIK ning yuqoriligi hamda aylanuvchi qismlarining yo'qligi sababli ham shovqinsiz ishlaydi.

Statik chastota o'zgartkichlar o'z o'rniда **bevosita** va **bilvosita** chastota o'zgartichlarga bo'linadi.

**Bevosita CHO'** larda tarmoqdagi o'zgaruvchan tok kuchlanishi to'g'ridan-to'g'ri chastota va haqiqiy qiymati rostlanadigan o'zgaruvchan tok kuchlanishiga o'zgartiriladi.


Bevosita CHO' ning ishlash prinsipini quyidagi bir fazali bevosita CHO' sxemasi (3.29- rasm) asosida tushuntirish mumkin.



3.29- rasm. Bir fazali bevosita chastota o'zgartichning elektr sxemasi.

Bu sxema reversiv o'zgarmas tok o'zgartkichning nol sxemasi bo'lib, agar chap tomonda joylashgan tiristorlar guruhiga boshqaruv impulsleri yuborilsa, yuklanish  $Z_{yu}$  dagi kuchlanishning ishorasi nol nuqtaga nisbatan musbat bo'ladi va uning o'rtacha qiymati  $U_{yu} = U_{yu0}$  cos'a, bunda:  $\alpha$  — tiristorlarning ulanish burchagi;  $U_{yu0} - \alpha = 0$  holdagi yuklanishdagi kuchlanish. O'ng guruh tiristorlari ochilganida yuklanishdagi kuchlanish manfiy ishorali bo'ladi. Agar ma'lum takrorlanuvchan vaqt oralig'ida har ikkala tiristorlar guruhi ochilib va yopilib turilsa, u holda shu chastotali o'zgaruvchan tok kuchlanishi yuklanishga uzlusiz berilib turiladi.

Boshqaruv burchagi  $\alpha$  ni rostlab yuklanishdagi kuchlanishning o'rtacha qiymati rostlanadi. Tarmoqdan yuklanishga berilayotgan standart  $f_1 = 50$  Gs chastotali o'zgaruvchan tok kuchlanishi  $U_N = 220, 380$  V bevosita CHO' da o'rtacha qiymati va chastotasi rostlanadi (faqat chastota qiymati  $f_1 \leq 50$  Gs oralig'idagina o'zgaradi).



3.30- rasm. Bilvosita chastota o'zgartkichli asinxron elektr yuritmaning blok sxemasi.

Amaliyotda bevosita CHO' larning uch fazali nol va ko'prik sxemalari keng qo'llaniladi.

**Bilvosita CHO' ning asosiy tashkil etuvchi bloklari:** boshqariluvchi to'g'rilaqich (2) va uning boshqaruv bloki (1); boshqariluvchi invertor (3) va uning boshqaruv bloki (5) (3.30- rasm).

Tarmoqdan f<sub>1</sub> chastotali o'zgaruvchan tok kuchlanishi U<sub>1</sub> boshqariluvchi to'g'rilaqich (2) da to'g'rilaqib, boshqariluvchi invertor (3) ga uzatiladi va uning chiqish qismidan haqiqiy qiymati va chastotasi rostlanadigan o'zgaruvchan tok kuchlanishi olinadi.

### Boshqariluvchi invertorlarning turlari

Invertorlar tiristorlardagi tok kommutatsiyasi bo'yicha **tarmoqqa bog'liq** va **avtonom invertor** turlariga bo'linadi. **Tarmoqqa bog'liq invertorlarda** bir tiristordan ikkinchi tiristorga tokli ulanish jarayoni o'zgaruvchan tok manbaining kuchlanishi tomonidan ta'minlanadi.

**Avtonom invertor** tiristorlаридаги tokli ulanish jarayoni qo'shimcha elementlar: tiristorlar, diodlar, sig'imlar va induktivliklar yordamida amalga oshiriladi.


Avtonom invertorlar, o'z navbatida, **kuchlanish** yoki **tok invertorlarga** bo'linadi. **Kuchlanish avtonom invertorlari (KAI)** kuchlanish manbaiga, masalan, boshqariluvchi to'g'rilaqichga katta sig'imli kondensator orqali ulanadi. KAI ning tashqi tavsifining bikriliq yuqori bo'lib, yuklanish tokining chiqish kuchlanishi o'zgarishiga deyarli ta'siri bo'lmaydi.

**Tok avtonom invertorlari (TAI)** tok manbaiga, masalan, boshqariluvchi to'g'rilaqichga katta induktivlik reaktor orqali ulanadi.

Avtonom invertorlarning har ikki turi ham chastotasi boshqariladigan asinxron elektr yuritmalarda o'z qo'llanish doiralariga ega. KAI ning chiqishidagi kuchlanishiga asinxron motor ish rejimining deyarli ta'siri bo'lmasligi sababli bu invertorlar ochiq tizimli asinxron elektr yuritmalarda va bir nechta asinxron motorlar bir CHO' dan ta'minlanadigan sxemalarda qo'llaniladi.

KAI li CHO' larning asosiy kamchiliklari: kirish qismida katta sig'imli kondensatorning bo'lishi shartligi, ko'p sonli tiristorlar va kommutatsiya elementlarining bo'lishi, rekuperativ rejimda ishlashi uchun alohida bog'liq avtonom invertorning bo'lishi shartligidir.

TAI li CHO' asinxron motor uchun chastotasi rostlanadigan o'zgarmas tok manbai bo'lib xizmat qilgani uchun uning elektr sxemalari nisbatan sodda, tez harakatlanuvchi asinxron elektr yuritmalarda, shuningdek, individual reversiv elektr yuritmalarda hamda katta tezlikda takrorlanuvchan — qisqa muddatli rejimda ishlovchi elektr yuritmalarda qo'llash maqsadga muvofiqdir.



3.31- rasm. Kuchlanish avtonom invertorli bilvosita chastota o'zgartirichning elektr sxemasi.

TAI li CHO' larning afzalliklari: aktiv energiyani rekuperatsiya qilish uchun alohida sxemalar zarur emas; tiristorlar va diodlar sonining nisbatan kam bo'lishi. Kamchiliklaridan asosiysi — katta induktivlikka ega reaktorning bo'lishi shartligidir.

CHO' ning kuchlanishini rostlash bir necha usul bilan amalga oshiriladi. Bevosita CHO' lardagi kuchlanish xuddi boshqariluvchi to'g'rilaqichlardagidek rostlanadi.

Bilvosita CHO' larda kuchlanish alohida kuchlanish boshqariluvchi to'g'rilaqich yoki rostlagich yordamida o'zgarmas tokli qismida rostlanadi.

3.31- rasmda bilvosita CHO' kuch sxemasi keltirilgan bo'lib, bunda: 1— boshqariluvchi to'g'rilaqich; 2— kuchlanish avtonom invertori; 3— asinxron motor. Bu sxemada boshqariluvchi to'g'rilaqich (1) ning chiqish qismiga  $L_0$  reaktor va  $S_0$  sig'im ulangan bo'lib, ular VD7—VD12 diodlar bilan birga reaktiv quvvat aylanishini ta'minlaydi. VS1—VS6 tiristorlar kuchlanish avtonom invertori kuch sxemasini tashkil etadi. VS1—VS6 tiristorlarning o'z vaqtida o'chirilishini ta'minlash uchun VD1—VD6 diodlar bilan birga sun'iy kommutatsiya zanjirini tashkil etuvchi C kondensator va  $L$  reaktorlar qo'llanilgan. KAI chiqishidagi kuchlanish —  $E_0$  ning rostlanishi boshqariluvchi to'g'rilaqich (1) dagi VS7—VS12 tiristorlarning boshqaruvi burchaklarini rostlash hisobiga amalga oshiriladi.

KAI chiqishidagi kuchlanishning chastotasi  $f_{\text{rost}}$  VS1 — VS6 tiristorlarning kommutatsiya chastotasiga bog'liq ravishda rostlanadi.

Amaliyotda bilvosita CHO' larning 3.31- rasmdagi sxemadan boshqa ko'plab xilma-xil sxemalari ham qo'llaniladi.

Chastotani boshqarib asinxron motor tezligini rostlash usuli iqtisodiy nuqtai nazardagi eng ma'qul usul bo'lib, chastota (tezlik) keng diapazonda rostlanganida sirpanishning o'zgarishi kam bo'lishi sababli motorning FIK kam o'zgaradi. Tezlikni nominaldan pastga ham, yuqoriga ham silliq o'zgartirish mumkin. Sun'iy mexanik tavsiflarning bikrligi yuqori bo'ladi va motorning moment bo'yicha yuklanish xususiyati ham yuqoriligidcha qolaveradi.

Ochiq tizimli tezligi chastotani rostlab boshqariladigan asinxron elektr yuritmalarda tezlikni rostlash diapazoni  $D = (5+10):1$  bo'lsa, yopiq tizimli elektr yuritmalarda  $D = (1000+1500):1$  va undan ham yuqori bo'lishi mumkin.

Hozirgi paytda asinxron motorlarni stator chulg'amidagi kuchlanish (yoki tok) chastotasini rostlab boshqarishning afzalliklaridan kelib chiqqan holda bu boshqaruv usuli o'zgaruvchan tok motorlarini boshqarishda keng qo'llanilmoqda.

### **Asinxron motor qutblar juftligi sonini o'zgartirib tezligini rostlash**

Bu usul bilan tezlikni rostlash uchun asinxron motor stator chulg'ami ikkita bir xil seksiya (yarim chulg'am)dan iborat bo'lishi kerak. Bunday asinxron motorlar **ko'p tezlikli motorlar** deb yuritiladi. Stator chulg'am seksiyalarini ulashda turli ularish sxemalarini amalga oshirish natijasida asinxron motor qutblar soni p o'zgartiriladi. Ko'p tezlikli asinxron motorlarning rotorlari, odatda, qisqa tutashtirilgan bo'ladi.


Asinxron motor qutblari soni  $p = 1, 2, 3, 4, \dots$  bo'lgan diskret sonlardan iborat bo'lganligi sababli motor tezligi pog'onali rostlanadi.

Qutblar juftligining qanday qilib turli sonlarga teng bo'lishi mumkinligini ko'rib chiqamiz.

Stator chulg'ami fazasi ikkita bir xil ikki seksiya  $1_b - 1_a$  va  $2_b - 2_a$  lardan iborat bo'lib (3.32- a rasm), har bir seksiyaning ikkala o'tkazgichlari ketma-ket va mos ulangan bo'lsin. Stator chulg'amidan o'tayotgan tok yo'nalishi strelka bilan ko'rsatilgan. Parma qoidasidan kelib chiqqan holda magnit maydonning qutblar juftli  $2p = 4$  ekanligini aniqlaymiz.

Endi chulg'amdag'i tok yo'nalishini o'zgartirmagan holda seksiyalarini ketma-ket va qarama-qarshi ulaganimizda (3.31- b rasm) qutblar juftli  $2p = 2$  ga teng bo'ladi. Xuddi shuningdek, seksiyalarini o'zarो parallel ulaganimizda ham (3.32- d rasm) qutblar juftli  $2p = 2$  ga teng bo'ladi.


Amaliyotda ko'p tezlikli asinxron motor stator chulg'ami seksiyalarini ulashning asosan ikki sxemasi qo'llaniladi: «uchburchak»dan «ikkilangan yulduz»ga va «yulduz»dan «ikkilangan yulduz»ga o'tish sxemalari.




3.32- rasm. Asinxron motorning quthlar sonini o'zgartirib, tezligini pog'onali rostlashni amalga oshiruvchi stator chulg'ami seksiyalarining ulanishi sxemalari.

«Uchburchak» — «ikkilangan yulduz». Qutblar juftligi sonini katta qilish uchun har bir fazadagi seksiyalar ketma-ket va mos ulanib, uchburchak hosil qilinadi (3.33- a rasm).  $A_{1b}$  va  $A_{2b}$  — A fazaning birinchi va ikkinchi seksiyalarining boshlanishi;  $A_{10}$  va  $A_{20}$  — shu seksiyalarning oxirlari, boshqa B va C fazalar uchun ham bu ularning monand bo'ladi. 3.33- b sxemada stator chulg'ami fazalari ikki parallel ulangan seksiyalar bo'lgani uchun «ikkilangan yulduz sxemasi» deb nomlanadi.

3.33- d rasmda stator chulg'amlari seksiyalarining «uchburchak» (2) va «ikkilangan yulduz» (1) usulda ulangan hollariga mos keluvchi asinxron motorning mexanik tavsiflari keltirilgan.



3.33- rasm. Stator chulg'ami «uchburchak» (a), «ikkilangan yulduz» (b) usullaridagi ularning sxemalari va shu sxemalarga mos motorning mexanik tavsiflari (d).



3.34- rasm. Stator chulg'ami seksiyalarini «yulduz» usulida nash sxemasi (a) va stator chulg'ami seksiyalarini «yulduz» hamda «ikkilangan yulduz» usullarda ulangan sxemalni asinxron motorning mexanik tavsiflari (b).

**«Yulduz» — «ikkilangan yulduz».** Bu variantda qutblar juftligining katta soni «yulduz» sxemada hosil qilinadi (3.34- a rasm), har bir fazadagi seksiyalar ketma-ket ulanadi (belgilashlar 3.34- rasmdagi kabitidir). «Ikkilangan yulduz» sxemasida stator chulg'ami seksiyalari 3.34- b rasmdagi kabi ulanadi va bunda qutblar soni ikki marta kam bo'ladi. 3.34- b rasmda «yulduz» (2) va «ikkilangan yulduz» (2) sxemalari bo'yicha stator chulg'amlari seksiyalar ulangan hollarga mos keluvchi asinxron motorning mexanik tavsiflari keltirilgan.

Ko'rib chiqilgan ikki tezlikli asinxron motorlardan tashqari uch va to'rt tezlikli asinxron motorlar ham qo'llaniladi. Uch tezlikli asinxron motorlarning har bir fazasida ikkita qayta ulanuvchi chulg'amlaridan tashqari bu ulanishlarda qatnashmaydigan bitta chulg'ami bo'ladi. To'rt tezlikli asinxron motorlarda qutblar juftligi sonlari turlichcha bo'lgan ikkita qayta ulanuvchi chulg'amlar yordamida to'rt xil rostlanuvchi mexanik tavsiflar hosil qilish mumkin.

Bu usulning afzalliklari: tezlikni rostlash jarayonida rotorda qo'shimcha quvvat isrofi yuzaga kelmaydi va shuning uchun ham FIK yomonlashmaydi; mexanik tavsiflarining bikrliги yuqori bo'ladi; motorning hosil qiladigan maksimal momenti qiymati yetarli darajada bo'ladi.

Kamchiliklari: tezlik rostlash diapazoni katta emas  $D = (6 + 8) : 1$ ; tezlik pog'onali o'zgaradi; alohida rusumdagи motorlarning bo'lishi shartlidir.

Asinxron motorlarning koordinatalarini **elektromexanik va ventilli kaskad sxemalari** bo'yicha ham rostlash sxemalari qo'llaniladi.


## Asinxron motorlarni tormozlash

Asinxron motorlarning stator chulg'amini o'zgaruvchan tok tarmog'iga ulangan holda va o'zgaruvchan tok manbaiga ulab (**dinamik tormozlash**) hamda o'zqo'zg'алиш orqali ham tormozlash mumkin.

Asinxron motoring asosiy ularish sxemasi (3.21-  $\alpha$  rasmga qarang) bo'yicha **teskari ulab va rekuperativ tormozlash** amalga oshirilishi mumkin.

**Teskari ulab tormozlash rejimi** ikki xil usulda amalga oshiriladi. **Birinchi usul** — motor stator chulg'ami fazalaridan ikkitasining tarmoqqa ularish tartibini o'zgartirib amalga oshiriladi. Asinxron motor mexanik tavsifning  $\alpha$  nuqtasida ishlayotganida (3.35-  $\alpha$  rasm) stator chulg'ami fazalarining tarmoq kuchlanishi fazalariga ularish tartibi  $A_T - A_A$ ,  $B_T - B_A$ ,  $S_T - C_A$  ga to'g'ri keladi. Asinxron motor stator chulg'ami fazalari  $B_A$  va  $C_A$  larni tarmoq fazalarining  $C_T$  va  $B_T$  lariiga mos ravishda almashtirib, ketma-ketlikda ulaganimizda asinxron motor 3- tavsifning  $\mathbf{d}$  nuqtasiga o'tadi va tavsifning  $\mathbf{d}\mathbf{b}$  qismi teskari ularish tormoz rejimiga to'g'ri keladi. Bu usul bilan motor tormozlanganida asinxron motoring toki va momentini cheklash maqsadida stator yoki rotor chulg'amiga qo'shimcha qarshilik ularadi.

**Ikkinci usul** — asinxron motorni teskari ulab tormozlash uchun yuklanish momenti  $M_S$  aktiv xarakterga ega bo'lishi kerak. Aytaylik, asinxron motor yordamida tormozlab yukni tushirish kerak. Buning uchun rotor zanjiriga katta qiymatdagi qo'shimcha qarshilik ularib, motor yukni ko'tarish uchun ishga tushiriladi (3.35-  $\alpha$  rasm, 2- tavsif).  $M_S > M_{T\alpha}$  bo'lgani uchun yuk pastga  $\omega_{tar}$  tezlik bilan tusha boshlaydi va teskari ulab tormozlash rejimi yuzaga keladi.



3.35- rasm. Asinxron motorni teskari ulab (a), energiyani tarmoqqa uzatib tormozlash rejimlarining mexanik tavsiflari (b).

**Rekuperativ tormozlash.** Bu rejim motor tezligi sinxron tezlik  $\omega_0$  dan katta bo'lganida yuzaga keladi. Bunday rejim, masalan, ikki tezlikli asinxron motorda yuqori tezlikdan kichik tezlikka o'tishda sodir bo'ladi (3.35- b rasm). Aytaylik, motor 1- tavsifning  $\alpha$  nuqtasida ishlayotgan bo'lsin va turg'un tezligi  $\omega_{turg}$  qiymatga ega bo'lsin. Qutblar juftligining o'zgarishi natijasida motor 2- tavsifning  $\beta$  nuqtasiga o'tadi va tavsifning  $\beta$  qismi rekuperativ tormozlash rejimiga to'g'ri keladi.

Rekuperativ tormozlash yuk ko'taruvchi mexanizm elektr yuritmalarida yukni tushirishda ham amalga oshishi mumkin. Bunda motor yukni tushirish yo'naliishiga monand ulanadi (3.36- a rasm, 3- tavsif). Motorning harakati tezlikning —  $\omega_{turg}$  nuqtasida to'xtaydi. Shunda yuk tushish jarayonida tarmoqqa energiya uzatiladi.


«Chastota o'zgartkich — asinxron motor» tizimida ham rekuperativ tormozlash rejimini amalga oshirish mumkin. Buning uchun CHO' chiqishidagi kuchlanish chastotasi kamaytiriladi. Mexanik inersiya kuchi ta'sirida magnit maydoni tezligiga nisbatan motor tezligi sekin o'zgaradi va bu tezliklar orasidagi tafovut doimo saqlanib turadi. Shuning hisobiga energiyaning tarmoqqa uzatilishi, ya'ni rekuperativ tormoz rejimi yuzaga keladi. Asinxron motorlar uchun rekuperativ tormozlash rejimi iqtisodiy jihatdan eng ma'qul rejimdir.

**Dinamik tormozlash.** Asinxron motorni dinamik tormozlash rejimiga o'tkazish uchun uning stator chulg'amini o'zgaruvchan tok tarmog'idan uzib o'zgarmas tok manbaiga ularash kerak (3.36- a rasm).

Asinxron motor ( $I$ ) ning rotori qisqa tutashirilishi yoki ma'lum qo'shimcha qarshilik  $R_{2Q}$  ulanishi mumkin. Stator chulg'amidagi o'zgarmas tok  $I_0$  fazoda harakatlanmaydigan magnit maydon hosil qiladi. Rotorning stator chulg'ami qo'zg'almas magnit maydon ichida aylanishi natijasida chulg'amilarida EYUK hosil bo'ladi, bu EYUK ta'sirida rotor chulg'amida tok oqadi va, o'z navbatida, fazoda qo'zg'almas bo'lgan magnit maydonini yuzaga keltiradi. Rotor tokining motorning umumiyligi magnit maydoni bilan o'zaro ta'sirida tormozlash momenti hosil bo'ladi, natijada tormozlanish effektiga erishiladi. Ishchi mexanizm, elektr yuritma aylanuvchi qismalarining mexanik energiyasi elektr energiyasiga o'zgartirilib, issiqlik tarzida rotor zanjirida ajralib chiqadi.

3.36- b rasmida asinxron motorning dinamik tormozlash rejimidagi elektromexanik tavsifi  $I_2^1$  (s) (koordinatalar tizimining birinchi choragida) va mexanik tavsifi  $M(\omega)$  (koordinatalar tizimining ikkinchi choragida) keltirilgan.

$I_0 = \text{const}$  bo'lganida rotor zanjiridagi qo'shimcha qarshiliklar  $R_{2Q2} > R_{2Q1}$  bo'lganida motorning dinamik tormozlash tavsiflariga mos ravishda 4- va 6- tavsiflar to'g'ri keladi. Bunda motorning maksimal momentining qiymati o'zgarmaydi, balki kritik sirpanish qiymati



3.36- rasm. Asinxron motoring dinamik tormozlash sxemasi  
(a) va tavsiflari (b).


qo'shimcha qarshilik qiymatiga mos ravishda o'zgaradi.  $I_{o1} > I_{o2}$  bo'lib,  $R_{2Q1} = \text{const}$  bo'lgan holda kritik sirpanish qiymati o'zgarmaydi, balki maksimal moment qiymati tokka proporsional ravishda o'zgaradi (3.36- b rasm, 5- tavsif). Shunday qilib,  $I_0$  va  $R_{2Q}$  larni o'zgartirib zarur bo'lgan motoring dinamik tormozlash ish rejimlarini hosil qilish mumkin.

**Asinxron motorni o'z-o'zini qo'zg'atilgan holda tormozlash.** Asinxron motoring bu turdag'i tormozlanishi, motor elektr tarmog'idan uzilganida elektromagnit maydonining o'sha zahoti so'nmasligiga asoslangan. Bu usulda asinxron motorlarni tormozlash hali so'nmgan maydon energiyasi hisobiga va asinxron motoriga qo'shimcha kondensatorlar ulab ham amalga oshiriladi. Shuningdek, sanoatda ishlab chiqarilayotgan tiristorli ishga tushiruvchi va rostlovchi qurilmalar yordamida asinxron motorlarda magnitli va boshqa turdag'i tormozlash rejimlarini joriy qilish mumkin.


### 3.9. Sinxron motorli elektr yuritmalarining ish rejimlari va tavsiflari

#### Sinxron motoring ulanish sxemasi, statik tavsiflari va ish rejimlari

Sinxron motoring statori aynan asinxron motoring uch fazali stator chulg'amiga o'xshab bajarilib, o'zgaruvchan tok tarmog'iga ulanadi. Sinxron motoring rotorida qo'zg'atish va «olmaxon qafasi» ko'rinishidagi qisqa tutashtilgan ishga tushirish chulg'amlari joylashtirilgan. Konstruktiv jihatdan rotor **aniq qutbli** va **noaniq qutbli** ko'rinishda bajarilishi mumkin.



a)



b)

3.37- rasm. Sinxron motorning tarmoqqa ulanish sxemasi  
(a) va mexanik tavsiflari (b).

Qo'zg'atish chulg'amining manbai sifatida ko'pgina hollarda sinxron motor (1) valiga o'rnatilgan o'zgarmas tok generatori (2) ishlataladi (uning quvvati sinxron motor quvvatining 0,3 +3% ni tashkil etadi) va qo'zg'atuvchi deb ataladi (3.37- a rasm).

Motorning qo'zg'atish toki  $I_Q$  ni rostlash qo'zg'atuvchi generator (2) ning qo'zg'atish chulg'ami (4) ga ketma-ket ulangan qarshilik (3) ni o'zgartirish asosida amalga oshiriladi. Zamonaviy sinxron motor qo'zg'atish tizimlarida tiristorli boshqariluvchi to'g'rilaqich (tiristorli qo'zg'atuvchi)lar keng qo'llaniladi.

Sinxron motorning aylantiruvchi momenti stator chulg'ami hosil qilgan aylanuvchi magnit maydoni va rotordagi qo'zg'atish chulg'ami yoki o'zgarmas magnit hosil qilgan magnit maydonlarning o'zaro ta'siri asosida yuzaga keladi. Rotor magnit maydoni tezligi  $\omega_0 = \frac{2\pi f_1}{P}$  ga teng tezlik bilan aylangandagina bu magnit maydonlarning o'zaro ta'siri natijasida yo'nalishi bo'yicha doimiy bo'lgan aylantiruvchi moment hosil bo'ladi. Shunday qilib, sinxron motorning mexanik tavsifi  $\omega(M)$  (3.37- b rasm) ordinata o'qidagi  $\omega_0$  ga teng bo'lgan nuqtadan o'tgan gorizontal chiziqdan iborat bo'ladi.

Momentning maksimal  $M_{max}$  qiymatidan so'ng sinxron motor sinxronizmdan chiqib ketadi, ya'ni rotoring magnit maydoni tezligi bilan sinxron aylanishi buziladi.

Bu  $M_{max}$  ni aniqlash uchun sinxron motorning burchak tavsifini chizamiz (3.38- rasm). Bu tavsif moment M ning tarmoq faza kuchlanishi

Ur bilan stator EYUK i vektorlari orasidagi burchak  $\theta$  ga bog'liqligini anglatadi.

Sinxron motorning momenti burchak  $\theta$  ning sinusoidal funksiyasidir:

$$M = \frac{3U_f E \sin \theta}{(\omega_0 x_1)} = M_{\max} \sin \theta, \quad (3.19)$$

bunda:  $U_f$  — tarmoqning faza kuchlanishi qiymati;  $E$  — sinxron motor statorining EYUK;  $x_1$  — sinxron motor stator chulg'ami fazasining induktiv qarshiligi;  $\omega_0$  — magnit maydonining aylanish tezligi.

$\theta = \frac{\pi}{2}$  qiymatida sinxron motorning momenti eng katta qiymatga erishadi va bu motorning maksimal yuklanish imkoniyatini belgilaydi.

$\theta > \frac{\pi}{2}$  bo'lganida sinxron motor sinxronizmdan chiqib ketadi,

$\theta < \frac{\pi}{2}$  bo'lganida esa motor turg'un ish rejimida ishlaydi.

Odatda  $\theta_n = (25 - 30^\circ)$  bo'lib, motorning nominal momenti  $M_n$  da ishlashini ta'minlaydi va maksimal momentning nominal qiymatiga nisbatan qiymati:


$$\lambda_M = \frac{M_{\max}}{M_n} = 2 \div 2,5.$$

Sinxron motor deyarli barcha energetik ish rejimlarida ishlaydi.

### Sinxron motorni ishga tushirish

Rotori qo'zg'almay turgan sinxron motorning stator chulg'ami o'zgaruvchan tok tarmog'iga va qo'zg'atish chulg'ami o'zgarmas tok manbaiga ulanganida hosil bo'lgan ularning magnit maydonlari o'zaro yo'nalishlarining doimiy o'zgarib turishi natijasida aylantiruvchi moment ham yo'nalishini tinmay o'zgartirib turadi. Shu sababli ham sinxron motor tezligini sinxron tezlik  $\omega_0$  gacha yetkaza olmaydi va shuning uchun uni ishga tushirishda, albatta, qo'shimcha choralar ko'rish kerak bo'ladi.

Hozirda kam qo'llaniladigan variantlardan biri sinxron motor valiga o'rnatilgan kichik quvvatli yordamchi motordan foydalanish. Kam yuklangan sinxron motor rotorini shu motor yordamida sinxron tezlikkacha aylantiriladi va shundan so'ng sinxron motor tarmoq bilan sinxronizatsiya qilinadi. Sinxron motor validagi o'zgarmas tok generatori —



3.38- rasm. Sinxron motorning burchak taysisi.

qo'zg'atuvchi ishga tushirish vaqtida yordamchi motor vazifasini bajarishi mumkin.

Amaliyotda ko'p qo'llaniladigan usul sinxron motorni asinxron motordek ishga tushirish. Buning uchun sinxron motorning rotoriga qo'shimcha asinxron motor rotoridagi kabi qisqa tutashtirilgan chulg'am joylashtirilgan bo'lishi kerak. Sinxron motorni ishga tushirishda xuddi asinxron motorni ishga tushirgandek, stator chulg'ami o'zgaruvchan tok tarmog'iga ulanadi, tezlik sinxron tezlikka yetishiga bir necha foiz farqli bo'lganida qo'zg'atish chulg'ami o'zgarmas tok manbaiga ulanib, motor tarmoq bilan sinxronizatsiyaga tortiladi.

Quvvati bir necha yuz kilovatt bo'lgan sinxron motorlarni tokni chekllovchi qurilmalarsiz ishga tushirish mumkin emas. Ishga tushirish toki, odatda, nominalga nisbatan 4—5 marta katta bo'ladi. Katta quvvatlari sinxron motorlarni ishga tushirish vaqtida stator chulg'amida ishga tushirish toki qiymatining oshib ketishini cheklash maqsadida reaktorlar va avtotransformatorlardan foydalaniлади.

Bundan tashqari sinxron motor chastota o'zgartkichdan ta'minlanayotgan bo'lsa, u holda chastotani rostlab uni ishga tushirish mumkin. Bunday ishga tushirish, maxsus vazifalovchi qurilma yordamida chastota o'zgarishining shunday tempi hosil qilinadiki, bunday tezlanishda rotoring aylanish tezligi magnit maydoni aylanishi tezligiga deyarli yetib oladi va sinxron motor tezlikning eng kichik qiymatlarida ham o'zgartkich bilan sinxron ishlaydi.

### Sinxron motorlar tezligini rostlash va tormozlash

Sinxron motorlar to shu kunga qadar tezligi rostlanmaydigan katta quvvatli sanoat qurilmalarining elektr yuritmalarida qo'llanilar edi. Tiristorli chastota o'zgartkichlarning joriy etilishi natijasida sinxron motorlarning tezliklarini rostlash imkoniyatlari paydo bo'ldi. Bunday sinxron elektr yuritmalar xuddi chastota bo'yicha boshqariladigan asinxron elektr yuritmalar kabi xususiyatlarga ega bo'ladi.

Sinxron motorlarda eng ko'p qo'llaniladigan tormozlash rejimi — **dinamik tormozlashdir**. Bu tormoz rejimida sinxron motorning stator chulg'ami tarmoqdan uzilib, qo'shimcha qarshilikka ulanadi (yoki faza chulg'amlari uchlari o'zaro qisqa tutashtiriladi), qo'zg'atish chulg'ami qo'shimcha qarshilik orqali o'zgarmas tok manbaiga ulanadi.

Sinxron motorlarda teskari ulab tormozlash rejimi deyarli qo'llanilmaydi, chunki bu rejimda tok va momentning keskin o'zgarishi yuzaga keladi va tok qiymatini cheklash uchun, albatta, murakkab sxemalarni qo'llash lozim bo'ladi.

## Nazorat uchun savollar

1. O'zgarmas tok motorlarining qanday turlarini bilasiz?
2. Mustaqil qo'zg'aluvchan o'zgarmas tok motori (MQ O'TM) tarmoqqa ulanish sxemalaridan qanday sxemalarni bilasiz?
3. MQ O'TM elektr yuritma tezligini qanday usullar bilan rostlash mumkin?
4. MQ O'TM ning qanday tormoz rejimlari mavjud?
5. Boshqariluvchi to'g'rilagichning ishlash asosi qanday?
6. G—M tiziminинг afzalliklari va kamchiliklari nimalardan iborat?
7. Ketma-ket qo'zg'aluvchan o'zgarmas tok motori (KKQ O'TM) tarmoqqa qanday sxema bo'yicha ulanadi?
8. KKQ O'TM ning universal tavsiflari qanday?
9. KKQ O'TM li elektr yuritmalarining tezligini qanday usullar bilan rostlash mumkin?
10. KKQ O'TM ning qanday tormoz rejimlari mavjud?
11. Qanday turdagи asinxron motorlarni bilasiz?
12. Asinxron motor qanday energetik rejimlarda ishlashi mumkin?
13. Asinxron motorning sun'iy tavsiflari qanday usullar bilan olinadi?
14. Qarshiliklар yordamida asinxron motor koordinatalarini rostlashning afzalliklari va kamchiliklari nimalardan iborat?
15. Stator chulg'amidagi kuchlanishni rostlab asinxron motorni boshqarishning afzalliklari nimalardan iborat?
16. Asinxron motor stator kuchlanishi chastotasi va qiymatini birgalikda boshqarish nima uchun kerak?
17. Chastota o'zgartkichlarining qanday turlarini bilasiz?
18. Bilvosita chastota o'zgartkich qanday ishlaydi?
19. Bevosita chastota o'zgartkich qanday ishlaydi?
20. Avtonom invertorlarning vazifasi nima?
21. Qanday qurilma hisobiga chastota bo'yicha tezligi boshqariladigan asinxron elektr yuritmalarida kuchlanish rostlandi?
22. Ko'p tezlikli asinxron motorlarda qutblar juftligi soni qanday o'zgartiriladi?
23. Asinxron motorlarda qanday tormoz ish-rejimlari mavjud?
24. Asinxron motorni dinamik tormozlash qanday amalga oshiriladi?
25. Sinxron motorlar qanday afzalliklarga ega?
26. Sinxron motorning burchak tavsisi nima?
27. Sinxron motorlar qanday usullar bilan ishga tushiriladi?
28. Sinxron motor qanday tormozlanish rejimlarida ishlaydi?

### BURG'ULASH QURILMALARINING ELEKTR JIHOZLARI

#### 4.1. Burg'ulash qurilmalari haqida umumiy tushunchalar

Neft va gazni yer ostidan chiqarib olish va uni ishlab chiqarish sanoatida asosiy elektr energiya iste'molchilari bu neft va gaz quduqlarini razvedka qiluvchi va ekspluatatsiya qiluvchi mexanizmlar (burg'ulash qurilmalari); neft va gazni yer ostidan chiqarib oluvchi mexanizmlar (nasos va kompressor qurilmalari, elektr vositasida tuzsizlantirish qurilmalari va h.k.); neft va gazni transportirovka qiluvchi qurilmalardir.

Quduqlarni qurish jarayoni aylanish usulida qaytariluvchi quyidagi amallardan iborat bo'ladi: burg'ulash quvurlari uchida iskana bilan quduqqa tushiriladi, burg'ulash vaqtida qatlamni buzish, quduqning chuqurlashib borishi natijasida yedirilgan iskanani almashtirish uchun quvurlar sonini oshirib borish. Bu amallarni bajarish hamda quduq devorlarini mustahkamlash uchun murakkab ishlab chiqarish majmualaridan iborat burg'ulash qurilmalari qo'llaniladi. Bu majmua tarkibiga individual yuritmaga ega iskanani ko'tarish, tushirish va harakatlantirish amallarini bajaruvchi ko'tarish tizimi, burg'ulash nasoslari, rotor, burg'ulash eritmasini tayyorlovchi va tozalovchi mexanizmlar, yuklarni ko'taruvchi va tushiruvchi mexanizmlar, burg'ulash qurilmasini siqilgan havo bilan ta'minlovchi qurilmalar va h.k. lar kiradi. Burg'ulash qurilmasining asosiy (rotor, burg'ulash lebedkasi va burg'ulash nasosi) va yordamchi mexanizmlari yuritma vositasida harakatga keltiriladi. Yuritma turi burg'ulash sharoitidan kelib chiqqan holda mexanizmlarining konstruksiyasi va boshqa faktorlarni hisobga olgan holda tanlanadi.

Burg'ulash qurilmasi asosiy ishlab chiqarish mexanizmlarining yuritmalari avtonom, ya'ni energiya tizimidan emas, balki mustaqil energetik qurilmalar (dizel, dizel-elektr generatori, gazoturboelektr generatori)dan hamda mavjud energiya tizimidan ta'minlanishi mumkin. Burg'ulash qurilmasining asosiy mexanizmlari avtonom manbadan ta'minlanadigan bo'lsa, yordamchi mexanizmlari individual elektr yuritmalar bilan jihozlanadi.

Burg'ulash qurilmalarning elektr yuritmalari xilma-xil va murakkab bo'lishi bilan neft va gaz sanoatining boshqa turdag'i elektr yuritmalaridan farqlanadi.

Burg'ulash qurilmalari asosiy mexanizmlarining umumiy tavsisi va ularning elektr yuritmalariga qo'yiladigan asosiy talablar 4.1-jadvalda keltirilgan.


4. 1- jadval

Mexanizmlar ning bajaradigan vazifasi	Mexanizm- ning turi	Elektr yuritma turi	Ish rejimi	O'rnatilgan quvvatlar oralig'i, kVt
Quduq qazuvchi mexanizmlar.	Burg'ulash lebedkasi. Burg'ulash nasosi. Rotor stoli. Yordamchi mexanizmlar. Elektr burg'u.	AK, ƏM li CM, G—M, B—M, CM, CM EM bilan ABMK, ABK, G—M, BT—M G—M, BT—M A	S4 S1 S1 S1, S2, S3 S1	250—2500 320—1200 75—400 1—75 75—230
Quduqlarni ishlatishda qo'l- faniladigan mexa- nizmlarning nasoslari.	Chuqurlik nasoslarining shtanga qurilmalari. Suvga botiril- gan shtangasiz nasoslari. Quduqlarning parafinsizlash- tirish quril- malari.	AK, CHO' li CM PED —	S6 S1 S1	1,7—55 10—95 1,7—10
Kompressor va fontanlarni ishlatish mexanizmlari.	Kompressor stansiyalari. Birlamchi qayta ishlash nasos stansi- yalari. Suvni qatlam ostiga yubo- ruvchi quril- malari.	A, CM A A, CM	S1 S6 S1	100—280 20—140 205—1000

Neftni birlamchi qayta ishlash qurilmalari.	Neft tarki- bini quritish qurilmalari. Neft tarki- bini tuzsiz- lantiruvchi qurilmalar.	- -	S1 S1	2 + 6x50 kNA 2 + 6x50 kNA
Naft va gazlarni transportirovka qilish qurilmalari.	Kompressor qurilmalari. Nasos stansiyalar (asosiy nasoslar). Nasos stansi- yalar (taq- simlovchi nasoslar).	A, CM A, CM, AMBK CM	S1 S1 S1	400—4500 1250—8000 800—1600

Burg'ulash qurilmasining mexanizmlarining umumiy joylashishi 4.1-rasmida keltirilgan.

Burg'ulash asbobini aylantirishga, burg'ulovchi quvurlar jamlamasini quduqqa tushirishda va chiqarib olishda, ushlab turishga va aylantirishga xizmat qiluvchi rotor (*J*) minoraning asosiga o'rnatilgan. Burg'ulovchi asbobni va quvurlarni ko'tarish hamda tushirishda rotor



4.1- rasm. Burg'ulash qurilmasi jihozlarining joylashishi sxemasi.

(1) ning aylanma harakatini uzatish uchun burg'ulovchi lebedka (2) dan foydalilanadi. Burg'ulovchi lebedkaning ko'tarish mexanizmi (4) motordan harakatlanadi.

Rotor (1) kardanli val yoki zanjirli uzatma orqali lebedka (2) ning validan harakatga keltirilishi yoki alohida motor yordamida harakatlanishi mumkin.

Burg'ulash qurilmalari burg'ulash lebedkasi vali bilan kinematik bog'langan motor (16) yordamida iskana harakatini uzatuvchi avtomatik boshqarish tizimi bilan jihozlangan bo'ladi. Burg'ulash qurilmasini ishlatish davomida yuritma motorlarining ishdan chiqishi, elektr energiya ta'minotida uzilishlar bo'lishida yoki boshqa sabablar sodir bo'lganida motor (16) ularning vazifalarini bajaradi. Bu motor elektr energiyani «motor — generator» tizimi (15) dan ta'minlanadi. Bu tizim, o'z navbatida, avariya holatlarida ishlatiladigan avtonom elektr energiya manbai «dizel — generator» (8) energetik qurilmasidan ta'minlanadi.

Minora oldidagi inshootlarga burg'ulash eritmasini quduqqa uzatib berishni amalga oshiruvchi ikkita burg'ulash nasosi (12) o'rnatilgan. Bu nasoslarning ish jarayoni motorlar (11) orqali amalga oshiriladi. Qurilmani siqilgan havo bilan ta'minlash motorlar (13) bilan jihozlangan kompressorlar yordamida bajariladi.

Burg'ulash lebedkasi ko'tarish valini iskanani tushirish jarayonida tormozlash uchun yordamchi tormoz (3) (gidravlik yoki elektromagnit) qo'llanilgan. Burg'ulash qurilmasining yordamchi mexanizmlari — suv nasosi, kran va boshqalar alohida elektr yuritmalar bilan jihozlangan. Shamlarni harakatlantirish va o'z o'miga o'rnatish uchun aravacha va ko'tarish mexanizmini avtomatik tushirib, ko'taruvchi avtomatlashtirilgan elektr yuritmadan foydalilanadi.

Lebedka motorlarini boshqarish apparatlari boshqarish stansiyasi (14), burg'ulash nasoslari (10), dizel elektr stansiyasi, yordamchi mexanizmlar va iskanani uzatishning avtomatik boshqarish tizimlari mos ravishda boshqarish stansiyalari (5), (6) va (9) yordamida boshqariladi. Burg'ulash qurilmasi burg'ulovchi pulti (17) dan boshqariladi.

Burg'ulash qurilmasi o'rnatilgan joyga yaqin joyda 6 kV li taqsimlovchi qurilma (7) o'rnatiladi.

Burg'ulash qurilmalarining elektr jihozlari ochiq maydonlarda yoki isitilmaydigan, vaqtincha qurilgan yopiq joylarda ishlatiladi. Burg'ulash qurilmalari asosiy mexanizmlarining keltirilgan ish rejimlaridagi ishlash muddati bir yilda 2500 soatgacha vaqtini tashkil etadi. Bu mexanizmlar katta-katta mexanik bloklari bilan yoki alohida agregatlar holida, davriy ravishda bir joydan ikkinchi joyga ko'chib yuradi, shuning uchun ularda doimo demontaj va montaj ishlari olib boriladi.

Qurilma-ning klassi	Qurilmaning turi	Yuritma turi	Maksi-mal yuk ko'tari-shi, t	Burg'u-lash chu-qurligi, m	Elektr tormoz-lash turi
BU—2000	BU—75BrE	E	100	1800	Yo'q
	BU—75BrD	D	100	1800	Yo'q
BU—2500	BU—2500EU	E	140	2800	TEK
	BU—2500 DGU	D—G	140	2800	TEK
	BU—2500EP	E	140	2800	MYU
BU—3000	BU—3000BE	E	160	4200	Yo'q
	BU—3000BD	D	160	4200	Yo'q
	BU—3000EUK	E	170	3000	TEK
BU—4000	BU—3D—76	D	225	5000	Yo'q
	BU—4E—76	E	225	5000	Yo'q
	BU—4000E—1	E	250	5000	Yo'q
	BU—4000D—1	D—G	250	5000	Yo'q
BU—5000	BU—5000EU	E	250	5000	EMT
	BU—5000DGU	D—G	250	5000	EMT
BU—6500	BU—6500E	E	320	6500	Yo'q
	BU—6500DG	D—G	320	6500	Yo'q
BU—8000	BU—8000E	E	400	8000	Yo'q
Qurilma-ning klassi	Qurilmaning turi	Yuritma quvvati, kVt		Uzatish-ning rost-lash turi	O'rnatil-gan elektr motorlar-ning quvvati, kVt.
		lebedka	bitta nasos		
BU—2000	BU—75BrE	320	450	—	Yo'q 1050
	BU—75BrD	—	—	—	Yo'q 360
BU—2500	BU—2500EU	450	630	—	TEK 2950
	BU—2500DGU	—	—	—	TEK 740
	BU—2500EP	500	500	140	MYU 1850
BU—3000	BU—3000BE	550	450	—	LUR 2460
	BU—3000BD	—	—	—	LUR 480
	BU—3000EUK	550	630	—	TEK 2550
BU—4000	BU—3D—76	—	—	—	Yo'q 200
	BU—4E—76	2x320	450	—	Yo'q 2180
	BU—4000E—1	630	630	—	LUR 2316
	BU—4000D—1	—	—	—	LUR 426
BU—5000	BU—5000EU	2x450	700	320	LUR 4200
	BU—5000DGU	—	—	320	LUR 1189
Bu—65000	BU—6500E	2x550	850	320	LUR 4550
	BU—6500DG	—	—	320	LUR 7620
Bu—8000	BU—8000E	2x1150	1000	1000	LUR 7300

*Eslatma:* 1. «Yuritma turi» grafasidagi belgilashlar: E — elektr, D—E dizel — elektr, D — dizel, D — G — dizel — gidravlik yuritma turlari ekanligini bildiradi.

2. «Elektr tormozlash turi» grafasida elektromagnit tormozlashning kukunli (TEK), induksion (EMT) turlari va yuritma motorlarining tormozlash rejimi (MYU) qo'llanilganligini anglatadi.

3. «Uzatish rostlagichi turi» grafasidagi belgilashlar: LUR — loyqani uzatish rostlagichi sifatida RPDE — 3 rusumdag'i rostlagich, TEK — uzatish rejimidagi TEP — 500 rusumdag'i kukunli tormozlash qurilmasi ishlataliganligini bildiradi.

4. «O'rnatilgan elektromotorlarning quvvati» grafasida dizel — elektr yuritma tizimidagi generatorning quvvati hisobga olinmagan.

Elektr mashinalari yasalishining himoya darajasi 1R23 dan, boshqarish qurilmalari komplektlari yasalishining himoya darajasi 1R41 dan va elektr jihozlarini boshqarish pulni yasalishining himoya darajasi 1R43 dan kam bo'lmasligi kerak.

Xalqaro kelishuvlarga asosan burg'ulash quduqlari mexanizmlari elektr jihozlari, shuningdek, unga yaqin joylashgan ma'lum hududdagi ishlaydigan elektr jihozlarning ijrosi portlashdan himoyalangan turdag'i elektr jihozlar bo'lishi kerak.

Burg'ulash qurilmalarining turlari va ularning elektr jihozlari to'g'risidagi umumiy ma'lumotlar 4.2- jadvalda keltirilgan.

## **4.2. Burg'ulash qurilmalarining elektr yuritmalariga qo'yiladigan asosiy talablar**

Burg'ulash qurilmalarining asosiy mexanizmlari burg'ulash nasoslari, rotor va burg'ulash lebedkasidir. Burg'ulash lebedkasi elektr yuritma tizimini, quduqdan burg'ulash quvurlari kolonnasini ko'taruvchi, shuningdek, quvurlar kolonnasini quduqqa tushirishdag'i tormozlash elektr yuritmalar tizimlarini alohida tizimlar deb qarash kerak.

Burg'ulash qurilmasi ba'zi asosiy mexanizmlari elektr yuritmalarining turlari va ularning ko'rsatkichlarini tanlashda kompleks yondashishga to'g'ri keladi. Masalan, burg'ulash qurilmalarining turli elektr yuritmalarini elektr energiya bilan ta'minlashda mavjud bir turdag'i manbalardan foydalilanadi; yuqori kuchlanishli liniyadan, elektrlash-tirilmagan hududlarda esa avtonom ko'chma elektr stansiyalardan foydalilanadi. Elektr yuritmalar bir xil kuchlanishda ishlaydigan motorlar bilan ta'minlanishi zarur.

Bosh mexanizmlari elektr yuritmalarining hammasi bir paytda ishlamaydi. Burg'ulash nasoslari va rotor (burg'ulash rejimida)

ishlayotganida, burg'ulash lebedkasida tushirish-ko'tarish amallari bajarilmaydi. Elektr yuritmalarining iste'mol qilayotgan elektr energiyasi burg'ulash qudug'ining chuqurligiga bog'liq bo'lgani uchun har ikkala elektr yuritma tizimlarining quvvatlari bir-biriga yaqin bo'lishi va ularning qiymati elektr energiya manbai quvvatidan oshmasligi kerak.

Ishlab chiqarish va ishlatalish jarayonlarini soddalashtirish maqsadida elektr yuritmalarining bir xil turdagisini tanlash maqsadga muvofiqdir. Bosh mexanizmlarning tezliklarini rostlash ishlatalish jarayonida birmuncha qulayliklar tug'diradi.

Rotorli burg'ulashda burg'ulash nasoslarining texnologik funksiyasi, burg'ulash quvurlari orqali quduqning nefli qatlamiga va quvur orti oralig'i orqali nefli qatlamidan quduq tubiga o'tuvchi yuvuvchi eritma oqimini (burg'ulash eritmasini) hosi'l qilishdan iborat. Bu suyuqlik oqimi nefli qatlamidan neftni quduq yuzasiga bosim ostida chiqishiga olib keladi. Quvurli burg'ulashda yuvuvchi eritma bundan tashqari quduq tubidagi loyqali quvurli burg'ulashni vujudga keltiradi va bu eritma quvurli burg'ulash turbinasi uchun harakatlantiruvchi ishchi material vazifasini o'taydi.

Turli usuldagi burg'ulashlar uchun zarur bo'ladigan nasos elektr yuritmasingning quvvati turlichadir. Biroq har bir burg'ulash qurilmasining ko'rsatilgan burg'ulash usullarining barchasida ishlashini ta'minlash maqsadida, quvurli burg'ulash quvvatidan kelib chiqqan holda burg'ulash nasosining quvvati tanlanadi (chunki rotorli burg'ulash uchun kam quvvat talab etiladi) va burg'ulash qurilmasi klassiga qarab bir nasosning quvvati 300 dan 1200 kWt gacha bo'ladi. Tanlangan motorning tezligi, odatda, 750—1000 ayl/min ni tashkil etadi. Burg'ulash nasoslari uchun porshenli nasoslar qo'llaniladi.

Nasos elektr yuritmasingning tezligi rostlanadigan va yo'nalishi o'zgarmas hamda ish rejimi uzlucksiz bo'lishi kerak.

Burg'ulash rotori burg'ulash quvurlari kolonnasini aylantirishga xizmat qiladi. Rotorli burg'ulashda to'g'ridan-to'g'ri quduq tubidagi loyqani aylantirishda, quvurli burg'ulashda esa yordamchi maqsadlarda foydalaniлади. Turli klassdagi burg'ulash qurilmalari uchun rotor elektr yuritmasingning quvvati 75 kWt dan 400 kWt gacha bo'ladi.

Burg'ulash rotori elektr yuritmasingning tezligi rostlanadigan va tezlik yo'nalishi o'zgaruvchan hamda ish rejimi uzlucksiz bo'lishi kerak.


Burg'ulash lebedkasi burg'ulash kolonnasini davriy ravishda ko'tarib-tushirishga xizmat qiladi. Turli klassdagi burg'ulash qurilmalari uchun lebedkalar elektr yuritmalarining quvvati 250—2500 kWt ni tashkil etadi.

Burg'ulash qurilmasi elektr yuritmasining tezligi rostlanadigan va tezlik yo'nalishi o'zgaradigan hamda ish rejimi uzlukli — qaytariluvchan bo'lishi kerak.

#### 4.3. Burg'ulash qurilmasini elektr energiya bilan ta'minlash

6 kV kuchlanishli liniyalar o'tgan hududlarda o'rnatilgan burg'ulash qurilmalari mexanizmlari elektr yuritmalari va boshqa elektr jihozlariga beriladigan elektr energiya KRNB — 6U taqsimlovchi qurilmaning olti yacheykasi va ishga tushirish qurilmasi PBG — 6 orqali taqsimlanadi.

Burg'ulash qurilmasining elektr energiya bilan ta'minlanishi variantlaridan biri 4.2- rasmida keltirilgan.



4.2- rasm. BU — 75BrE burg'ulash qurilmasining elektr energiya bilan ta'minlash sxemasi:

KT — yordamchi yuritmalarning ta'minlovchi kuch transformatori; O'KT — o'chov kuchlanish transformatori; NSM — nasoslarning sinxron motorlari, O'AAM — o'zgartikich agregatining asinxron motori.

Havodan tortilgan 6 kV kuchlanishli liniyadan qoida bo'yicha alohida tarmoqlanadi: 1- yacheykaga ulangan yordamchi mexanizmlarni elektr yuritmalarining kuch transformatori KT to'g'ridan-to'g'ri kuchlanish liniyasiga ulanadi, 2- yacheykaning tokka ulanuvchi uchlari havo liniyasi oxirida o'rnatilgan simyog'ochga mahkamlangan yuqori kuchlanish uzgichi orqali ulanadi. 1- yacheykada yuqori kuchlanish uzgichi va saqlagich transformator KT ini ishga tushirish va himoyalash vazifasini o'taydi.

2- yacheykada yuqori kuchlanish uzgichi, o'lchov kuchlanish transformatori O'KT, nazorat va o'lchov asboblari va ventili, razryad qurilmasi o'rnatilgan.

3- yacheykada yuqori kuchlanish uzgichi va moyli uzgich o'rnatilgan bo'lib, ular orqali kuchlanish 4-, 5- va 6- yacheykalarning shinalariga uzatiladi. Burg'ulash qurilmasining asosiy mexanizmlari shu shinalar orqali elektr energiya bilan ta'minlanadi.

KRNB — 6U taqsimlash qurilmasi yuqori kuchlanishli apparatlar majmuasiga ega.

### **Yuqori kuchlanishli apparatlarning asosiy texnik ko'rsatkichlari**

	Tok kuchi, A	Kuchlanish, V
Moyli o'chirgich VMP—10 K.....	600	10 000
Vakuumli yuqori kuchlanishli kontaktor KVV—6/320.....	320	6000
Uzgich PVF — 6/400 II.....	400	6000
Tok transformatori		
TPL — 10 — 0,5/P.....	30/5,75/5	6000
Kuchlanish transformatori		
NTMI — 6.....	—	6000/100/100 $\sqrt{3}$
Saqlagich PKT — 10.....	—	10 000
Razryadlash qurilmasi PVM — 6.....	—	6000

Sarf bo'layotgan aktiv va reaktiv energiyani hisoblash 1- va 3-yacheykalarga o'rnatilgan hisoblagichlar orqali amalga oshiriladi.

Burg'ulash qurilmalarida qo'llaniladigan kuch transformatorlarining asosiy ko'rsatkichlari 4.3- jadvalda keltirilgan.

Ko'rsatkichlari	Transformatorlarning turlari					
	TM – 100/6	TM – 180/6	TEM – 180/6	TM – 250/6	TM – 320/6	TM – 560/10
Nominal quvvati, kV.A	100	180	170	250	300	560
Nominal kuchlanishi, k.V:						
birinchi chulg'amning	6,3	6,3	6,3	6,3	6,3	6,3
ikkinci chulg'amning	0,4	0,525	0,4	0,4	0,525	0,525
Nominal yuklanish va						
$\cos \varphi_2 = 1$ da FIK, %	97,09	97,3	98,05	98,24	97,72	97,87
Nominal yuklanish va						
$\cos \varphi_2 = 1$ da ikkilamchi						
chulg'amdagi kuchlanish-						
ning o'zgarishi, %	2,5	2,35	1,89	2,37	2,35	1,8
Qisqa tutashuv kuchlanishi,						
nominal kuchlanishga						
nisbatan, %	5,5	5,5	5,05	4,7	5,5	5,5
Salt yurish toki, nomi-						
nal tokka nisbatan, %	6,5	6,0	5,57	3,68	6,0	6,0
Transformatorning						
og'irligi, kg	890	1230	1510	1300	2050	3040

#### 4.4. O'yuvchi asbob — iskanani harakatga keltiruvchi elektr yuritma

##### Rotor elektr yuritmasi

Aylanma burg'ulash jarayonining qanday usulda amalga oshirilishiga qarab rotor elektr yuritmasiga qo'yiladigan talablar ishlab chiqiladi. Agar quduqqa tushirilgan motorlar burg'ulash ishlarini olib borsa, u holda rotor yordamchi amallarni bajaradi. Rotor burg'ulash amalini bajarganda iskananining aylanma harakati rotor orqali uzatiladi.

Rotorli burg'ulash jarayonida rotorni harakatga keltiruvchi motor uzlucksiz ish rejimida ishlaydi va uning quvvati quyidagi formula bilan aniqlanadi:

$$P_p + P_b + P_i, \quad (4.1)$$

bunda:  $P_b$  — burg'ulash uchun to'g'ridan-to'g'ri sarf bo'ladigan quvvat

(iskananing ishqalanishdagi qvvat isrofi ham hisobga olinadi);  $P_i$  — burg'ulash qurilmasidagi qvvat isroflarini yopish uchun zarur bo'lgan qvvat (mexanizmlarning yuzalaridagi barcha qvvat isroflarining yig'indisi, quvurlarning quduq devorlari va suyuqliklar bilan ishqalanishi natijasida hamda tebranishlaridan yuzaga keladigan qvvat isroflari).

Rotorli burg'ulashda isrof bo'ladigan qvvat  $P_i$  motor qvvatining deyarli 80% ini tashkił etadi.

Burg'ulash jarayonida iskananing harakati davomida turli zichlikdagi qatlamlarga to'g'ri kelishi, tiqilib qolishi natijasida buraluvchi mexanik zo'riqishning yuzaga kelishi, quvurlarning katta kuch bilan tebranishlari va h.k. larni hisobga olgan holda, rotorning elektr yuritmasi yumshoq mexanik tafsifli bo'lishi bilan bir qatorda minimal inersiya momentiga hamda cheklangan maksimal momentga ega bo'lishi maqsadga muvofisqdir.

Hisob-kitoblar shuni ko'rsatadiki, rotorning tezligini 5 : 1 — 7 : 1 oraliqda rostlash texnik-iqtisodiy jihatdan o'zini oqlaydi. Tezlikni momentning o'zgarmas qiymatida rostlash tavsiya etiladi.

Rotorning elektr yuritmasi texnologik jarayondan kelib chiqqan holda reversiv bo'lishi kerak.


Hozirda burg'ulash qurilmalarida asosan lebedka va rotolarning guruhiy elektr yuritmalari qo'llaniladi. Keyingi yillarda ishlab chiqarilayotgan burg'ulash qurilmalarini rusumlarida rotorning elektr yuritmasi alohida boshqariladigan variantlari ham bor.

Elektr yuritmasi alohida boshqariladigan rotorning elektr yuritma sxemasi 4.3- rasmida keltirilgan.

Rotor generatori RG (markasi P 142 — 6k, 600 kVt, 460 V) uch mashinali o'zgartkich agregati tarkibiga kiradi va sinxron motor ASM (markasi SDZ 13—34—6, 500 kVt, 6 kV, 1000 ayl/min) aylantiruvchi motor vazifasini bajaradi.

Rotor generatori RG rotorning o'zgarmas tok motori RM (markasi P 127—8k, 250 kVt, 330 V) uchun o'zgarmas tok manbai vazifasini bajaradi. Generator RG ning qo'zg'atish chulg'ami bir fazali reversiv tiristorli to'g'rilikdandan ta'minlanadi, RM ning qo'zg'atish chulg'ami esa noreversiv tiristorli to'g'rilikdandan ta'minlanadi. O'zgarmas tok taxogeneratoridan tezlik o'zgartkichi sifatida foydalilanadi.

Motor RM ikki tezlikli mexanik uzatkich yordamida rotorni aylantiradi, bu esa rotorning ishchi va avariya rejimlarida tezlik va moment qiymatlarini rostlash imkonini beradi. Boshqarish sxemasida RG yakor zanjirida tokning oshib ketishidan, motor RM da magnit maydonining yo'qolib qolishidan va RM va RG ventilatorlarining o'chib qolishidan himoyalovchi vositalar qo'llanilgan. Birinchi nosozliklar yuzaga kelishi bilan generator va motorning qo'zg'atish chulg'amlari ta'minot manbaidan avtomatik ravishda o'chiriladi va shu bilan rotorning harakati



*4.3- rasm. Burg'ulash qurilmasi rotorining individual elektr yuritmasining sxemasi:*

*LSM* — lebedkaning sinxron motori; *EMM* — elektromagnit mufta; *ASM* — nasos, lebedka va o'zgartkich agregatining sinxron motorlari; *LAM* — nasos va lebedkaning asinxron motorlari; *RM* — rotor motori; *NG* va *RG* — nasos va rotor elektr yuritmalarini o'zgarmas tok bilan ta'minlovchi generatorlar.

to'xtatiladi. Elektr yuritmaning talab etiladigan statik va dinamik tafsiflari avtomatik boshqarish tizimida qo'llanilgan turli teskari bog'lanishlar yordamida hosil qilinadi. Hozirda mashinalni o'zgartkichlar o'rniغا reversiv yarim o'tkazgichli o'zgartkichlar qo'llanilmoqda.

Rotor elektr yuritmasining ko'pgina masalalari motor bilan rotor o'rtaida o'matilgan elektromagnit mufta EMM vositasida nisbatan oson yechiladi. Rotor motorini ishga tushirish va tezligini rostlash EMM da

quvvat isrofining oshishiga va chulg‘amlarining qizishiga olib keladi. EMM larni sovitishda suvdan foydalanish samara beradi. Rotor motorini boshqarishda yarim o‘tkazgichli o‘zgartkichlardan foydalanish ishga tushirish va tezlikni rostlash diapazonini kengaytirishga va texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlarining oshishiga olib keladi.

#### 4.5. Elektr burg‘u

Hozirgi kunda quduqqa tushirilgan elektromotorlar yordamida burg‘ulash (elektr burg‘u) usuli keng qo‘llaniladi. Elektr burg‘u usuli bilan quduqlarni burg‘ulash sxemasi 4.4- rasmida keltirilgan.

Burg‘ulash quvurlari (3) ga o‘rnatilgan elektr burg‘uli (2) iskana (1) burg‘ulash qudug‘iga tushiriladi. Har bir quvurning ichiga kabel bo‘lagi (4) va kontakt sterjeni, muftadan iborat kabel seksiyasi joylashtirilgan bo‘ladi. Mufta bilan sterjenlar quvur bilan qulflri bog‘lanishli mahkamlangan.


Elektr energiya taqsimlovchi qurilma (14) dan, transformator (15) va boshqarish stansiyasi (16) dan tashqaridagi kabel (9) yo‘naltiruvchi quvur (7) dagi tok qabul qilib oluvchi (8), kabel seksiyasi va egiluvchan ikki mis tomirli rezina shlangli kabel vositasida elektr burg‘uga uzatiladi. Motorga berilayotgan uch fazaning uchinchi fazasi sifatida burg‘ulovchi quvur qo‘llaniladi.

Burg‘ulash eritmasi burg‘ulash shlangi (10), aylantiruvchi qurilma (11), yo‘naltiruvchi quvur (7), burg‘ulovchi quvurlar elektr burg‘uning bo‘sh ichi, iskana orqali quvurlar orti maydonchasiga haydaladi. Rotor (5) yordamida burg‘ulovchi quvurlar aylantirilib yordamchi amallar bajariladi. Burg‘ulovchi quvurlarning og‘irlik kuchi iskanada yuklanishni hosil qiladi. Burg‘ulash lebedkasi (12) bilan zanjirli bog‘langan iskanani uzatish moslamasining avtomatik rostagichisi (13) iskanani quduq ichida kerakli tomonga yo‘naltiradi. Elektr burg‘uni boshqarish burg‘uchining ishchi joyidagi pultdan amalga oshiriladi.

Elektr burg‘u ikkita asosiy tashkil etuvchi quduq tubiga tushirilgan motor va iskanaga yuklanishni uzatuvchi shpindeldan tashkil topgan bo‘ladi. Motorning vali shpindel vali bilan tishli biriktiruvchi mufta orqali biriktirilgan. Elektr burg‘uning yuqori qismida elevatorga mahkamlovchi qamragichli o‘tkazgich joylashgan, tag qismidan esa shpindel valiga iskana burab mahkamlangan.

Elektr burg‘ularda alohida rotor ni qisqa tutashtirilgan seksiyali yuqori kuchlanishli asinxron motorlar qo‘llaniladi.

Burg‘ulash texnologiyasi va iskana diametri o‘lchamlaridan kelib chiqqan holda elektr burg‘u motori iloji boricha kichik o‘lchamli va maksimal quvvatli qilib loyihalashga harakat qilinadi. Motorning sinxron



4.4- rasm. Elektr burg'uli burg'ulash qurilmasining sxemasi.

tezligi iskananening ruxsat etilgan tezligi qiymatidan oshmasligi kerak va bu tezlik 1000 ayl/min ni tashkil etadi. Konstruktiv jihatdan quduq tubida ishlaydigan motorlarning tezligi 500 ayl/min dan kichik bo'lgan tezlikli qilib yaratish birmuncha murakkabdir. Shuning uchun elektr burg'u motorlarining sinxron tezligi 500, 600, 750 va 1000 ayl/min bo'lishi tavsiya etiladi. Chuqur quduqlarni elektr burg'u bilan

burg'ulashda yuklanish momentining oshishiga proporsional tarzda tezlikni kamaytirish zarurdir. Buning uchun tishli reduktorlardan foydalananildi. Reduktorli elektr burg'u motorlarning sinxron tezligi, odatda, 1500 ayl/min ni tashkil etadi.

Elektr burg'u bilan burg'ulashda inersiya momentining kichik bo'lishi talab etilmaydi. Iskana ishlashidan kelib chiqqan holda, yuklanishning tepkili o'zgarishida tezlik qiymati kam o'zgargani ma'qul. Elektr burg'u motorining mexanik tavsiflari yuksak bikrli va moment bo'yicha yuklanishi katta bo'lishi talab etiladi.


Elektr burg'u motorlarining asosiy xususiyatlardan biri — bu nominal yuklanishda sirpanishning katta bo'lishi va ishga tushirish momentining sezilarli darajada (1,2—1,7)  $M_n$  yuqoriligidir.

Sanoatda ishlab chiqarilayotgan elektr burg'ularning asosiy texnik ko'rsatkichlari 4.4- jadvalda keltirilgan.

4.4- jadval

Elektr burg'u markasi	Nominal quv- vati, $R_h$ , kVt	Kuchlanish, V	Nominal tok kuchi, A	Nominal tezligi, ay/min	Aylantirish momenti, kHm		Uzunligi, m
					$M_u$	$M_{max}$	
E290—12	240	1750	165	455	5,1	11	14,0
E250—8	230	1650	160	675	3,32	7,5	13,0
E240—8	210	1700	144	690	2,97	7,6	13,4
E215—8m	175	1550	131	680	2,5	5,5	13,9
E185—8	125	1250	130	676	1,8	3,6	12,5
E170—8m	75	1300	83,5	695	1,1	2,4	12,2
E164—8m	75	1300	87,5	685	1,1	2,4	12,3

Elektr burg'u markasi	Og'irigi, t	Iskananing minimal diametri, mm	Kon yuzasi $S$ , $\text{sm}^2$	Solishtirma energetik ko'rsatkichlari		
				$P_h/S, \text{kVt}/\text{sm}^2$	$M_{ch}/S, H$ $\text{m}/\text{sm}^2$	$M_{max}/S, H$ $\text{m}/\text{sm}^2$
E290—12	5,1	394	1220	0,2	4,2	9
E250—8	3,6	295	683	0,34	4,9	11
E240—8	3,5	269	568	0,37	5,2	13,4
E215—8m	2,9	243	465	0,38	5,4	11,8
E185—8	2,0	214	360	0,35	5,0	10,0
E170—8m	1,8	190	284	0,26	3,9	8,5
E164—8m	1,7	190	284	0,26	3,0	8,5



#### **4.5- rasm. Elektr burg'u asinxron motorini boshqarish sxemasi.**

4.5- rasmida elektr burg'u motorini boshqarishning elektrik-sxemasi keltirilgan. Elektr burg'u 6 kV kuchlanishli uch fazali elektr tarmoqdan kuchlanishni pasaytiruvchi kuch transformatori KT orqali elektr energiya bilan ta'minlanadi. Bu transformatorning birlamchi va ikkilamchi chulg'amlarida kuchlanishni rostlash imkonini beradigan chulg'amlardan bir nechta simlarning uchlari chiqarilgan. Bu simlarning uch'lari transformatorning ichiga joylashtirilgan qayta ulagichga ulangan va ulagich dastasining holatiga qarab, texnologik jarayon talabiga ko'ra motor uchun zarur bo'lgan kuchlanishni o'rnatish mumkin.

Kuch transformatori KT ning ikkilamchi chulg'ami kabel yordamida boshqarish stansiyasining kamerasida joylashgan uzgich U ning kirish qismiga ulangan. Bu kamerada uzgichdan tashqari himoyalash, o'lchash va avtomatika zanjirlarini ta'minlovchi tok TT1 – TT5 va kuchlanish O'KT1 va O'KT2 o'lchov transformatorlari, tok qabul qiluvchi halqali cho'tkalarga kuchlanish uzatuvchi liniya kontaktori L va saqlagichlar S1—S3 ham o'rnatilgan.

Ta'minot zanjiridagi bir fazani tok qabul qiluvchi quyi halqaga ulab, ya'ni korpusga ulab yerga ulash amali bajariladi; burg'ulovchi quvurlarning pastki qismi quduq ichiga tushirilgan uzgich KP yordamida motor fazalaridan biriga ulanadi. Bu uzgichning vazifasi, motorning yerga ulangan fazasini burg'ulash quvurlari to'plamidan ajratish va elektr burg'uni quduqqa tushirish vaqtida qolgan ikki fazaning izolatsiyasini o'lchashdan iborat.

KP uzgichni ulashni 175 A nominal tokli moyga botirilgan ikkita normal ochiq kontaktlari bo'lgan elektromagnit kontaktor bajaradi. Elektr burg'u tarmoqqa ulanganda ikki fazasi kontaktoring elektromagnit chulg'amlari orqali ulanadi va uchinchi fazasi burg'ulash quvurlari orqali motor stator chulg'amining bir fazasiga ulanadi.

Elektr burg'u motorining tarmoqqa ulanishi, komplekt taqsim-lovchida o'rnatilgan yuqori kuchlanishli uzgich U hamda avtomatik moyli uzgich A ni ulash bilan boshlanadi. Bu amal natijasida elektr yuritmaning kuch va boshqarish zanjirlariga kuchlanish beriladi, shuningdek, liniya kontaktori g'altaklari zanjiridagi KSA—A va KSA—R kontaktlar ulanadi.

Boshqarish zanjiriga kuchlanish berilishi natijasida to'g'rilaqich T dan ta'minlanadigan RP2, RV1 va RV2 relelearning chulg'amlaridan o'zgarmas tok o'tadi. Kontaktor L va vaqt relesi RV4 g'altaklari ulangan zanjiridagi bu relelearning normal ochiq kontaktlari yopiladi. Kontaktor L g'altagi ulangan zanjirdagi RV4 relening yopuvchi kontakti ham yopiladi. RS2 va RS3 signal relelari va kontaktor K zanjiridagi RV1, RV2 va RV3 relelearning normal yopiq kontaktlari ochiladi.

«Ishga tushirish» tugmachasi bosilganida kontaktor L ning elektr burg'u motori EB ning ta'minot zanjiridagi bosh kontaktlari yopiladi va shu bilan birga KP ning g'altagi zanjiridan ham tok tok o'tadi. KP, o'z navbatida, motor chulg'ami fazalaridan birini quvurga ulaydi.

Kontaktor L ning ulanishi uning ochiq kontaktlarini yopishga va yopiq kontaktlarining ochilishiga olib keladi. Bu esa, o'z navbatida, RV3 rele g'altagini toksizlanishiga sabab bo'ladi va u ma'lum vaqt o'tkazib o'zining kontaktor K g'altagi zanjiridagi ochuvchi kontaktini yopadi hamda RV4 vaqt releli g'altagi zanjiridagi o'zining yopuvchi kontaktini ochadi. Shunday qilib, L kontaktor ulangandan so'ng ma'lum

vaqtidan keyingina kontaktor K ning g'altagi tarmoqqa ulanadi va elektr burg'u motori yerga ulangan fazasi zanjirini ulaydi.

Agar elektr burg'u motorini ishga tushirish normal sharoitda kechsa, u holda «Ishga tushirish» tugmachasi va RV4 ning kontakti L va K kontaktorlarning yordamchi kontaktlari bilan shuntlanib qoladi. Elektr burg'u motorini o'chirish uchun «To'xtatish» tugmacha bosish kerak, bunda L kontaktor g'altagi zanjiri uziladi.

Elektr burg'u motorini boshqarish sxemasida qisqa tutashuvlardan himoyalash uchun RM1 va RM2 maksimal tok releleri va o'ta yuklanishlardan himoyalash uchun esa RMP relesi qo'llanilgan.

Elektr burg'u motorining kuchlanishi, toki va iste'mol qilayotgan quvvati elektr o'lchov asboblari yordamida nazorat qilib boriladi.


Elektr burg'u bilan chuqur quduqlarni burg'ulashda tushirish-ko'tarish amallarini bajarishga ko'p vaqt ketishini hisobga olgan holda burg'ulash tezligini kamaytirish kerak bo'ladi. Masalan, chuqurligi 4000 metr bo'lgan burg'ulash qudug'inining ichida harakatlanayotgan iskananining aylanish tezligini 680 dan 375 ayl/min gacha kamaytirish iskananining quduq ichida yurish tezligini 40—50% ga oshiradi. Iskananining tezligi asinxron motor stator chulg'amiga berilayotgan kuchlanish chastotasini o'zgartirib amalga oshiriladi.

4.6- rasmda elektromexanik chastota o'zgartkichdan ta'minlanadigan elektr burg'u asinxron motorini boshqarishning blok sxemasi keltirilgan.

6 kV li tarmoqdan kuchlanish o'zgarmas tok generatori G (685 kVt, 680 V, 1000 ayl/min) valiga rotori mahkamlangan asinxron motor (630 kVt 985 ayl/min) A ga beriladi. Generator G «Generator—o'zgarmas tok motori» elektromexanik tizimidagi o'zgarmas tok motori (600 kVt, 680 V, 500/1000 ayl/min) M ni o'zgarmas tok kuchlanishi bilan ta'minlaydi. Motor M ning vali sinxron generator (1100/330 kVA, 825/248 kVt, 3150/945 V, 1000/300 ayl/min) SG ning valiga mahkamlangan.

«Generator — o'zgarmas tok motori» tizimi yordamida sinxron generator SG ning stator chulg'amida chastotasi 20 dan 50 Gs gacha rostlanadigan o'zgaruvchan tok kuchlanishi hosil qilinadi. Chastotani rostlash chastota rostlagich CHR yordamida generator G va o'zgarmas tok motori M ning qo'zg'atish chulg'amlari toklariga ta'sir etilib rostlanadi.

Avtomatik rostlagich tizimi EB motorining kuchlanishini berilgan qiymatida avtomatik o'zgarmasdan ushlab turish vazifasini bajaradi. Kerakli kuchlanish qiymati kuchlanish bo'yicha vazifalovchi qurilma VQ orqali tanlanadi. Elektr burg'u EB motori statori fazasi chulg'amidagi kuchlanish va yuklanish toki o'lchov o'zgartikchilari bo'lgan o'lchov kuchlanish transformatori O'KT va o'lchov tok transformatori O'TT



4.6- rasm. Elektr burg‘u asinxron motori tezligini elektromexanik chastota o‘zgartirish yordamida boshqarishning blok sxemasi.

dan teskari bog‘lanish qurilmasi TB ga beriladi. TB da hosil qilingan signal VQ dagi signal bilan solishtiriladi va ayirmasi yarim o‘tkazgichli kuchaytirgich YAK da kerakli qiymatgacha kuchaytiriladi. Magnit kuchaytirgich MK ning chiqish qismi sinxron generator SG ni qo‘zg‘atuvchi o‘zgarmas tok generatorining ( $29 \text{ kVt}$ ,  $84 \text{ V}$ ,  $1460 \text{ ayl/min}$ ) qo‘zg‘atish chulg‘amini o‘zgarmas tok kuchlanishi bilan ta‘minlaydi.

Elektr burg‘u motori tezligini rostlashda yarim o‘tkazgichli chastota o‘zgartirishlarni qo‘llash burg‘ulash jarayonining texnik-iqtisodiy ko‘rsatkichlarini oshirishga olib keladi.

#### **4.6. Iskanani uzatish avtomatik rostlagichlari**

Iskanani uzatish deyilganida, yer qatlamini teshish jarayonida burg'ulash quvurlari to'plamini eng yuqori nuqtadan ketma-ketlikda tushirish tushuniladi. Burg'ulashning turg'un ish rejimida iskanani uzatish tezligi yer qatlamini burg'ulash tezligiga teng bo'lishi kerak. Agar iskananining uzatish tezligi burg'ulash tezligidan katta bo'lsa, u holda quduq ichida yuklanish oshib ketadi, quduq devorlarida uchqunlanishlar yuzaga kelishi mumkin yoki burg'ulash quvurlarning ishdan chiqishiga olib keladi. Agar iskananining uzatish tezligi burg'ulash tezligidan kichik bo'lsa, u holda quduq ichida yuklanish kamaya boradi, bu esa burg'ulash tezligining kamayishiga olib keladi.

Burg'ulovchi ko'rsatuvchi o'Ichov asboblar (burg'u motori statori chulg'amidagi ampermetr va og'irlik indikatori) yordamida iskanani uzatishni dastaki boshqarilganida davriy ravishda lebedka barabanini to'xtatib, iskanani uzatishni amalga oshirib borishga to'g'ri keladi. Bunday usulda iskanani uzatishni bir maromda amalga oshirish juda qiyin. Iskana uzatish jarayonini avtomatlashtirish bu kamchiliklarni bartaraf qilishga olib keladi.


Hozirgi paytda iskanani uzatishning turli avtomatik rostlagich sxemalari qo'llaniladi. Uzatish avtomatik rostlagichi o'rnatiladigan joyiga qarab yer usti va yer osti turlariga bo'linadi. Yer ustiga o'rnatiladigan uzatish rostlagichlari konstruktiv jihatdan elektr mashinali, gidravlik va friksion turlarga bo'linadi.

4.7- rasmida quvur bilan va rotorli burg'ulash ish rejimlarini ta'minlovchi RPDE—3 avtomatik rostlagichning soddalashtirilgan elektr sxemasi keltirilgan. Bu rostlagich ishlab chiqarilayotgan burg'ulash qurilmalarining hammasida qo'llaniladi. U iskana uchun berilgan yuklanishli ish rejimini ta'minlaydi — asosiy rejim; asbobni ko'tarish yoki tushirish tezliklari qiymatlarini berilgan qiymatda ushlab turish — yordamchi rejim.

Rostlagich quyidagi asosiy qismlardan iborat:

— ko'tarish arqonining qo'zg'almas qismida o'rnatilgan va ilgakdag'i yukni o'Ichashga xizmat qiluvchi ressorli og'irlik o'Ichov o'zgartkichi (datchigi) DVR — 2b; o'Ichov o'zgartkichi ressor va selsin SD dan tashkil topgan;

— qabul qiluvchi selsin (selsin-priyemnik) SP og'irlikni belgilovchi va tezlikni belgilovchi vazifalovchi selsin SV lardan iborat og'irlik va tezlik belgilovchi bo'g'in; har ikkala selsinlar tishli uzatma orqali umumiy boshqarish dastagi bilan birikkan; boshqarish dastagi va universal qayta ulagich UQU rostlagichning boshqarish pultiga o'rnatilgan;



4.7- rasm. RPDE — 3 rostlagichning soddalashtirilgan elektr sxemasi.

— reversiv magnit kuchaytirgich MK1 va MK2 lar hamda yarim o'tkazgichli faza sezgirli kuchaytirgich YAO'FSK — I larni boshqarishga xizmat qiluvchi boshqarish stansiyasi BS; bu magnit kuchaytirgichlar boshqaruv signallarini kuchaytirish (kuchaytirgich generator G ning qo'zg'atish chulg'ami GQCH ni ta'minlaydi), shuningdek, yarim o'tkazgichli faza sezgirli kuchaytirgich YAO'FSK — I boshqaruv signallarini birlamchi kuchaytirish uchun xizmat qiladi;

— «generator — o'zgarmas tok motori» tizimi o'zgarmas tok generatori G va uning yakorini harakatlantiruvchi asinxron motor A hamda o'zgarmas tok motori M dan tashkil topgan;

— kuch bo'g'ini, o'zgarmas tok motori vali chervyakli-silindrli reduktor bilan bog'langan va reduktoring chiqish vali lebedka barabaniga ulangan; o'zgarmas tok motori valiga, shuningdek, ventilator, taxo-generator hamda elektromagnit tormozlash qurilmasi mahkamlangan.

Elektr burg'uli burg'ulash qurilmalarida iskanani uzatishni avtomatlashtirish uchun AVT1 va AVT2 rostlagichlar qo'llaniladi. Bu rostlagichlarning asosini «generator — o'zgarmas tok motori» tizimi tashkil etadi.


AVT1 rostlagich sxemasida iskanani uzatish iskananining yuklanish funksiyasi va elektr burg'u motori statorining toki bo'yicha rostlanadi. AVT1 rostlagichi, shuningdek, asbobni ko'tarish yoki uzatish tezligini berilgan tezlikda o'zgartirmasdan ishlash ish rejimida ham ishlashi mumkin.

Burg'ulashda kam energiya talab etiladigan hollarda elektr burg'u asinxron motori stator tokining aktiv tashkil etuvchisini rostlanuvchi ko'rsatkich deb qarash maqsadga muvofiqdir. Shuning uchun rostlagich AVT2 ning elektr sxemasida elektr burg'u motorining aktiv tashkil etuvchisiga proporsional signalni qabul qiluvchi tugun mavjud.

4.8- rasmida iskanani uzatishni avtomatik rostlovchi rostlagich AVT2 sxemasi tasvirlangan. Motor toki va kuchlanishiga proporsional signal o'Ichov tok (1) va kuchlanish (2) transformatorlari orqali olinib. o'Ichov o'zgartkichi (3) da motor tokining aktiv tashkil etuvchisiga mos keluvchi signal  $U_1$  shakllantiriladi.  $U_1$  signal vazifalovchi (4) dagi  $U_2$  bilan solishtiriladi va ularning ayirmasi cheklovchi (5) orqali modulator (6) ga uzatiladi. Bu signal summator (7) ning birinchi kirish qismiga beriladi. Iskananing o'qi bo'yicha yuklanishiga monand o'Ichov o'zgartkichi (8) dan olingan signal vazifalovchi qurilma (9) dagi o'rnatilgan signal bilan solishtiriladi va ularning ayirmasi faza sezgir kuchaytirgich (10) da kuchaytirilib, summatorning ikkinchi kirish qismiga yuboriladi. Summatorning chiqish qismida hosil bo'lgan signal rostlagich RPDE — 3 ning birlamchi kuchaytirgichining kirish qismiga yuboriladi.

Burg'ulash katta solishtirma moment qiymatlarida olib borilayotgan bo'lsa va elektr burg'u motori nominal yuklanishga yaqin yuklanishda ishlayotgan bo'lsa, u holda signal  $U_V$  ning fazasi  $U_{ayr}$  niki kabi nolga teng bo'ladi. Bu holda iskananing o'qi bo'yicha yuklanishi to'g'risidagi signal summatorga kelmaydi va iskanani uzatish faqat stator tokining aktiv tashkil etuvchisi bo'yicha boshqariladi.

Agar burg'ulash yuklanish momentining uncha katta bo'limgan qiymatlarida olib borilsa, u holda stator tokining aktiv tashkil etuvchisining qiymatini bilish uncha ahamiyatga ega bo'limgan qoladi va rostlagich iskana o'qi bo'yicha yuklanishni oshiradi. Stator toki aktiv tashkil etuvchisining qiymati chegaralovchi (5) ning chiqish qismidagi chegaralangan qiymatlari signalgacha kamayganda  $U_V$  signal qiymati o'zgarmas bo'lishi va uning ishorasi iskananining uzatilishiga mos bo'lishi kerak bo'ladi. Agar iskana o'qi bo'yicha yuklanish belgilangan qiymatiga yetsa, faza sezgirli kuchaytirgich (10) ning chiqish qismida signal  $U_{ayr}$  hosil bo'ladi va bu signal o'q bo'yicha yuklanishning bundan buyon o'sishiga yo'l qo'yaydi.



*Rostlagich RPDE-3  
birlamchi kuchaytirgichiga*

4.8- rasm. Iskanani uzatishning avtomatik rostlovchi rostlagich AVT2 ning blok sxemasi.

Burg'ulash qurilmalarida elektromagnitli kukunli tormozlar ham iskananining tezligini passiv rostlagichlari vazifasini bajaradi. Bu elektro-

magnit tormozlar hosil qiladigan tormozlash momenti valning tezligiga emas, balki qo'zg'atish chulg'ami toki qiymatigagina bog'liqdir.

Agar burg'ulash jarayonida iskana o'qi bo'yicha ma'lum bir yuklanish hosil qilingan bo'lsa va ilgakdagagi zo'riqish momenti tormoz momenti bilan muvozanatlantirilsa, lebedkaning barabani qo'zg'almas holatda bo'ladi.

Tormozlash qo'zg'atish tokini ma'lum qiymatga kamaytirish natijasida lebedka barabanini sekinlatishga erishiladi. Iskananing yer qatlamiga chuqurroq kirib borishi tufayli iskanaga ta'sir etuvchi yuklanishning qiymati kamayib, baraban validagi moment oshib boradi, pirovardida uning qiymati tormozlash momenti qiymatidan oshib ketadi va asbobni bir maromda silliq uzatish ta'minlanadi.

## 4.7. Burg'ulash lebedkasining elektr yuritmasi

### Elektr yuritmaning quvvati va tavsifi

Burg'ulash quvurlarini to'g'ridan-to'g'ri ko'tarish yoki tushirish kabi asosiy amallardan tashqari, lebedka yordamida quvurlarni aylantirish va burash, bir joydan ikkinchi joyga ko'chirish va ularni o'rnatish, to'ldirilmagan elevatorni ko'tarish va tushirish, iskanani quduq ichiga yo'naltirish kabi bir qancha yordamchi amallar ham bajariladi. Bu amallarni bajarish uchun elektr yuritmalarining turlicha quvvat va tavsiflarga ega bo'lishi talab etiladi. Hozirda ishlatalayotgan burg'ulash qurilmalaridagi yordamchi mexanizmlarning hammasi individual elektr yuritmalar bilan jihozlangan. Elektr yuritmalni lebedka burg'ulash quvurlarini ko'tarish va tushirish amallarini bajarish uchungina ishlataladi. Quvurlarni ko'tarish uchun elektromotorlar qo'llanilsa, ularni tushirishda yordamchi tormozlar yoki elektromotorlardan foydalaniлади.

Burg'ulash quvurlarini ko'tarish alohida sikllardan iborat bo'lib, ularning soni shamlar soniga teng bo'ladi. Bir sikel davomida quvur bir sham balandligiga (25—27 m) ko'tariladi so'ngra u aylantiriladi, joyi o'zgartiriladi va o'rnatiladi, shundan keyin sikel yana yangidan qaytariladi. Shunday qilib, quvurlar yig'masining ko'tarilib borishi natijasida ularning og'irligi uzlukli kamayib boradi, natijada elektr yuritma motori validagi statik moment qiymati ham kamayib boradi.

Elektr yuritma motorida yuklanish momentining kamayishiga proporsional tezlikni oshirish amalga oshirilsa, ya'ni motor validagi quvvatni o'zgarmas holda ushlab turish lebedkaning ish unumini maksimal qiymatda bo'lishiga olib keladi.

Lebedka elektr yuritmasi motorlari sifatida asosan faza rotorli asinxron motorlar va sinxron motorlardan foydalaniлади. Quvvati 200—250 kVt

gacha bo'lgan motorlarni 380, 500 yoki 600 V kuchlanishli turlarini qo'llash maqsadga muvofiqdir. Quvvati 250 kW dan yuqori bo'lgan motorlarning kuchlanishi 6000 V bo'lgan turlarini qo'llash, oraliq transformatorlarini qo'llamaslikka olib keladi.

Zamonaviy burg'ulash qurilmalarida lebedka barabanini to'xtatishda elektromagnit tormozlar ishlataladi. Elektromagnit tormozlar hosil qilinadigan tormozlash momenti qiyamatining yuqori bo'lishi tormozlash energiyasining tekis taqsimlanishi bilan xarakterlidir.

### Burg'ulash qurilmalari elektromotorlarini boshqarish stansiyalari

Bu turdag'i burg'ulash qurilmalarining burg'ulash lebedkasi va rotori elektr yuritmalarida alohida faza rotorli asinxron motorlar qo'llaniladi. Bu motorlar isitilmaydigan normal muhitli, o'rabi turgan havoning harorati  $\pm 40^{\circ}\text{C}$ , nisbiy namlik 90% (harorat  $20^{\circ}\text{C}$ ) bo'lgan xonalarda ishlatalishga mo'ljallangan.

Bu motorlar izolatsiyasi namlikka chidamli bo'lib, ular sachrashdan himoyalangan, gorizontal sovitiluvchi tizimli qilib yasalgan. Dala sharoitida montaj qilish va bir joydan ikkinchi joyga ko'chirishga mo'ljallangan. Stator va rotor chulg'amlari «yulduzcha» usulida ulangan.

Lebedka elektr yuritmasi motorlarining asosiy texnik ko'rsatkichlari 4.5-jadvalda keltirilgan.


SB turdag'i magnit stansiyalari lebedka va rotor elektr yuritmalarini boshqarishda qo'llaniladi. Bu magnit stansiyalarida elektromotorni kontaktorli ishga tushirish pog'onalarini kamaytirish maqsadida drosselli ishga tushirish usuli qo'llanilgan. Misol tariqasida burg'ulash lebedkasi qurilmasi motorini boshqarishning SB-64-500 (SHGSH-6704-58B1) markali boshqarish stansiyali boshqarilishi sxemasini ko'rib chiqamiz (4.9-rasm).

Lebedka elektr yuritmasini boshqarish burg'ulovchi pultiga o'rnatilgan komanda kontroller KK orqali amalga oshiriladi.

Lebedkaning motori A ni ishga tushirish uchun (ikkinchi motor zaxirada turadi) avval reduktorga moy uzatadigan nasos motori ishga tushiriladi (PM kontakt yopiladi). Boshqa hamma himoyalash va blokirovkalashlarda, ya'ni ularning kontaktlari ulangan holatda, kontaktor KN ning yakori tortilgan bo'ladi (komanda kontroller KK nol holatda bo'lganida).

Kontaktor KN g'altagi tarmoqqa ulanadi va u o'zining yordamchi kontakti bilan KK ning kontakti (*I*) ni shuntlaydi.

KN ishga tushganidan so'ng boshqarish zanjiriga 170 V kuchlanishli to'g'rilangan o'zgarmas tok kuchlanish beriladi. KN ning ishga tushishi



**KK universal qayta ulagich kontaktlarining ularish jadvali**

Kont	Tushirish	O	Ko'tarish
№	3 2 1 0 1 2 3		
1-1		x	
2-2			x x x
3-3	x x x		
4-4	x x		x x
5-6	x		x

**4.9- rasm. Burg'ulash lebedkasi motorini SB-64-500 (SHGSH-6704-58B1) markali boshqarish stansiyali boshqarishning elektr sxemasi.**

bilan bir paytda reversiv kontaktorlar V va N ni ishga tushirishga tayyorlaydi. Bu kontaktorlarning zanjirlarida vaqt releleri RV1 va RV2 ning yopuvchi kontaktlari joylashgan. Bu relelar yoyli blokirovkani amalga oshirib, kontaktorlarni bir paytda ularishiga yo'l qo'ymaydi.

Motor vaqt funksiyasi bo'yicha to'rtta pog'onada ishga tushiriladi. KK dastagini o'ng tarafagi uchinchi holatga burganimizda kontaktor V ularadi, motor A ishga tushiriladi va V ning ochuvchi kontakti RUI g'altakli zanjirni uzadi. O'rnatilgan ma'lum vaqt oralig'idan so'ng RUI o'cha turib, kontaktor U1 g'altagi zanjirini ulaydi. Kontaktor U1

asinxron motor rotori zanjiridagi rezistorlarning birinchi pog'onasini ulaydi va o'zining uzuvchi yordamchi kontaktlari bilan rele RU2 g'altakli zanjirni uzadi. Bu rele esa o'rnatilgan ma'lum vaqtdan so'ng ochuvchi yordamchi kontaktini yopadi va U2 g'altakli zanjirni ulaydi. Kontaktor U2 rezistorlarning ikkinchi pog'onasini uzadi va RU3 g'altakli zanjirni uzadi; o'rnatilgan ma'lum vaqtdan so'ng kontaktor U3 ulanadi va rezistorlarning uchinchi pog'onasi uziladi.

4.5- jadval

Motor markasi	Nominal quvvati, kVt	Nominal kuchlanishi, kV	Nominal yuklanishda				$\lambda = \frac{M_{max}}{M_H}$	Kuchlanish, V	Tok, A	Rotorning ko'r-satkichlari	Inersiya momenti, kg m <sup>2</sup>	Og'irligi, kg
			Aylanish tezligi, ayl/min	Stator tok kuchi, A	FIK, %	cos, φ						
AKB-114-6	320	500	980	45,5	92,5	0,88	2,5	608	328	2,25	2150	
AKZ-12-39-6	320	6000	985	37,5	91,5	0,88	2,3	560	355	4	2810	
AUB-13-62-8	500	6000	740	59	93,5	0,88	2,5	870	350	10,7	4820	

Rezistorlarning birinchi va ikkinchi pog'onalari uzoqroq ulanib turilishi motorning past tezliklarda ham ishlashini ta'minlaydi. Buning uchun KK ning boshqarish dastagi birinchi yoki ikkinchi holatida o'zgartirilmay qoldiriladi, U1 va U2 zanjirlar uzilgan holatda bo'ladi.

Kinematik uzatmalarga zarbli yuklanishlarning ta'sirini kamaytirish maqsadida sxemada motorni kichik qiymatli momentli ishga tushirish pog'onasi ham mavjud.

Garchi kontaktorlar soni cheklangan bo'lsa ham elektr yuritma mexanik tavsifining bikrligi yuqori, bu yuritmaning ishonchli ishlashi darajasini oshiradi. Mexanik tavsifning talab etiladigan ko'rinishda bo'lishi rotor zanjiriga qo'shimcha rezistorlar va drossel ulanishi bilan ta'minlanadi.

Lebedka motorini boshqarish sxemasida quyidagi asosiy himoyalash va blokirovkalashlar qo'llanilgan:

- himoyalash ishga tushgandan so'ng asinxron motorning o'z - o'zidan ishga tushishidan saqlaydigan nol blokirovka (kontaktor KN);
- o'ta yuklanishdan himoyalovchi maksimal tok relelari RMI va RM2;
- moy nasosi ishlamayotganida lebedka motorini ishlashiga yo'l qo'yilmaydi (moy nasosi motorining magnitli yuritkichi PM ning yordamchi kontakti);

- ko'tarish tizimi ASP—3 ko'tarish qismining ishdan chiqishiga yo'l qo'ymaydigan blokirovka;
- lebedka motori va lebedka barabaniga uzatish rostlagichining bir paytda ulanishiga yo'l qo'ymaydigan blokirovka;
- ko'tarish blokining kronblokiga bo'ladigan zarblardan himoya-lash.

## **Elektromagnitli va tormozli elektr yuritmalar**

Elektromagnit mustalarning lebedka elektr yuritmalarida qo'llanilishi elektr yuritmalarini bir maromda, shuningdek, intensiv ishga tushirish imkonini beradi. Bundan tashqari elektr yuritma sxemasini sodda-lashtirishga va nisbatan ishlatishga qulay bo'lgan rotor qisqa tutashtirilgan asinxron motor va sinxron motorlardan foydalanish mumkin. Lebedkaning elektromagnit mustali elektr yuritmalarini elektr jihozlarning ishlashi ishonchligini sezilarli darajada oshiradi, ishlash sharoitini yaxshilaydi va motorlar quvvatidan maksimal foydalanish mumkin bo'ladi. Bu esa, o'z navbatida, burg'ulash qurilmasi ish unumining oshishiga olib keladi.

Lebedka elektr yuritmasida elektromagnit musta motor bilan transmissiya oralig'iga o'rnatiladi. Motor tushirish va ko'tarish amallarini bajarayotganida tezligi o'zgarmas bo'lib, tabiiy mexanik tavsifda ishlaydi.

Lebedka elektr yuritmasining ishga tushirilishi elektromagnit mustaning qo'zg'atish chulg'amiga tok berish bilan boshlanadi. Boshqarish tizimi avtomatik yoki yarim avtomatik bajarilishi mumkin. Zarur dinamik tavsifni shakllantirish qo'zg'atish tokini rostlab amalga oshiriladi.

Elektromagnit mustali elektr yuritma asbobni ko'tarishdagi mexanik ko'tarish tizimi trosidagi taranglikdan to burg'ulash quvurlarini berilgan balandlikka ko'tarish, yuritma motorlarini to'liq yuklanishgacha yuklash va ular orasida yuklanishni o'zaro bir tekis taqsimlash kabi amallarning uzlusiz bajarilishini ta'minlaydi.

Burg'ulash lebedkalarida yordamchi tormozlar sifatida gidravlik va elektr tormozlar qo'llaniladi. Ba'zi hollarda lebedkaning yuritma motorlari ham tormozlovchi vosita sifatida ishlatiladi. Burg'ulash lebedkalarida yordamchi tormozlash qurilmalari sifatida elektromagnit tormozlarni qo'llash maqsadga muvofiqlikdir.

Elektromagnit induksion va kukunli tormozlarda tormozlash energiyasining hammasi issiqlik energiyasiga o'zgaradi va uni uzatish uchun suvli yoki havoli sovitish usullari qo'llaniladi. Konstruksiyasining soddaligi, fazal chulg'amlarining yo'qligi, tormozlash momentini boshqarishning qulayligi va boshqarilishining osonligini hisobga olgan

holda elektromagnit tormozlar burg'ulash lebedkalari uchun eng istiqbolli tormoz turi ekanligiga ishonch hosil qilish mumkin.

Elektromagnit tormozlar, odatda, baraban vali bilan shinali pnevmatik musta vositasida biriktiriladi. Suv bilan sovitish tizimi burg'ulash maydonchasi yonida yoki tashqarisida joylashtiriladi. Elektromagnit tormozni boshqarish stansiyasi qulay bo'lgan joyga o'rnatish mumkin. Tormozni boshqarish burg'ulash pulti orqali amalga oshiriladi.

Asbobni quduq ichiga tushirib borishda tormozlash jarayonini boshqarish elektromagnit tormozi qo'zg'atish chulg'amining tokini o'zgartirib bajariladi. Boshqarish tizimi elektromagnit mustalarni boshqarish kabi avtomatik yoki yarim avtomatik usulda amalga oshiriladi.

Elektromagnit tormozlarning asosiy afzalligi tormozlash momentini keng oraliqda rostlash imkoniyati borligi, shuningdek, tormozlash jarayonini nisbatan oson avtomatlashtirish mumkinligidir.


Burg'ulash lebedkalari mexanizmlarida keng qo'llaniladigan elektromagnit musta va tormozlarning asosiy texnik ko'rsatkichlari 4.6- jadvalda keltirilgan.

4.6- jadval

Turi	$M_N$ , kNm	$M_{max}$ , kNm	$n_N$ , min	$P_{qzg'}$ , kWt	Og'irligi, kg	Inersiya momenti, kg m <sup>2</sup>
EMC-750	7,5	16,0	750	4,0	3400	7,75
IEM-630	6,3	12,6	750	4,2	2400	6,7
IEM-800	8,0	16,0	750	5,4	2900	8,4
EMT-4500	45,0	60,0	500	16,25	6000	26,0
IET-4500	45,0	65,0	500	8,8	6000	26,0

Masalan, BU — 2500 BrE turdag'i burg'ulash qurilmasi mexanizmlari elektr yuritmalarini boshqarishda elektromagnit musta va tormozlar qo'llaniladi. Bu qurilmada burg'ulash lebedkasining elektr yuritmasi SDZB-42-8 markadagi sinxron motor (450 kWt, 6 kV, 750 ayl/min) asosida bajarilgan. Bu motorning vali transmissiya bilan mexanik bog'langan, transmissiyadan harakat EMS-750 yoki IEM-800 elektromagnit sirpanish mustalari orqali rotorga uzatiladi. Sinxron motorning va elektromagnit sirpanish mustalarining qo'zg'atish toklari alohida rostlagichlar yordamida rostlanadi.

Sinxron motor qo'zg'atish tokini avtomatik rostlash sxemasi 4.10-rasmda keltirilgan. Sinxron motor SM ning qo'zg'atish tokini avtomatik rostlagich kuchlanish qiymatining 0,8 U<sub>nom</sub> ga pasayganida qo'zg'atish tokining ikki marta oshishini ta'minlaydi. Qo'zg'atish tokini rostlash stator tokining aktiv fashkil etuvchisining o'zgarishi asosida olib boriladi.



4.10- rasm. Burg'ulash lebedkasi sinxron motori qo'zg'atish tokini boshqarishning tarkibiy sxemasi.

Avtomatik rostlagichning kirish qurilmalari diskret kuchlanish o'lchov o'zgartkichlari DKO'O' 1, DKO'O' 2 va aktiv tok o'lchov o'zgartkich ATO' lardir. O'lchov o'zgartkichlari quyidagi prinsipda ishlaydi. O'lchov transformatoridan olinayotgan faza kuchlanishi  $U_A$  (kuchlanish o'lchov o'zgartkichlari uchun) yoki motoring A fazasiga ulangan tok transformatoridan olinadigan tok (aktiv tok o'lchov o'zgartichi uchun) ikki yarim davrli to'g'rilaqichda to'g'rilanadi va 100 Gs chastota bilan davriy ochiluvchi tranzistorli kalit orqali eslab qoluvchi kondensatorga uzatiladi. Diskret o'lchov o'zgartkichlarning ishlashi uchun vazifalovchi qurilma VQ orqali liniya kuchlanishi  $U_L$  ni qisqa impuls ko'rinishiga keltirilib boshqaruv signali hosil qilinadi va bu signal bilan 100—150 mks larda kalit rejimida ishlaydigan tranzistorlar ochiladi. Liniya kuchlanishi  $U_L$  va faza kuchlanishi  $U_A$  larning vektorlari

orasidagi burchak  $90^\circ$  bo'lgani uchun kalitning ochilish momentida eslab qoluvchi kondensator faza kuchlanishi  $U_A$  ning amplituda qiymatiga ulangan bo'ladi, aktiv tok o'Ichov o'zgartkichi ATO'O' qo'llanilganda esa SM stator tokining aktiv tashkil etuvchisiga proporsional bo'lgan kuchlanishga ulangan bo'ladi. Eslab qoluvchi kondensatorda qayd qilingan kuchlanish to kalitning keyingi ishlashi davrigacha qayd etib turaveradi.

SM qo'zg'atish tokining qiymati tarmoq kuchlanishi va real yuklanish toki qiymatlariga bog'liq ravishda rostlanadi. Bunday qo'zg'atish tokini rostlashning qonuniyati kanallarni mantiqiy qayta ulash qurilmasi KMQUQ da shakllanadi. QQ sining chiqish qismidagi signalning qiymati tarmoq kuchlanishi va SM validagi yuklanishning qiymatlariga bog'liq. QQ ning chiqishidagi signalning qiymatiga mos ravishda impuls fazali boshqarish tizimi IFBT ning chiqish qismida tiristorli qo'zg'atish TQ ning tiristorlarini ochish uchun impulslar shakllanadi, natijada zarur bo'lgan qo'zg'atish toki qiymati hosil qilinadi.


Agar tarmoq kuchlanishi qiymati belgilangan minimal darajadan kam bo'lsa, u holda DKO'O'1 o'Ichov o'zgartkichi ishga tushadi va qisqa muddatga qo'zg'atish toki FQ yordamida oshiriladi. Agar tarmoq kuchlanishi qiymati nominaldan kichik, ammo qo'zg'atish toki oshirilayotgan paytdagidan katta bo'lsa, u holda tarmoq kuchlanishi qiymatini o'zgarmas holda ushlab turish amali bajariladi. Bunda kuchlanish pasayishi vaqt vaqti davomiyligini hisobga olgan holda qo'zg'atish toki qiymati nominalga teng qilib ushlab turiladi.

Tarmoq kuchlanishi qiymati nominaldan katta bo'lgan holatda DKO'O' 2 o'Ichov o'zgartkichi solishtirish qurilmasi SQ orqali KMQUQ ga ta'sir etadi va motor tokining aktiv tashkil etuvchisi bo'yicha qo'zg'atish tokini rostlash jarayoni boshlanadi. Tarmoq kuchlanishi qiymati nominal qiymatidan katta bo'lgani uchun SQ KMQUQ ga qo'zg'atish tokini stator tokining aktiv tashkil etuvchisi bo'yicha rostlash uchun signal beradi (ATO'O'—KMQUQ—QQ kanali bo'yicha). Bu holda qo'zg'atish toki qiymati yuklanishga bog'liq bo'ladi va ATO'O' ning kerakli kuchaytirish koeffitsiyentini tanlash asosida lebedkaning sinxron motorli elektr yuritmasining turg'un ish rejimida ishlashi ta'minlanadi.

EMS—750 markali elektromagnit muftaning qo'zg'atilishini boshqarish sxemasi (4.11- rasm) sinxron motor valiga yuklanish momentining bir maromda qo'yilishini va lebedka barabanini kerakli tezlanish bilan ishga tushirishni ta'minlaydi.

Elektromagnit muftaning qo'zg'atish chulg'ami EMM QCH transformator  $T_1$  va  $T_2$  tiristorlardan iborat noreversiv tiristorli o'zgartkichdan ta'minlanadi. Tiristorli o'zgartkich magnit yuritkich MYU va avtomatik uzgich AU orqali o'zgaruvchan tek tarmog'iga ulangan.

Tiristorlarning ochilishini boshqarish magnit kuchaytirgich MK orqali amalga oshiriladi. Tiristorlarni boshqarish signali, tezlik bo'yicha



4.11- rasm. Elektromagnit muftaning qo'zg'alishini soddalashtirilgan boshqarish sxemasi.

teskari bog'lanish zanjiridagi taxogeneratori TG dan olinadigan va qo'zg'atish toki bo'yicha teskari bog'lanish zanjiridagi rezistor R dan olinadigan signallar asosida hamda selsin komandoapparat SKAL dan olinadigan signallar asosida shakllanadi.

Lebedkaning yordamchi tormozi sifatida TEP — 4500 markali kukunli elektromagnit tormoz ishlatiladi, bu tormoz iskanani uzatuvchi avtomatik rostlagich vazifasini ham bajaradi.

#### 4.8. Burg'ulash nasoslaring elektr yuritmaları

##### Burg'ulash nasoslaring taysiflari va quvvati

Burg'ulash nasoslari quduq ichini tozalash va yuvish uchun suyuqliklarning aylanma harakatini hosil qilishga va turbina usuli bilan burg'ulashda turbina energiyasini uzatish uchun xizmat qiladi. Burg'ulashda asosan porshenli nasostar qo'llaniladi.

Burg'ulashning boshlang'ich bosqichida nasos hosil qiladigan bosim kuchi katta emas. Quduqning chuqurligi oshib borgan sari quvurlarning gidravlik qarshiligi ortib borishi bilan bir qatorda nasosning chiqish

qismida bosim kuchi ham oshib boradi. Bu bosim kuchi nasos konstruktiv qismlarining mustahkamligi darajasi bilan chegaralanadi. Shuning uchun quduqning ma'lum bir chuqurligidan boshlab nasosdan chiqayotgan suyuqlik miqdorini chegaralashga to'g'ri keladi. Bu cheklash tezligi rostlanmaydigan nasos elektr yuritmalarida nasos silindrik vtulkasini almashtirish bilan qisman hal etiladi, biroq bunday usulda nasos ish unumdorligini rostlashda motordan quvvati bo'yicha to'liq foydalanilmaydi va uning energetik ko'rsatkichlari past bo'ladi. Bu masalani hal qilishning eng samarali yo'li tezligi rostlanadigan elektr yuritmalaridan foydalanishdir.

Turbinali burg'ulashda iskanaga aylanish tezligi va iskanaga berilayotgan o'rtacha quvvatning oshishi bilan burg'ulash tezligi ham oshib boradi.

Burg'ulash murakkab sharoitlarda olib borilayotganda nasosning ish unumdorligini rostlab borishga to'g'ri keladi. Shuning uchun ham burg'ulash nasoslarida tezligi rostlanadigan elektr yuritmalarini qo'llash maqsadga muvofiqdir. Burg'ulash nasosi validagi yuklanish momentining o'zgarmas qiymatida yoki burg'ulash qurilmasi gidravlik tizimidagi bosimning ruxsat etilgan qiymatlarida nasosning tezligini rostlash ma'quldir.

Hozirgi paytda burg'ulash nasoslarida asosan tezligi rostlanmaydigan sinxron motorli elektr yuritmalar qo'llaniladi. Yarim o'tkazgichlar va ular asosidagi o'zgaruvchan tok o'zgartkichlari asosida tezligi rostlanadigan o'zgaruvchan tok elektr yuritmalarini qo'llash katta iqtisodiy samara beradi.

Burg'ulash nasoslarining elektr yuritmalarida faza rotorli asinxron motorlardan foydalanish ularning tezligini nominaldan pastga qarab rostlash imkonini beradi. Tezlikni rostlash jarayonida quvvat isrofini kamaytirish maqsadida motor tezligi elektr kaskad sxemasida amalga oshiriladi, shuningdek, tezligi chastotani o'zgartirib boshqariladigan asinxron elektr yuritmalar ham qo'llaniladi.

Nasosning ish rejimi uzlusiz bo'lgani uchun ham nasos motorining quvvati statik yuklanish quvvatidan ko'pi bilan 20% ga ortiq qilib tanlanadi. Motoring nominal kuchlanishi elektr tarmog'i kuchlanishiga mos bo'lishi kerak (6 kV yoki 10 kV). Motoring aylanish tezligi nasosning kinematik sxemasi va tasmali uzatma ko'rsatkichlari asosida tanlanadi; amaldagi porshenli nasoslarda tezlik 750 ayl/min ni tashkil etadi.

## **Elektromotorlar va ularni boshqarish stansiyalari**

Rusum bo'yicha ishlab chiqarilayotgan burg'ulash qurilmalari nasos qurilmalarining elektr yuritmalarida alohida sinxron motorlar qo'llaniladi. Bu motorlar isitilmaydigan normal muhitli, o'rab turgan havoning harorati  $\pm 40^{\circ}\text{C}$ , nisbiy namlik 90% (harorat  $20^{\circ}\text{C}$ ) bo'lgan xonalarda ishlatishga mo'ljallangan.

Bu motorlar izolatsiyasi namlikka chidamli, sachrashdan himoya-langan, gorizontal o'zini sovituvchi tizimli qilib yasalgan. Dala sharoitida montaj qilish va bir joydan ikkinchi joyga ko'chirishga mo'ljallangan. Motor korpusining ustki qismiga qo'zg'atuvchi o'zgarmas tok generatori o'rnatilgan, uning vali tasmali uzatma motor vali bilan mexanik bog'langan. Motoring nominal kuchlanishi 6000 V va nominal tezligi 750 ayl/min ni tashkil etadi.

Stator chulg'ami «yulduzcha» usulida ulangan. Aniq ko'rinishli qutbga ega rotorli sinxron motorlarda ishga tushirish chulg'ami latun sterjen tarzda qutb boshmog'ida joylashtirilgan bo'ladi.


Nasoslarda qo'llaniladigan sinxron motorlarning asosiy texnik ko'rsatkichlari 4.7-jadvalda berilgan.

Burg'ulash nasoslari sinxron motorlarini boshqarish uchun PGA 7002—01A1 rusumdag'i boshqarish stansiyalari qo'llaniladi. Bu boshqarish stansiyasi yuqori kuchlanishli uzgich, sinxron motor stator chulg'amini tarmoqqa ulovchi yuqori kuchlanishli kontaktor, stator chulg'ami fazalarida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan o'ta yuklanish tokidan himoyalovchi ikkita maksimal tok releleri, to'rtta o'lchov tok transformatorlari, ikkita ampermestr, yuqori kuchlanishni va qo'zg'atish chulg'amidagi past kuchlanishni o'lchovchi ikkita voltmetr, dastakli ikkita qayta ulagich, qo'zg'atish tokini o'zgartiruvchi kontaktor va relelar tizimi kabi tashkil etuvchi elementlardan tashkil topgan.

4.7-jadval

Motor turi	Nominal quvvati, kVt	Nominal yuklanishda			Nominalga nisbatan karrali				Og'irrigi, kg
		Stator toki kuchi, A	FIK, %	cos, φ	Ishga tushirish toki	Ishga tushirish momenti	Kiritish momenti	Maksimal moment	
SDZ—12—46—8A	320	36,7	94	0,9	5,5	1,3	1,2	1,8	3200
SDB—13—42—8A	450	46,2	93	1,0	6,0	1,8	0,6	1,46	4050
SDZB—13—42—8	450	51,5	94	0,9	5,4	1,8	0,6	1,9	4050
SDZ—13—52—8A	630	63,5	95	1,0	6,0	1,8	0,6	1,44	5420
SDBO—99/49—8/A2	630	71	94,5	0,9	6,9	1,8	0,6	2,2	5600
SDB—14—46—8	850	96	94,5	0,9	5,5	0,87	0,79	2,2	6500

Burg'ulash nasosining tezligi rostlanadigan ventilli o'zgaruvchi tok motorining principial sxemasi 4.12-rasmda keltirilgan.



4.12- rasm. Ventilli o'zgaruvchan tok motorining principial sxemasi:

- 1— avtomatik o'chirgich; 2— tokni chekllovchi reaktor; 3 — rostlanuvchi to'g'rilikch; 4— invertor, 5— sinxron motor; 6 — tiristorli qo'zg'atkich;
- 7— rotor holati o'lchov o'zgartkichi; 8 — taxogenerator; 9— to'g'rilaqichning impuls faza boshqarish tizimi; 10— invertorning boshqarish tizimi;
- 11— boshqarish pulti.

Bu elektr yuritmada o'zgarmas tok bo'g'ini bo'lgan tiristorli chastota o'zgartkich sinxron motor (5) ning tezligini rostlashda ishlataladi. Tezlikni rostlash diapazoni 20:l ni tashkil etadi. Invertorni boshqarishda kontaktsiz rotor holati o'lchov o'zgartkichi (7) va stator chulg'ami uchiga ulangan kuchlanish o'lchov o'zgartkichi signallaridan foydalilanildi. To'g'rilaqan kuchlanish silliqlovchi reaktor RF orqali invertor (4) ga uzatiladi. Invertorning tiristorlari ularni boshqarish tizimi (10) signallari bilan ochiladi. Ventilli motorning qo'zg'atish chulg'ami toki motor (5) ning yuklanish tokiga bog'liq ravishda qo'zg'atkich (6) da shakllanadi.

7 — 10 km chuqurlikdagi quduqlarni burg'ulashda U8 — 7 rusumli burg'ulash nasoslari ishlataladi, ularning elektr yuritmalari asosini PI72 — 12k (950 kW, 550 V, 750/900 ayl/min) rusumidagi o'zgarmas tok motori tashkil etadi.

Nasoslardan motorlarining har biri qurilmaning bosh generatorlarining biridan «generator — o'zgarmas tok motori» tizimi bo'yicha ta'minlanadi.

Motorning qo'zg'atish chulg'ami noreversiv kuch magnit kuchay-tirgichdan ta'minlanadi. Motorni ishga tushirish boshqarish pultidagi qayta ulagich yordamida generator kuchlanishini tezkor boshqarish natijasida amalga oshiriladi.

### Nazorat uchun savollar

1. Burg'ulash qurilmasining asosiy va yordamchi mexanizmlari qanday vazifalarni bajaradi?
2. Burg'ulash qurilmasining asosiy va yordamchi mexanizmlari qanday elektr jihozlaridan iborat?
3. Burg'ulash qurilmalarini elektr energiya bilan ta'minlash qanday sxemalar asosida amalga oshiriladi?
4. Burg'ulash qurilmalari mexanizmlari elektr yuritmalariga qanday asosiy talablar qo'yiladi?
5. Rotor elektr yuritmasi qanday ishlaydi?
6. Elektr burg'u usuli bilan quduqlar qanday qaziladi?
7. Iskanani uzatuvchi avtomatik rostlagichlarning qanday turlari mavjud?
8. Elektr burg'u elektr yuritmalarida qanday turdag'i energiya o'zgartichilar qo'llaniladi?
9. Burg'ulash lebedkasi elektr yuritmasiga qanday asosiy talablar qo'yiladi?
10. Burg'ulash lebedkasi o'zgaruvchan tok elektromotorini boshqarish sxemasi qanday ishlaydi?
11. Burg'ulash nasosi elektr yuritmasiga qanday asosiy talablar qo'yiladi?
12. Burg'ulash nasosi o'zgaruvchan tok elektromotorini boshqarish sxemasi qanday ishlaydi?
13. Burg'ulash mexanizmlari elektr yuritmalarini tezliklarini rostlashning elektromagnit muftali sxemalari qanday ishlaydi?
14. Elektromagnit tormozlash usuli bilan burg'ulash mexanizmlari elektr yuritmalarini tormozlash qanday afzalliklarga ega?

### NEFT OLISH QUDUQLARI NASOS QURILMALARINING ELEKTR JIHOZLARI

O'zbekiston hududida neftning ko'pgina qismi nasos va kompressorlarning faoliyati asosida ishlaydigan mexanizmlar bilan jihozlangan quduqlardan olinadi. Bunday quduqlarda shtangali plunjерli nasoslar bilan birga shtangasiz markazdan qochma elektr nasoslar ham ishlatiladi.

#### 5.1. Shtangali chuqurlik nasos qurilmalari


Chuqurlik nasos qurilmalarida (5.1- rasm) plunjерli chuqurlik nasosi (1) nasos quvurlari yig'ilmasi (3) ga osiltirib qo'yiladi. Quvurlar to'plami yordamida shtanga (4) nasos plunjeringa qaytuvchi-ilgarilanma harakatni uzatadi. Tebranma dastgohdan energiya muvozanatlovchi (7) dan o'tgan egiluvchan kabel vositasida uzatiladi. Tebranma dastgohdagi elektromotor (12) va reduktor (10) aylanma harakatni muvozanatlovchining qaytuvchi-ilgarilanma harakatiga o'zgartiradi.

Nasosning o'zi (5.1- b rasm) ichiga joylashtirilgan plunjер (2) va silindr (1) dan tashkil topgan. Plunjер yuqoriga harakatlanganida plunjerning yuqori klapani (5) yopiq holatda bo'lganida, pastki (qabul qiluvchi) klapani (4) ochiladi. Quduqdan suyuqlik nasosning silindriga so'rildi.

Plunjер pastga qarab harakatlanganida pastki klapan (4) yopiladi, ochilgan klapan (5) orqali neft nasos quvurlari joylashgan oralijqa siqiladi. Nasos yuqori musta (3) yordamida quduq tubidan chiqayotgan nasos quvurlariga mahkamlanadi.

Shtanga to'plamlarining pastki qismi nasosning plunjeri (2) bilan birikkan. Ular quduqning tubidan chiqishida shtok (5) orqali tebranma dastgohning muvozanatlovchisining kallagi (6) bilan birlashtirilgan. Muvozanatlovchi (7) shatun (8) yordamida krivoship (9) bilan bog'langan, vali esa reduktor (10) va tasmali uzatma (11) elektromotor (12) bilan bog'langan.

Tebranma dastgohning harakatlanuvchi tizimidagi, shuningdek, shtangalar to'plamining pastga hamda yuqoriga harakatlanganida yuzaga keladigan motordagi yuklanishlarni muvozanatlash uchun muvozanatlovchi yuk (13) va krivoshipli (14) posangilar qo'llanilgan. Muvozanatlovchining tebranishlar soni tasmali uzatma (11) ning diametrlarini o'zgartirish natijasida o'zgartiriladi. Tebranma dastgohlarning turlariga qarab bu tebranishlar bir minutda 4,7 ta dan 15 ta gacha bo'lishi mumkin.



*5.1- rasm. Chuqurlik nasosining asosiy elementlari:*

*a — qurilmaning umumiy sxemasi; b — plunjерli chuqurlik nasosi qurilmasining sxemasi.*

Hozirda tebranma dastgohlarning SK2 – 0,6 – 250 dan SK20 – 4,5 – 12500 gacha bo‘lgan qariyb 13 turi neft olishda ishlataladi.

Agar tebranma dastgohlar muvozanatlovchi moslamalar bilan jihozlanmasa, u holda plunjerning tepaga va pastga harakatlanishida motoring yuklanishi turlicha bo‘lib, uning energetik ko‘rsatkichlari pasayadi.

## 5.2. Tebranma dastgohlarning elektromotorlari

Hozirda qo’llanayotgan tebranma dastgohlarda asosan AOP2 rusumdagagi rotori qisqa tutashtirilgan asinxron motorlar qo’llanilgan, shuningdek, A va AO rusumdagagi motorlar keyingi yillarda o’ringa-o’rin ishlab chiqarilayotgan yangi rusumdagagi, masalan, 4A rusumdagilar bilan almashtirilmoqda.

5.1-jadvalda tebranma dastgohlarda qo’llaniladigan quvvati 4—55 kVt va kuchlanishi 380 V bo‘lgan AOP2 rusumdagagi motorlarning asosiy texnik ko‘rsatkichlari keltirilgan.

Ko'rsat-kichlar	Motoring markasi									
	AOP2—41—4	AOP2—42—4	AOP2—51—4	AOP2—52—4	AOP2—61—4	AOP2—62—4	AOP2—71—4	AOP2—72—4	AOP2—81—4	AOP2—82—4
Nominal quvvati, kVt	4,0	5,5	7,5	10	13	17	22	30	46	55
Tezligi, ayl/min	1440	1450	1560	1465	1440	1440	1440	1450	1470	1470
FIK, %	85	87	88	88	88	88	89,5	90	91	92
cos φ	0,81	0,82	0,83	0,83	0,84	0,84	0,85	0,85	0,89	0,89
M <sub>it</sub> /M <sub>n</sub>	1,8	1,8	1,8	1,8	1,8	1,8	1,8	1,8	1,8	1,8
M <sub>max</sub> /M <sub>n</sub>	2,2	2,2	2,2	2,2	2,2	2,2	2,2	2,2	2,2	2,2
I <sub>it</sub> /I <sub>n</sub>	7	7	7,5	7,5	7,5	7,5	7,5	7,5	7,5	7,5
Og'irligi, kg	55,5	66,5	93	107	134	152	208	235	335	415

Shuningdek, tebranma dastgohlarning elektr yuritmalarida sinxron motorlar ham qo'llaniladi. Bu sinxron motorlarning quvvati 1,5 dan 20 kVt gacha bo'lib, nominal kuchlanishi 380 V va aylanish tezligi 1500 ayl/min dir. Shu rusumdagagi sinxron motorlar ham ishlab chiqarilmoqda.


5.2- jadvalda tebranma dastgohlarda qo'llaniladigan quvvati 1,5—20 kVt SDB rusumdagagi sinxron motorlarning foydali ish koefitsiyentlari keltirilgan.

5.2- jadval

Motoring rusumi	Nominal quvvati, kVt	FIK, %
SDB—31—411	1,5	78
SDB—41—411	3,0	87
SDB—51—411	5,5	88
SDB—71—411	11,0	89
SDB—81—411	20,0	91

Bu motorlarda ishga tushirish momenti (1,2—1,8) M<sub>n</sub> ishga tushirish toki (3,5—5) I<sub>n</sub>, kirish momenti (0,25—0,35)M<sub>n</sub> maksimal momenti nominal moment M<sub>n</sub> dan 1,7 marta katta yoki tengdir.

Momenti qiymati nisbatan kichik bo'lishiga qaramay sinxron motor yuklanishning eng kichik qiymatida sinxronizmga ishonchli tortiladi.



5.2- rasm. Tebranma dastgohning kontaktsiz sinxron motori:

a— konstruktiv tuzilishi; 1— stator; 2— qo'zg'atish chulg'ami; 3— rotor;  
b— rotor; d— stator va qo'zg'atish chulg'amalarini ularash sxemasi.

SDB rusumdag'i kontaktsiz sinxron motorlar (5.2- rasm) tashqi magnit o'tkazgichiga va podshipnik to'siqlarida joylashgan qo'zg'atish chulg'amiga ega. Motorlarning rotori ishga tushirish qisqa tutashtirilgan chulg'amga, to'g'ri burchak ko'rinishdagi qutblarning uchlariga hamda tormozlovchi qisqa tutashtiruvchi halqachalarga (5.2- b rasm) ega.

Qo'zg'atish chulg'ami o'zgaruvchan tok tarmog'idan yarim o'tkazgichli to'g'rilaqich orqali o'zgarmas tok bilan ta'minlanadi. Bu chulg'amni qo'zg'atish kuchlanishini avtomatik rostlash tizimi orqali o'zgarmas tok bilan ta'minlovchi hamda elektromotorni ishga tushirish sxemalari ham mavjud. Yuklanish nominal qiymatiga teng bo'lganida bu motorlarning quvvat koeffitsiyenti  $\cos\phi=1$  ga teng rejimda ishlaydi, yuklanish nominal qiymatidan kam bo'lganida esa reaktiv quvvat ishlab chiqaradi va tarmoqqa uzatadi, ya'ni tarmoqning quvvat koeffitsiyentini oshirishga xizmat qiladi.


Hozirga kelib tebranma dastgohlarda asosan tezligi rostlanmaydigan asinxron va sinxron motorli elektr yuritmalari qo'llanilib kelinmoqda. Tebranma dastgohlarning ish rejimidan kelib chiqqan holda ularning elektr yuritmalari tezligi boshqariladigan bo'lishi maqsadga muvofiqdir. Ayniqsa tezligi chastotani o'zgartirib boshqariladigan avtomatlashtirilgan asinxron elektr yuritmalarni qo'llash sezilarli dara jada iqtisodiy samara beradi.

### 5.3. Tebranma dastgohlarni elektr energiya bilan ta'minlash va ishga tushirish sxemalari

Elektr energiyaning to'satdan uzilib qolishi natijasida chuqurlik nasos qurilmalarining to'xtashi neft qazib chiqarishning pasayishigagina ta'sir qiladi va bundan keyingi bu nasoslarning ishlatalish ko'rsatkichlariga ta'sir qilmaydi. Bunday nasos qurilmalari elektr energiya bilan ta'minlanishi bo'yicha 2- kategoriyaga kiradi.

Murakkab sharoitlarda neft qazib olayotgan chuqurlik nasos qurilmalarining to'satdan elektr energiya uzatilishining uzilishi natijasida to'xtab qolishi va yana tarmoqqa ularishi ma'lum qiyinchiliklarga olib kelishi (masalan, qumli tizqlarning yuzaga kelishi)ni hisobga olgan holda ular elektr energiya bilan ta'minlash bo'yicha 1- kategoriyaga kiritiladi.

Chuqurlik nasos qurilmalari, quduqlarda o'rnatilgan 6 kV kuchlanishni 0,4 kV kuchlanishga o'zgartiruvchi transformatorli nim stansiyalardan 0,38 V kuchlanishli o'zgaruvchan tok bilan ta'minlanadi (5.3- rasm). Hozirgi paytda tebranma dastgohlarni elektr energiya bilan ta'minlashda KTPSK rusumli quvvati 25 dan 250 kVA gacha bo'lган,



5.3- rasm. Chuqurlik nasoslarini 6 kV kuchlanishli kuchlanish taqsimlagichli elektr ta'minoti sxemasi.

atrof-muhit harorati  $-40^{\circ}\text{C}$  dan  $+40^{\circ}\text{C}$  gacha sharoitda ishlashga mo'ljallangan alohida nim stansiyalar ishlab chiqarilgan.

Bu maxsus nim stansiyalarning yakka quduqlar va bir necha quduqlarning tebranma dastgohlarini elektr energiya bilan ta'minlovchi turlari ishlab chiqarilgan.

Tebranma dastgohlari asinxron motorlarining quvvati (4—55 kVt) va kuchlanishi (380 V) ga qarab ularni ishga tushirish va himoyalash sxemalari nisbatan murakkab bo'limgan apparatlarda amalga oshiriladi.


Asinxron motorlarni individual yoki guruhiy ishga tushirilishiga qarab ularni ishga tushirilish shartlari tanlanadi. Individual ishga tushirilish usulida tarmoqda kuchlanishning to'liq uzilishi yoki kuchlanish qiymatining juda pasayib ketishi natijasida asinxron motor elektr tarmog'idan avtomatik ravishda uziladi va kuchlanish tarmoqda nominal qiymatiga qayta tiklanganida motor yana avtomatik ravishda o'rnatilgan vaqt o'tganidan so'ng tarmoqqa ulanadi. Bu holda bir manbadan ta'minlanayotgan boshqa mexanizmlar motorlarining ishga tushirilishi o'rnatilgan qat'iy vaqt oralig'ida ishga tushiriladi. Bu bir vaqtda bir nechta motorning ishga tushirish toklarining yig'indisi ta'sirini yo'qotishga, o'z navbatida, motorlarga berilayotgan kuchlanish pasayishi qiymatining ruxsat etilgan qiymatda bo'lishiga olib keladi.

Odatda individual ishga tushiriladigan motorlar bitta 6/0,38 kV li nim stansiyadan yoki 6 kV kuchlanishli tarmoqdan ta'minlanadi. Tarmoqdan ta'minlanadigan motorlarning ishga tushirilishi guruhi-guruhi holda amalga oshiriladi: birinchi guruhi hech qanday kutish vaqtisiz, ya'ni tarmoqda nominal kuchlanish tiklangan zahoti ishga tushiriladi, ikkinchi guruhi ma'lum kutish vaqtidan so'ng ishga tushiriladi, uchinchini guruhning ishga tushirishdagi kutish vaqtin ikkinchi guruhnikidan katta bo'ladi va h.k.

Guruhiy ishga tushirishda tarmoqda kuchlanishning yo'qolishi yoki qiymatining keskin kamayishi natijasida tebranma dastgohning ba'zi motorlari tarmoqdan alohida uzilmaydi. Nim stansianing ta'minlovchi magistrali o'chiriladi. Elektr tarmog'ida nominal kuchlanish qiymati tiklanganidan so'ng ma'lum kutish vaqtidan keyin magistral ulanadi. Magistral ulanganidan keyin guruhi tarkibidagi barcha motorlar ishga tushiriladi.

Elektromotorlarni guruhiy ishga tushirishda avtomatik uzgich, uch qutbli kontaktor va issiqlik relelaridan iborat ishga tushirish va himoyalash qurilmasidan foydalilaniladi (5.4- rasm).

Bu sxemadagi avtomatik uzgich A motorni tarmoqqa ularsga hozirlash bilan bir qatorda motordagi qisqa tutashuv toklaridan ham himoyalaydi, issiqlik relesi IR1 va IR2 lar motor stator chulg'amidiagi o'ta yuklanish toklaridan himoyalaydi. Liniya kontaktori motorni tarmoqqa




5.4- rasm. Tebranma dastgoh motorlarini guruhiy ishgaga tushirish sxemasi.

ulash uchun xizmat qiladi. Motorni tezkor o'chirish kalit k ni uzish bilan amalga oshiriladi.

Tebranma dastgohlarning elektr yuritmalarini boshqarishda BGSH rusumidagi boshqarish bloklaridan foydalaniлади. Bu bloklar yordamida nominal toki 15, 20, 40 va 100 A bo'lgan elektr yuritmalarini boshqarish mumkin.

#### 5.4. Shtangasiz chuqurlik nasos qurilmalari

Shtangasiz chuqurlik markazdan qochma nasoslar nasos bilan birga quduq ichiga joylashtirilgan elektromotorlar bilan harakatga keltiriladi. Shu sababli plunjерli nasosli, chuqurlik nasosli qurilmalarning asosiy elementi bo'lgan motor bilan nasos oraliq'idagi mexanik bog'lama (shtanga) bu nasosli qurilmada bo'lmaydi. Bu esa chuqurlik nasoslarining quvvatini oshirish maqsadida, quduqdan katta ko'lamma suyuqlikni olish uchun qulay bo'lgan markazdan qochma nasoslarni qo'llash imkonini beradi. Quduqlarni ishlatishda shtangasiz nasoslarni qo'llash shtangali nasoslarni qo'llashga nisbatan 1,5—3 marta yuqori samara beradi.



*5.5-rasm. Shtangasiz nasos qurilmasining  
asosiy elementlari.*

Chuqurlik markazdan qochma nasosli shtangasiz nasos qurilmasi (5.5-rasm) quyidagi asosiy elementlardan tashkil topgan bo'ladi: quduq ichida nasos quvurlariga osib qo'yilgan suvdan himoyalagich (protektor) (2) bilan jihozlangan maxsus elektromotor (3) kirish qismida to'r filtri bo'lgan chuqurlik markazdan qochma nasosi (1) ning vali bilan birikkan; baraban (4) ga o'ralgan maxsus ta'minlovchi kabel (5) maxsus

kabel mahkamlagichlar vositasida quduq ichidagi nasos quvurlariga mahkamlanadi; transformator yoki avtotransformator (7) va boshqarish stansiyasi (8).

Nasosdan yuqoridagi quvurlar to‘plamida teskari klapan (6) o‘rnatalgan. Bu klapan nasos to‘xtab turganida suyuqlikning tashqariga chiqib ketishini oldini oladi va nasosni qayta ishga tushirishni osonlashtiradi. Bu klapandan yuqorida suyuqlikni chiqaruvchi klapan (9) o‘rnatalgan va u agregatni ko‘tarish davomida suyuqlikning oqishini ta‘minlaydi. Chuqurlik nasosi ko‘p sonli pog‘onalarga ega va har bir pog‘ona ishchig‘ildirak va yo‘naltiruvchi apparatdan iborat. Bu pog‘onalarning yo‘naltiruvchi apparatlari valda yig‘ilgan bo‘lib, po‘lat quvurlar nasos korpusiga mahkamlangandir. Nasosning tag qismi protektor va motordan maxsus salnik yordamida ajratilgan.

## 5.5. Chuqurlik motorlari, ularni suvdan himoyalash

Markazdan qochma nasoslarning elektr yuritmalari uchun alohida PED rusumidagi chuqurlik elektromotorlari ishlab chiqarilgan va ular quyidagi talablarga javob beradi:

- motorning diametri quduq devori ichini o‘rab turadigan normal kolonnalarning diametridan birmuncha kichik bo‘lishi kerak (uning qiymati, odatda, 103, 123 va 170 mm larni tashkil etadi), ko‘paytirish o‘rnatalgan quvvatiga ko‘ra uzunligi 7—8 m gacha boradi;

- agregatning o‘lchamlarini kamaytirish va shu bilan birga suyuqlik uzatishni ko‘paytirish uchun qo‘llaniladigan motor tezligining yuqori bo‘lishi maqsadga muvofiqdir, PED rusumidagi motorlarning sinxron tezligi 3000 ayl/min deb belgilangan;

- motor ichiga qatlam suvlarining kirishidan muhofaza qilish maqsadida quduq ichidagi gidrostatik bosimdan 0,2 MPa gacha yuqori bo‘lgan bosim kuchigacha ega bo‘lgan moy bilan to‘ldirilgan bo‘ladi;

- quduq ichidagi muhit haroratining yuqori bo‘lishini hisobga olgan holda motor chulg‘amida qo‘llanilgan izolatsiya materiali moyga va issiqlikka chidamli bo‘lishi va muhit harorati 70°C gacha isiganida ham motorning normal ishlashini ta‘minlashi lozim.

Chuqurlik markazdan qochma nasoslarida qo‘llaniladigan ba’zi chuqurlik motorlarining asosiy texnik ko‘rsatkichlari 5.3- jadvalda keltirilgan.

5.3- jadvalda keltirilgan atrof-muhit haroratidan farqli bo‘lgan qiymatida elektromotorlarni uzoq muddatli uzlusiz ish rejimida  $R_n$  quvvatidan farqli quvvatgacha yuklanish bilan ishlatish mumkin.

Ko'rsatkichlar	Motorning markasi						
	PED10—103	PED20—103	PED28—103	PED40—103	PED45—117	PED65—117	PED17—123
Nominal quvvati, $R_n$ , kVt	10	20	28	40	45	65	17
Tezligi, ayl/min	2820	2800	2790	2745	2820	2850	2880
Kuchlanish, V	350	700	850	1000	1400	2000	400
FIK, %	70	74,5	73	72	81	80,5	76
$\cos \varphi$	0,7	0,76	0,73	0,78	0,85	0,84	0,79
$M_w/M_n$	2,8	2,5	2,5	2,8	2,0	2,0	2,6
Atrof-muhit harorati $\Theta_0$ , °C	70	70	70	55	50	50	80

jadvalning davomi

Ko'rsatkichlar	Motorning markasi						
	PED353—123	PED46—123	PED55—123	PED75—123	PED100—123	PED125—138	PED175—138
Nominal quvvati, $R_n$ , kVt	35	46	55	75	100	125	125
Tezligi, ayl/min	2850	2830	2830	2805	2775	2820	2820
Kuchlanish, V	550	700	800	915	950	2000	2000
FIK, %	77	77	78,5	78,5	79	84	84
$\cos \varphi$	0,83	0,84	0,81	0,82	0,83	0,83	0,83
$M_w/M_n$	2,0	2,0	2,2	2,1	2,2	2,0	2,0
Atrof-muhit harorati $\Theta_0$ , °C	70	70	70	55	60	50	50

Masalan, PED 55 — 123 markali asinxron motorning atrof-muhit harorati  $\Theta_0 = 70^{\circ}\text{C}$  bo'lganida uni  $R_n = 55$  kVt yuklanish bilan yuklatish, agar  $\Theta_0 \leq 60^{\circ}\text{C}$  bo'lsa, u holda motorni 61 kVt gacha, shuningdek,  $70^{\circ}\text{C} < \Theta_0 < 90^{\circ}\text{C}$  bo'lganida esa 46 kVt gacha yuklatish mumkin.

## 5.6. Chuqurlik motorlarini elektr energiya bilan ta'minlash qurilmalari va sxemalari

Chuqurlik elektromotorlariga elektr energiya alohida, moy va neftga chidamli rezinali yoki polietilen izolatsiyali uch fazali kabellar yordamida uzatiladi. Bu kabellar nasos quvurlariga metall kamarlar vositasida mahkamlanadi. Yuqoridagi uchi barabanga o'raladi. Baraban kabelni transportirovka qilish va uni quduq ichiga tushirish hamda ko'tarish uchun xizmat qiladi.

Kabel liniyalarini tortishda rezina izolatsiyali KRPB markali va polietilen izolatsiyali KPBP markali kabellardan foydalaniladi.

Rezina izolatsiyali kabellar uchun nominal kuchlanishi 1100 V, ishlash sharoitidagi atrof-muhitning harorati +9°C bilan —30°C bo'lishi ta'lab etiladi.

Polietilen izolatsiyali kabellar uchun nominal kuchlanishi 2300 V, ishlash sharoitidagi atrof-muhitning harorati + 90°C bilan — 55°C bo'lishi va bosim kuchi 20 MPa dan kam bo'lmasligi ta'lab etiladi. Bu kabellar gazlar ta'siriga o'ta bardoshli.

5.4- jadval

Ko'rsatkichlar	Transformator turlari					
	TMP-40/463	TMP-63/611	TMP-63/856	TMP-100/736	TMP-100/844	PED-100/1170
Nominal quvvati, kVA	40	63	63	100	100	100
Birlamchi chulg'amning nominal kuchlanishi, V	380	380	380	380	380	380
Ikkilamchi chulg'amning salt yurish kuchlanishi, V	370—495	591—675	657—1023	475—736	633—958	920—1170
Rostlanish pog'onasi, V	31	32	41	27—32	35—38	63
Salt yurish quvvat isrofi, kVt	0,49	0,26	0,265	0,365	0,365	0,365
Qisqa tutashuv quvvat isrofi, kVt	0,88	1,28	1,28	1,97	1,97	1,97
Qisqa tutashuv kuchlanishi, V	5,5	5,5	5,5	5,5	5,5	5,5
Salt yurish toki, %	3,0	2,8	2,8	2,6	2,6	2,6

Ko'rsatkichlar	Transformator turlari				
	TMP-100/1610	TMP-160/1007	TMP-200/6	TMPN - 400	TMPN - 400
Nominal quvvati, kVA	100	160	200	320	400
Birlamchi chulg'amning nominal kuchlanishi, V	380	380	6000	6000	6000
Ikkilamchi chulg'amning salt yurish kuchlanishi, V	1270	756— —1610	1000— —1136	1898— —2200	1872— —2355
Rostlanish pog'onasi, V	85	46	75	44—103	53—89
Salt yurish quvvat isrofi, kVt	0,36	0,54	0,78	1,08	1,08
Qisqa tutashuv quvvat isrofi, kVt	1,97	2,65	3,6	3,9	5,5
Qisqa tutashuv kuchlanishi, V	5,5	5,5	5,5	4,0	5,0
Salt yurish toki, %	2,6	2,4	2,3	2,2	2,1


Hozirgi paytda chuqurlik elektromotorlarini elektr energiya bilan ta'minlashda quvvati 40 dan 100 kVA gacha bo'lgan moyli transformatorlarning TMP va TMPN turlari ishlataladi (5.4- jadval).

Markazdan qochma elektronasoslar quyidagi sxemalar bo'yicha elektr energiya bilan ta'minlanadi:

1) 6 kV kuchlanishli liniyadan oraliq kuch transformatori yordamida 0,4 kV kuchlanishga pasaytirilib, markazdan qochma elektronasoslarining transformator yoki avtotransformatorlariga uzatiladi. Hozirda bu usul bilan markazdan qochma nasoslarni elektr energiya bilan ta'minlash eng ko'p tarqalgan usul;

2) 6 kV kuchlanishli liniya har bir quduq uchun alohida tortib kelinadi va ishchi mexanizm elektr yuritmalariga zarur bo'lgan kuchlanishga pasaytiruvchi quduq kuch transformatorlariga ulanadi. Bu holda har bir quduq transformatoridan tashqari boshqarish va signalizatsiya zanjirlarini, yoritish tarmoqlarini hamda boshqa yordamchi qurilmalarni elektr energiya bilan ta'minlash uchun qo'shimcha 6/0,4 kV li transformator bo'lishi talab etiladi.

Yakka quduqlarning hamda bir nechta quduqlarning markazdan qochma nasoslarni elektr energiya bilan ta'minlashda alohida nim stansiyalar ham ishlataladi. 5.6- rasmida shunday nim stansiyalarning elektr sxemasi keltirilgan.



5.6- rasm. Ni'm stansiyaning bir chiziqli elektr sxemasi.

Chuqurlik markazdan qochma nasoslarini boshqarish va himoyalash kompleks apparatlar bilan jihozlangan boshqarish stansiyalarida amalga oshiriladi.

O'zbekistonda neft qazib chiqaruvchi quduqlarda markazdan qochma elektr nasoslarni ishlatishda PXG-5071 va PXG-5072 rusumdag'i boshqarish stansiyalari ishlatiladi.

PXG-5071 rusumli boshqarish stansiyalari boshqa turdag'i stansiyalarda avtotransformator bo'lishi bilan farqlanadi. Bu stansiya himoyalash, kabel yoki transformator zanjirida qisqa tutashuv toki va o'ta yuklanish toki yuzaga kelganda oniy o'chirish qurilmalari bilan jihozlangan. PXG-5072 rusumli boshqarish stansiyalari tizimida avtotransformator o'rniiga transformator bo'ladi. Tok himoyasi yerga ulanish o'rniiga elektromotor, kabel va transformatorning ikkilamchi chulg'ami izolatsiyalarini uzluksiz nazorat qiluvchi qurilma bilan almashtirilgan.

PXG—5071 va PXG—5072 rusumli boshqarish stansiyalari o'zaro o'xshash bo'lib, faqt qayd qilingan himoyalash elementlari bilangina farqlanadi.

### **Nazorat uchun savollar**

1. Shtangali chiqurlik nasosli neft qazib chiqaruvchi qurilmalar qanday asosiy va yordamchi mexanizmlardan iborat?
2. Markazdan qochma nasoslar qanday fizik asosda ishlaydi?
3. Shtangali chiqurlik nasos qurilmalari mexanizmlarining elektr jihozlari qanday funksiyalarni bajaradi?
4. Tebranma dastgoh mexanizmlari qanday turdag'i elektr jihozlar bilan jihozlangan?
5. Tebranma dastgoh mexanizmlarini harakatga keltirishda qanday turdag'i elektromotorlar qo'llaniladi?
6. Tebranma dastgoh mexanizmlari elektromotorlari qanday usulda ishga tushiriladi?
7. Neft qazib chiqaruvchi shtangasiz chiqurlik nasos qurilmalarining asosiy va yordamchi mexanizmlari qanday vazifalarni bajaradi?
8. Chuqurlik elektromotorlari normal umumsanoat elektromotorlaridan konstruktiv jihatdan qanday farqlanadi?
9. Chuqurlik elektromotorlari qanday sxemalar bo'yicha elektr energiya bilan ta'minlanadi?
10. Chuqurlik elektromotorlarini boshqarishda qanday turdag'i boshqarish stansiyalari qo'llaniladi?

### NEFT VA GAZ KONLARINI YORITISH

#### 6.1. Yoritishning ahamiyati

Neft va gaz qazib olinayotgan quduqlar va ular atrofidagi ish joylarining yaxshi yoritilganligi mehnat unumdorligini oshirish uchun ko‘riladigan asosiy omillardan biridir. To‘g‘ri tanlangan sun‘iy yoritish vositalarining qo‘llanilishi talab qilinayotgan texnologik jarayonlarni o‘z vaqtida bajarishga, mehnat unumdorligini oshirishga, ish vaqtida sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan lat yeishlarning oldini olishga va ishchi mexanizm hamda mashinalar ishdan chiqishining kamayishiga olib keladi.

Neft va gaz qazib olinayotgan quduqlar va ular atroflarini sun‘iy yoritishda **cho‘g‘lanma** va **gazorazradli** statsionar hamda ko‘chma yoritgichlardan foydalaniлади. Statsionar yoritish qurilmalarining kuchlanishi 380 V dan oshmasligi kerak.

Neft va gaz qazib olishdagi ish joylarini yoritish tizimlarini hisoblashda yoritilganlik darajasining me’oriy ko‘rsatkichlarga mosligi Davlat standartlarining tarmoq ko‘rsatkichlari bilan nazorat qilinadi.

#### 6.2. Yorug‘likning asosiy fizik kattaliklari

Yorug‘likning asosiy fizik kattaliklari: **yorug‘lik oqimi**, **yorug‘lik kuchi**, **yoritilganlik**, **nurlanganlik** va **yorginlik** hisoblanadi.

**Yorug‘lik oqimi** F — nur energiyasining quvvatini inson ko‘zi orqali yorug‘likni sezishi bo‘yicha baholanadigan fizik kattalik. O‘lchov birligi lyumen ( $\text{Im}$ ) bo‘lib, bir  $\text{Im}$   $0,5305 \text{ mm}^2$  yuzaga ega absolut qora jismning — platinaning qotish harorati  $T=2046 \text{ K}$  qiymatiga teng haroratda chiqarayotgan yorug‘lik oqimiga tengdir.

**Yorug‘lik kuchi** I — yorug‘lik oqimining fazodagi zichligi yoki burchak zichligi. Yorug‘lik kuchining o‘lchov birligi — kandela (kd). 1 kd sath yuzasi  $1/600000 \text{ m}^2$  bosimi  $101325 \text{ Pa}$  va harorati platinaning qotish haroratiga teng bo‘lgan to‘liq nurlanuvchi jism chiqarayotgan yorug‘likning yo‘nalishiga perpendikular bo‘lgan ushbu yuzaga to‘g‘ri keladigan yorug‘lik oqimidir. Yoritish burchagiga bog‘liq ravishda yorug‘lik kuchi turli qiymatlarga ega bo‘ladi.

**Yoritilganlik E** — tushayotgan yorug'lik oqimining yoritilayotgan yuzadagi zichligidir. Yoritilganlikning o'lchov birligi — 1 yüks (lk). 1 lk yoritilganlik — 1 m<sup>2</sup> yuzaga 1 lm ga teng yorug'lik oqimining bir tekis tushishidir.

**Nurlanganlik M** — nurlanayotgan yorug'lik oqimining yoritilayotgan yuzadagi zichligi. O'lchov birligi — lm/m<sup>2</sup>.

**Yorqinlik V** — nurlanuvchi yuza chiqarayotgan yorug'lik kuchining shu yuzaga nisbati. Yorqinlikning o'lchov birligi kd/m<sup>2</sup>. Inson ko'zi uchun normal hisoblanadigan yorqinlik taxminan 10 kd/m deb qabul qilingan.

### 6.3. Yorug'likning elektr manbalari va ularning xususiyatlari

Yorug'likning elektr manbalari yorug'likni vujudga keltirish xususiyati bo'yicha **haroratli** va **lyuminessent** turlarga bo'linadi. Birinchi turga cho'g'lanma lampalar kirsa, ikkinchi turga gazorazradli lampalar kiradi.

Lampalarning nominal quvvati, kuchlanishi, yorug'lik oqimi, yonib turishining o'rtacha davomiyligi va 1 Vt quvvatga to'g'ri keluvchi yorug'likni uzatish (lm/Vt) kabi asosiy ko'rsatkichlari Davlat standartlariga muvofiqlangan bo'ladi.

**Cho'g'lanma lampa** konstruksiyasi bo'yicha kavsharlangan tashqi metall sokolli shisha kolbadir. Kolba ichiga cho'g'lanma element sifatida spiral ko'rinishdagi ingichka volfram sim o'rnatilgan. Cho'g'lanma element ikki spiralli — bispiral ko'rinishda ham bo'lishi mumkin, u holda issiqlik isroflari kamayadi va issiqlik uzatish oshadi. 60 Vt gacha quvvatli lampalar vakuumli lampalar bo'lib (NV rusumi), quvvati 60 Vt dan to 1000 Vt gacha bo'lgan lampalarning kolbalari 12—16% azot qo'shilgan argon gazi bilan to'ldirilgan bo'ladi (NB va NG rusumli).

Cho'g'lanma lampalarning ishlashi qattiq jismlardan tok o'tganida jismarning qattiq qizib yorqin nurlar chiqarishiga asoslangan. Lampalarning quvvatiga qarab ularning yorug'lik uzatish ko'rsatkichi 6—20 lm/Vt ni tashkil etadi.

Istiqlolli cho'g'lanma lampalar — bu kolbasi kvarsdan yasalgan galogen lampalardir. Bu lampalarda bug'langan volfram zarrachalari kolbaning 'ichki devorlariga urilib qaytadi va yana spiral (yoki bispiral)ga o'tiradi. Shu sababli bu lampalarning uzlusiz yonib turishi 2000 soatni, yorug'lik uzatish ko'rsatkichi 21—29 lm/Vt ni tashkil etadi.

Lampaning turi	Kuchlanishi, V	Quvvati, Vt	Yorug'lik oqimi, lm	Lampaning diametri, mm	Lampaning to'liq uzunligi, mm
Normal cho'g'lanma:					
V	127	15	135	61	107
B	127	40	490	61	114
G	127	150	2300	81	175
G	127	1000	19500	152	245
V	220	25	220	61	107
B	220	100	1350	66	129
B	220	250	2920	81	175
G	220	500	8300	152	240
Kriptonli:					
BK	127	40	520	46	90
BK	220	100	1450	61	105
Diffuzion qatlamlili	127	640	640	71	101
NGD rusumli:	127	200	2860	93	157
Yorug'ligi jamlanib tarqaladigan ko'zguli ZN5-ZN8 rusumli:	220	300	360	180	267

6.1- jadvalda turli sanoat korxonalarini yoritishda keng qo'llaniladigan ba'zi cho'g'lanma lampalarning texnik ko'rsatkichlari keltirilgan.

**Gazorazryadli lampalar** energiya tejamlovchi yorug'lik manbalaridan bo'lib, ularning ishlashi gaz va metall bug'larining elektr toki ta'sirida yorug'lik nurlarini chiqarishiga asoslangan. Yorug'lik uzatishni oshirish maqsadida lampa shishasining ichki qismiga turli kislota va tuzlardan iborat maxsus tarkibli modda — luminiforlar surtilgan bo'ladi. Luminiforlar nurlanayotgan ko'zga ko'rinnmas ultrabinafsha nurlarni ko'zga ko'rinnuvchi nurlarga o'zgartirish xususiyatiga ega. Murakkab tarkibli luminiforlarni qo'llash natijasida gazorazradli lampalarni turli rangdagi yoritish vositalariga aylantirish mumkin.

**Luminessent lampalar** past bosimli va yuqori bosimli simobli hamda ksenonli guruhlarga bo'linadi. Luminessent lampalar chiqarayotgan yorug'likning rangiga qarab besh turga bo'linadi: oq (LB), sovuq—oq (LXB), issiq—oq (LTB), kunduzgi (LD) va aynan kunduzgi (LDS). Barcha turdag'i luminessent lampalarning uzlusiz yonib ishlash muddati 10000 soatdan ortiq. Yorug'lik uzatish ko'rsatkichi lampalarning turiga qarab 40—75 lm/Vt ni tashkil etadi. Quvvati 15 Vt dan 80 Vt gacha bo'lган luminessent lampalarni ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan. Quvvatiga qarab bu lampalarning yorqinlik ko'rsatkichi 5—10 kkd/m<sup>2</sup> bo'lishi mumkin.

6.2- jadvalda turli sanoat korxonalarining ishlab chiqarish va ma'muriy binolarini yoritishda foydalilanidigan luminessent lampalarning ba'zi namunalarining texnik ko'rsatkichlari berilgan.

6.2- jadval

Quvvati, Vt	Kuchlanishi, V	Toki, A	Lampa uzunligi, mm	Lampa diametri, mm	Yorug'lik oqimining nominal qiymati, lm				
					LDS	LD	LXB	LTB	LB
15	54	0,33	437,4	27	500	590	675	700	760
20	57	0,37	589,8	40	820	920	935	975	1180
30	104	0,36	894,6	27	1450	1040	1720	1720	2100
40	103	0,43	1199,4	40	2100	2340	2600	2580	3000
65	110	0,67	1500,0	40	3050	3570	3820	3980	4550
80	102	0,865	1500,0	40	3560	4070	4440	4440	5220

Umuman olganda, luminessent lampalar quvvati va kuchlanishi qiymatiga qarab, ichi argon va simob bug'i bilan to'ldirilgan, uzunligi va diametri har xil bo'lgan shisha trubkalar ko'rinishida ishlab chiqariladi. Trubkalarning har ikkala tomoniga tarmoq kuchlanishiga ularash uchun mo'ljallangan kontaktli metall sokollar o'rnatilgan. Sokollarda ikkitadan kontaktlar bo'lib, ular trubka ichidagi volframdan yasalgan elektrod vazifasini bajaruvchi spirallarga ulangan. Elektrodlarga kuchlanish berilganida elektrödlar orasida yoy hosil bo'ladi va lampa ko'zga ko'rinvuchi yorug'lik chiqara boshlaydi. Lampaning yonishi elektrodlarga yuqori kuchlanish berilganida ularning 800—1000°C darajada qizishi natijasida yuzaga keladi. Luminessent lampalarning yonishi nakal zanjiriga neon starter ulab va nakal transformatori yoki avtotransformatorlar ulabgina yuqori kuchlanish hosil qilinib amalga oshiriladi. Har ikkala usulni qo'llaganimizda ham lampaning yonishi uchun elektrodlardan nakal tokining o'tishi va tok termoelektron emissiya bo'sag'asi sharti bo'lgan 800—1000°C haroratgacha nakalni qizdira olishi shart. Luminessent lampalarni ishga tushirish va ishlatish uchun ishga tushiruvchi-rostlovchi maxsus apparatlar qo'llaniladi. Bu apparatlardagi drossellar ishchi tokini kamaytirishga xizmat qilsa, kondensatorlar lampaning quvvat koeffitsiyentini oshirish uchun ishlatiladi.

Quyidagi 6.3- jadvalda luminessent lampalarni ishga tushiruvchi-rostlovchi apparatlarning texnik ko'rsatkichlari keltirilgan.

Ishga tushiruvchi-rostlovchi apparatning rusumi	Quvvat isrofi, Vt	Quvvat koeffitsiyenti	Og'irligi, kg
1UBI—8/127—N	2,15	0,45	0,82
1UBI—15/220—V	4,4	0,92	2,1
1UBK—20/220—V	5,8	0,9	2,54
1UBI—30/220—N	4,4	0,5	1,3
1UBK—40/220—VP	9,6	0,96	1,7
1UBI—80/220—N	14,8	0,5	2,3
2UBI—15/127—AV	7,5	0,97	2,5
2UBK—20/127—AVP	8,8	0,98	2,8
2UBK—40/220—AN	15,2	0,98	3,3
2UBK—80/220—AVP	29	0,98	5,2

Yuqori bosimli yoyli simobli lampalarining asosi qalin kvarsdan yasalgan kallak bo'lib, simob bug'i bilan to'ldirilgan ichki qismida o'z-o'zini toblovchi volframli elektrodлari joylashtirilgan. Kallak kavsharlangan bo'lib, ichi magniy va marganes tuzlari asosidagi luminifor bilan qoplangan, tashqi muhitning yuqori haroratiga chidamli shishadan yasalgan kolba ichiga joylashtiriladi. Luminiforing ishlash muddatini oshirish maqsadida kolbaning ichi maxsus karbon gazi bilan to'ldiriladi. Yoyli simobli lampalar luminessent lampalarga nisbatan deyarli 10 barobar yorqinroqdir.

Ishlab chiqarilayotgan bunday lampalarining quvvati 80 Vt dan to 1000 Vt gacha bo'lib, 220 V li tarmoqqa ularadi, ishlash muddati 8—12 ming soatni tashkil etadi va yorug'lik uzatish ko'rsatkichi 40—60 lm/Vt. Yoyli simobli lampalarining kallaklari ikki asosiy, shuningdek, ikki yordamchi elektrodli turlarda ishlab chiqariladi.

6.4- jadvalda quvvati 80 Vt dan to 1000 Vt gacha bo'lgan yoyli simobli lampalarining texnik ko'rsatkichlari keltirilgan.

Lampaning rusumi	Quvvati, Vt	Yorug'lik oqimi, lm	Lampaning diametri, mm	Lampaning uzunligi, mm
DRL—80	80	2000	77	157
DRL—125	125	4000	77	177
DRL—250—2	250	10000	92	230
DRL—400	400	18000	120	285
DRL—700	700	33000	140	310
DRL—1000—2	1000	50000	165	365

**Metallogaloid lampalar** zamonaviy lampalar turiga kiradi, simob razradiga turli qo'shimchalarining, masalan, natriy, taliy va indiy larning iodidlarining qo'shilishi natijasida lampaning yorug'lik uzatish ko'rsatkichi 90 lm/Vt gacha oshadi va yaxshi rangli nurlanishlarga erishiladi. Yoyli simobli iodidli lampalarning ishlash muddati 1000 soatdan to 4500 soatgacha (6.5- jadvalga qarang).

6.5- jadval

Lampaning rusumi	Quvvati, Vt	Kuchlanishi, V	Yorug'lik oqimi, klm	Ishlash muddati, soat
DRI—400	400	220	30	4500
DRI—700	700	220	56	3000
DRI—1000	1000	220	85	1000
DRI—2000	2000	380	180	1000

Katta maydonlarning sathlarini yoritishda katta quvvatli ksenonli trubkali ballastsiz lampalar qo'llanilmoqda. Bu lampalar uchlariga volframdan tayyorlangan elektrodlar kavsharlangan kvarsdan tayyorlangan trubkalardan iboratdir. Trubkaning ichida ksenonli muhitda hosil qilingan yuqori uchqun generatorida hosil qilingan yuqori kuchlanish impulsi ta'sirida elektrodlar oralig'ida razrad paydo bo'ladi. Lampadagi yoy ballast rezistorisiz turg'un yonadi. Bunday lampalar chiqarayotgan yorug'lik tabiiy yorug'likka juda yaqindir. Ishlab chiqarilayotgan yoyli ksenonli **trubkali lampalarning quvvati 2—100 kVt bo'lib, tarmoq kuchlanishi qiymati 60 V dan to 380 V gacha kuchlanishga mo'ljallangandir** (6.6- jadvalga qarang).

6.6- jadval

Lampaning rusumi	Quvvati, Vt	Kuchlanishi, V	Lampaning o'chamlari, mm			Yorug'lik oqimi, klm
			Diametri	Uzunligi	Chaqnayotgan jism uzunligi	
DKsT—5	5	110	25	642	430	88
DKsT—10	10	220	35	1260	950	220
DKsT—20	20	380	35	1990	1680	600
DKsT—50	50	380	42	2610	2100	1600

## 6.4. Yoritishni loyihalash va hisoblash

Har qanday yoritish qurilmasining vazifasi ishchi yoki xizmatchi ishlayotgan dastgoh yoki qurilma joylashgan ish joyini yetarli darajada yoritish va yorqinlikning xona devorlari hamda shipda ko'zni qamashtirmaydigan darajada taqsimlanishiga erishishdan iboratdir. Bu talablar amaldagi yoritishning me'yoriy normalari va qoidalariga asos qilib olingan.

Yoritish qurilmalarini loyihalash quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi:

- 1) yoritilayotgan joy uchun me'yoriy yoritilganlik qiymatini aniqlash;
- 2) yoritish tizimi va zaxira koeffitsiyentlarini aniqlash;
- 3) yoritkichlarning rusumi va ularni joylashtirish;
- 4) yoritish qurilmasining va tanlangan yorug'lik manbaining quvvatini hisoblash;
- 5) minimal yoritilganlikka tekshirish.

Yoritilishi kerak bo'lgan ish joyida bajariladigan ishning turiga qarab amaldagi me'yoriy normalar asosida yoritilganlik qiymati aniqlanadi.

Yoritilayotgan ish joyida qanday ish bajarilishi va muhitning qandayligi (changli, kimyoviy aktiv, issiq va h. k. ko'rsatkichlari bo'yicha) yoritish tizimi va uning zaxira koeffitsiyenti aniqlanadi.

Yoritkichlarning qanday rusumda bo'lishi ularni o'rnatish ish joyining tavsifiga qarab tanlanadi. Yorug'lik nurlarining tarqalishiga ko'ra qo'yiladigan talablar va yoritkichlar o'rnatiladigan muhitning qandayligi asosida yorug'lik nurlarining ko'zni qamashtirmasligi va yoritish qurilmalarining kamxarjligi hisobga olinadi.

Neft qazib chiqarish obyektlarini yoritishni loyihalash uchun zarur bo'lgan me'yoriy yoritilganlik darajasi ko'rsatkichlari 6.7- jadvalda keltirilgan.

6.7- jadval

Obyekt	Umumiy yoritishning minimal yoritilganligi, Lk
Neft quduqlari va tebranma dastgoh yuzasi	13
Tebranma dastgoh motorli bo'linmalar, chuqurlik elektronasoslari apparatlari joylashgan bo'linmalar	13
Kompressor va nasos stansiyalarining mashina zallari va ventilatsion xonalar	20

Quduqlarni kapital yer ostida ta'mirlash joylari: quduqlarning ichi lebedka ko'tariladigan machta yuqori ishchi belanchak qabul qiluvchi ko'rikchalar	25 15 2 15 13
Tashqi qurilmalar va xonalardagi o'lchov nazorat asboblarining shkalalari	50
Neft tashiladigan moslamalar, gaz separatorlari va b.	20
Suyuqliklarni saqlavchi sig'imlar saroyi: saroy hududidagi yo'llar, qo'riqlash obyektlari yoritilganligi sig'imlar orasidagi bo'shliq, sig'imdagи suyuqlik sathini o'lhash va zulfinlarni boshqarish joyi	0,5 2
Neftni quyish va oqizish estakadalari	5
Neftni yig'uvchi qurilmalar	5
Omborlar: katta o'lchamli predmetlardan iborat kimyoiy reagentlar joylashgan yoquvchi va moylovchi materiallardan iborat	5 20 10
Mashinalar turadigan joy	10
Mexanika ustaxonalari	50
Laboratoriylar	75

Yoritishni loyihalash amaliyotida yoritishni hisoblashning nuqtaviy, yorug'lik oqimi va solishtirma quvvat kabi uch usuli keng qo'llaniladi.

**Yoritishni hisoblashning nuqtaviy usuli.** Bu usul bilan yoritish hisoblanganda yoritilayotgan yuzadan yorug'lik oqimining yuzaga urilib qaytishi hisobga olinmaydi. Bu usul, odatda, sanoat korxonalarining ochiq joylari va hovli sathlarining yoritilishini hisoblashda keng qo'llaniladi. Bu usul bilan yoritish hisoblanganda yoritkichning yorug'lik tarqalishi tavsiflarini bilish zarurdir. Yoritilayotgan obyektdan yoritkichning qanday masofada joylashganligi, o'z o'qidan qanday burchak ostida yorug'lik chiqarayotganligini, ya'ni yorug'lik kuchini bilish talab etiladi. Yoritilishni hisoblash quyidagi tartibda amalga oshiriladi: avval yoritkich tanlanadi, yoritkich bilan yoritiluvchi ishchi yuza orasidagi masofa aniqlanadi, yoritilayotgan yuzaning ixtiyoriy nuqtasidagi yoritilganlik hisoblanadi va bu yoritilganlikning qiymati shu ishchi yuza uchun qabul qilingan me'yoriy qiymati bilan solishtiriladi. Bu qiymatlar

o'zaro solishtirilganida mos kelmasa, ishchi yuza bilan yoritkich orasidagi masofa o'zgartirilib yoki boshqa turdag'i yoritkich tanlanib, yoritishni hisoblash qaytadan yoritilganlikning to me'yoriy qiymatiga mos kelguncha davom ettiriladi.

Gorizontal yuzaning yoritilganligi quyidagi formula bilan hisoblanadi:

$$E_s = nC I_a \cos^3 \alpha / k_3 N^2, \quad (6.1)$$

bunda:  $n$  — yoritkichlarning soni;  $C$  — tanlangan yoritkich yorug'lik oqimining shartli yoritkich yorug'lik oqimiga ( $F = 1000 \text{ lm}$ ) nisbatini bildiruvchi koefitsiyent;  $I_a$  — yorug'lik tarqalishi tavsiflari bo'yicha aniqlanadigan yoritkich o'qidan  $\alpha$  burchak ostida chiqayotgan yorug'lik kuchi,  $\text{kd}$ ;  $k_3$  — yoritish qalpog'ining changlanishini va lampa spiralining eskirishini hisobga oluvchi zaxira koefitsiyenti,  $1,2-2,0$ ;  $N$  — yoritilayotgan ishchi yuza bilan yoritkich o'rnatiladigan oraliq masofa.

**Yoritishni yorug'lik oqimi usuli bilan hisoblash.** Yoritish bu usul bilan hisoblanganida, yoritkichdan chiqayotgan yorug'likni hisobga olish bilan bir qatorda yoritilayotgan ishchi yuzadan yorug'lik oqimining urilib qaytishi ham hisobga olinadi. Bu hisoblashning asosiy ko'rsatkichlaridan biri yoritkichning yorug'lik oqimididan foydalanish koefitsiyentidir ( $U$ ). Bu koefitsiyent yoritkichning turiga, yoritilayotgan ishchi yuzaning o'lchamlari bo'yicha aniqlanadigan indeksiga va xona devorlari hamda shipidan yorug'lik nurlarining urilib qaytishi koefitsiyentlariga bog'liqdir. Xonaning indeksi quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$\varphi = AV/N_r(A + V), \quad (6.2)$$

bunda:  $A$  va  $V$  — yoritilayotgan xonaning uzunligi va eni,  $\text{m}$ ;  $N_r$  — yoritilayotgan yuzadan yoritkich osiladigan hisobiy balandlik,  $\text{m}$ .

Odatda yoritilayotgan ishchi yuza xona polidan  $0,7-0,8 \text{ m}$  yuqoridagi sath hisoblanadi, yoritkich xonaning shipdan  $0,7 \text{ m}$  masofada osiladi. Shunda  $N_r = 0,7-0,8 \text{ m}$  bo'ladi.

Yorug'lik oqimididan foydalanish koefitsiyenti yorug'lik texnikasiga oid katalog va ma'lumotnomalardagi maxsus jadvallarda berilgan bo'ladi.

Ma'lum yoritilganlikni hosil qiluvchi yorug'lik oqimi quyidagi ifoda bilan hisoblanadi:

$$F = k_3 E S Z / U n, \quad (6.3)$$

bunda:  $E$  — berilgan me'yoriy yoritilganlik,  $\text{lk}$ ;  $Z$  — o'rtacha yoritilganlikning me'yoriy yoritilganlikka nisbati,  $(1,1-1,3)$ ;  $S$  — yoritilayotgan xonaning yuzasi,  $\text{m}^2$ ;  $k_3$  — zaxira koefitsiyenti,  $(1,3-1,5)$ .

**Solishtirma quvvat usuli bilan yoritishni hisoblash.** Bu usul yoritishni taxminan hisoblash zarur bo'lgan hollarda qo'llaniladi. Yorituvchi asbobning solishtirma quvvati deb, yoritilayotgan birlik yuzaga to'g'ri

keluvchi quvvatiga aytildi. Yoritkich lampasining quvvati aniq bo'lgandagi yoritkichlarning soni solishtirma quvvat usuli bilan quyidagi formulada hisoblanadi:

$$n = pS / P_L \quad (6.4)$$

bunda:  $p$  — yoritkich lampasining solishtirma quvvati,  $Vt/m^2$ ;  $S$  — yoritilishi kerak bo'lgan yuza,  $m^2$ ;  $P_L$  — yoritkich lampasining quvvati,  $Vt$ .

Ba'zi neft qazib chiqarish obyektlari va xonalari uchun zarur me'yoriy yoritilganlikning solishtirma quvvatlari 6.8- jadvalda keltirilgan.

6.8- jadval

Obyektlar	Solishtirma quvvat (yoritishning barcha turlari hisobga olingan) $Vt/m^2$	Yoritishning taqsimlanishi	
		Mahalliy yoritish, % (umumiy yoritishning)	Avariya paytidagi yoritish, % (umumiy yoritishning)
Neft haydovchi va suv ta'minoti nasos stansiyalari	15	—	20
Kompressor stansiyalari	15	—	20
Mexanik va ta'mirlash mexanik sexlari	12—14	12—15	10
Suv qozonlari	11	—	20
Garajlar	10	10	—
O't o'chirish xizmati	12	2	10
Laboratoriylar	16—20	10—15	—
Boshqarish xonasi	13—15	—	—
Omborlar	10—11	—	10
Oshxona	12—15	—	10
Nim stansiya va taqsimlash qurilmalari	20—25	—	20
Yordamchi korxonalarining hududlari	0,12	—	—
Nasos stansiyalari va neft saqlanadigan punktlarning ochiq hududlari	0,14	—	—

## 6.5. Asosiy obyektlarni yoritish

Burg'ulash qurilmalarini yoritish tarmoqlari uchun 220 V kuchlanish ishlataladi va kuchlanish 6000/380/220 transformatoridan (6 kV li liniyadan ta'minlanadigan burg'ulash qurilmalarida) yoki dizel-generator tizimidan (mustaqil ta'minlanadigan burg'ulash qurilmalarida) olinadi. Ba'zi hollarda burg'ulash qurilmasining yoritish tarmog'i neft va gazni birlamchi qayta ishlovchi korxonaning yoritish tizimidan ta'minlanadi. Yoritish tarmog'ining elektr tarmog'iga ulanishi avtomatik o'chirish va magnit yuritkich orqali amalga oshiriladi. Magnit yuritkichning boshqarish tugmachasi neft va gazning otilib chiqishi vaqtida o'chirish imkonini beradigan joyga o'matiladi. Avariya holatlari yoritish 220/12 V transformator orqali bajariladi; xizmatchilarni evakuatsiya qilish vaqtidagi yoritish akkumulatorlar orqali ta'minlanadi.

Burg'ulash qurilmalarining yoritilishi 6.9- jadvalda keltirilgan mos ko'rsatkichlar asosida bajariladi.

Burg'ulash qurilmalarining ishchi yoritish tarmoqlari, odatda, kuch va yoritish tarmoqlarini ta'minlovchi umumi yuzifani bajaruvchi transformatoridan ta'minlanadi.

Muhit tarkibida yonuvchi gazlar bo'lmasa, u holda chang va suv o'tkazmaydigan yoritkichlardan foydalilanadi. Agar muhit tarkibida yonuvchi gazlar bo'lsa, portlashga qarshi ishonchli bo'lgan NOB markali yoritkichlar qo'llaniladi.

Quduqlarning yuzalarini yoritishda yopiq (chang va suv o'tkazmaydigan) yoritkichlar qo'llaniladi. Bunday lampalarning quvvati 50—70 Vt ni tashkil etadi. Avtomatlashtirilgan ishlab chiqarishda burg'ulash qurilmalari faqat kunduzi ishlaydi va shuning uchun bu qurilmalar kechasi yoritilmaydi. Avariya holatlari yuzaga kelganida ko'chma yoritkichlarni yoqish uchun rozetkalar tortib kelinadi. Bu rozetkalarga tunda quduqni ta'mirlash vaqtida minora va machtalarning yuqori qismlariga NOB markali lampalar o'rnatiladi.

Minoralarni yoritish uchun beshta yoritkich o'rnatiladi. Ko'targich tomondagi yuzani yoritish uchun ikkita 300 Vt li lampa, ko'tarish bloki harakati yo'lini yoritish uchun bittadan yoritkich (12 m balandlikda, 150 Vt li lampa); eng yuqoridagi ishchi joyni yoritish uchun 150 Vt li va kronblok oldiga 100 Vt'li lampalar o'rnatiladi. Machtani yoritish uchun uchta yoritkich o'rnatish ko'zda tutilgan. Ikkita yoritkich machtaning 3—3,5 m balandligiga quvvati 300 va 150 Vt bo'lgan yoritkichlar o'rnatiladi va bitta 100 Vt li yoritkich kronblok yuzasini yoritish uchun o'rnatiladi.

Yoritilishi kerak bo'lgan joy	Yoritilganlikning me'yori, lk	Yoritkichlar o'rnatiladigan joy	Yoritkichlar soni		Lampaning quvvati, Vt
			Minora baland- ligi 41 m	Minora baland- ligi 53 m	
Rotor	40	Minoraning oyoqlariga 45—50° burchak ostida 4 m balandlikda (41 m li minoralar uchun) va 6 m balandlikda (53 m li minoralar uchun) o'rnatiladi.	4	4	200
O'Ichov-nazorat asboblari shchit. Yuqori ishchi holati.	50	Lebedka ustiga 4 m balandlikda 25—30° burchak ostida o'rnatiladi.	1	1	300
	25	Asboblar oldiga o'rnatiladi.	1	1	100
Ko'tarish bloki yo'lida.	10	Minoraning oyoqlariga holati poldan kamida 2,5 m balandlikda 50° dan kam bo'limgan burchak ostida o'rnatiladi.	2	2	300
		Narvonli maydonchalarda.	1	2	300
Kronblok.	25	Minora balandligi bo'ylab 65—70° dan kam bo'limgan burchak ostida o'rnatiladi.	1	1	150
Qabul qilib oluvchi ko'priki.	10	Kronblok ostiga o'rnatiladi.	1	1	150
		Minoraning old oyoqlariga 6 m dan kam bo'limgan balandlikda o'rnatiladi.	1	1	150
Reduktor o'matilgan xona.	30	3 m dan kam bo'limgan balandlikda o'rnatiladi.	2	2	300
a) ishga tushirish rezistorli yashchiklar;					
b) burg'ulash nasoslari.	25	3 m dan kam bo'limgan balandlikda o'rnatiladi.	4	8	150
Yonish-moylash materiallari maydonchasi	10		3—5	8	200

Suyuqlik sig‘imlari va ochiq qurilmalarni umumiy yoritish uchun machtalarning 12—18 m balandliklariga o‘rnatilgan quvvati 500 Vt bo‘lgan lampali projektorlar qo‘llaniladi.

Kerak bo‘lgan hollarda umumiy yoritish bilan bir qatorda mahalliy yoritish ham qo‘llaniladi. Ishchi smenalarning soniga qarab hududlarni va ma‘lum obyektlarni ko‘zdan kechirish yoki jihozlarni ta‘mirlash vaqtlaridagina yoritishga ruxsat etiladi. Qo‘riqlash yoritishida PZM—35 markali projektorlar yoki 6—7 m balandlikka o‘rnatilgan SPO—300 va «Universal» yoritkichlari qo‘llaniladi. Lampalarning quvvati 100—150 Vt; projektorlar orasidagi masofa 70—75 m; yoritkichlar orasidagi masofa esa 30 — 35 m ni tashkil etadi.

Portlash xavfi mavjud bo‘lgan xonalarni yoritishda portlashdan himoyalangan turlarda ishlab chiqarilgan yoritkichlar bilan yoritiladi. Odatda bunday xonalarni yoritish portlashga qarshi yuqori ishonchi bo‘lgan NOB va NOG markali yoki VZG markali yoritkichlar yordamida amalga oshiriladi. Yoritish tarmog‘i simlari po‘lat quvurlardan o‘tkaziladi.

Portlash xavfi mavjud bo‘lgan xonalarda ishlatiladigan ko‘chma yoritkichlar portlash kirib bormaydigan, uchqunlanish xavfsiz bo‘lgan joyda tayyorlangan bo‘lishi talab etiladi; yoritkichlar tashqi tomondan metall to‘r bilan himoyalangan bo‘ladi.

### Nazorat uchun savollar

1. Yoritishning ish sharoitini tashkil etishdagi ahamiyati qanday?
2. Yoritishning qanday asosiy fizik kattaliklarini bilasiz?
3. Qanday turdagи elektr yoritkichlarni bilasiz?
4. Cho‘g‘lanma lampalar qanday fizik asosda yoritadi?
5. Luminessent lampalar qanday fizik asosda ishlaydi?
6. Yoritishni loyihalashning nechta turi bor?
7. Neft va gaz korxonalari obyektlarini yoritishning o‘ziga xos jihatlari nimalardan iborat?
8. Neft va gaz burg‘ulash minoralari va ularning atroflarini yoritishda yong‘in xavfsizligi qoidalariiga qanday rioya qilinadi?
9. Neft va gaz minoralari va ularning atroflarini yoritishda asosan qanday turdagи yoritkichlardan foydalaniadi?
10. Ko‘chma yoritkichlar elektr energiya manbalarining kuchlanishi necha volt bo‘lishi kerak?

### 7.1. Faza rotorli asinxron motorlarni sinxron ish rejimiga o'tkazib quvvat koefitsiyentini oshirish


Nest va gaz sanoati korxonalarida katta quvvatli faza rotorli asinxron motorlar asosan kompressor va nasoslarning elektr yuritmalarida keng qo'llaniladi. Bu asinxron motorlarning energetik ko'rsatkichlarini yaxshilash va ular iste'mol qilayotgan reaktiv energiyani kompensatsiya qilish elektr energiyani iqtisod qilishning asosiy omillaridan biridir.

Asinxron motorlar iste'mol qilayotgan reaktiv energiya miqdorini kamaytirishning amalda **ikki usul** qo'llaniladi: individual har bir asinxron motorning tarmoqqa ulangan joyida reaktiv quvvatni kompensatsiya qilish hamda energetik va texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari yuqori bo'lgan yangi rusumdag'i motorlarni qo'llash. **Birinchi usul** bilan reaktiv quvvatni kompensatsiya qilish, tarmoq elementlarini reaktiv quvvatdan xalos etish nuqtai nazaridan qaraganda ancha samarali usul, biroq 1000 V gacha kuchlanishli tarmoqlarda qo'llaniladigan kompensatsion qurilmalarning narxi yuqori bo'lgani sababli ko'pincha iqtisodiy jihatdan bu usul o'zini oqlamaydi. **Ikkinci usul** zamonaviy asinxron motorlarni yaratish va joriy qilish bilan bog'liq bo'lgani uchun ham istiqbolli hisoblanadi.

Faza rotorli asinxron motorlarning reaktiv quvvati iste'molini kamaytirishning, ya'ni ularning quvvat koefitsiyentini oshirish usullaridan biri ularni **sinxronlashtirishdir**. Yarim o'tkazgichli qurilmalari mavjud bo'lgan asinxron elektr yuritmalarda asinxron motorlarni sinxronlashtirish maqsadga muvosiq. Masalan, asinxron ventilli kaskad sxemalarida motorni sinxronlashtirish imkoniyati **rotor zanjiridagi o'zgarmas tok manbai** mavjudligi sababli o'zo'zidan kelib chiqadi.

Quyida ketma-ket qo'zg'aluvchan sinxronlashtirilgan asinxron motorning qo'llanishi bo'yicha texnik-iqtisodiy imkoniyatlarini ko'rib chiqamiz. Sinxronlashtirilgan asinxron motorning prinsipial elektr sxemasi 7.1- rasmida keltirilgan va quyidagi belgilashlar qo'llanilgan: SQ — sinxronlash qurilmasi; ITQ — ishga tushirish qurilmasi; S va R — motorning stator va rotor chulg'ammlari. Asinxron motorni sinxronlashtirish stator va rotor chulg'ammlarining VD1 — VD6 uch fazali

ko'priki sxemali to'g'rilaqich orqali elektrik bog'lanishi yordamida amalga oshiriladi. Bu elektrik bog'lanish qo'zg'atish tokining qiymatini motorning real yuklanishiga qarab avtomatik boshqarish imkonini beradi. Bu holda stator chulg'amining to'g'rilaqan ishchi toki qo'zg'atish toki vazifasini o'taydi.



7.1- rasm. Faza rotorli asinxron motorni sinxron ish rejimiga o'tkazib ishlatalishning principial elektrik sxemasi.

Motorni ishga tushirish odatdagidek rotor zanjiridagi kommutatsiya apparati K ning yopiq holatida amalga oshiriladi. Katta quvvatli motorlarni ishga tushirishda K kontaktlar (7.1- rasmida punktir chiziqlar bilan ko'rsatilgan) ventillarni ishdan chiqishidan saqlash maqsadida to'g'rilaqichni shuntlaydi. Kontakt K yopiq bo'lganida motor asinxron motor rejimida ishlaydi. Bu holda uch fazali ko'priq sxema qisqa tutashuv rejimida ishlagani sababli stator chulg'amidan stator chulg'amlarini «yulduzcha» ulanishidagi tok o'tadi. Kontakt K ochiq holatda bo'lganida rotor chulg'amidan to'g'rilaqan stator toki o'tadi va motor sinxron motor rejimida ishlaydi. To'g'rilaqichning kirish qismiga katta qiymatli stator chulg'amining induktiv qarshiligi ulangan bo'lgani uchun rotorning aktiv qarshiligi juda kichik ekanligi hisobiga motoring sinxron rejimida uchtadan ventillardan iborat ventilli guruhlari navbat bilan ishlaydi (kommutatsiya burchagi  $\gamma = \pi/3$ ) va ventillardan o'tayotgan toklarning o'tish vaqtiga roppa-rosa 180 el.grad.ni tashkil etadi. Shunday qilib, rotor chulg'amining stator chulg'amiga to'g'rilaqich orqali ketma-ket ulanganligi sababli stator chulg'ami fazalaridan toklarning o'tish vaqtiga deyarli ta'sir qilmaydi. Motoring sinxronlashtirilishi motoring quvvati va yuklanishning tavsifiga qarab sinxronlashtirish qurilmasi (SQ) orqali yoki usiz amalga oshiriladi.

Yuklanish nominal qiymatiga yetganida yoki motor sinxronizmdan chiqib ketganida rotor chulg'amida EYUK qiymati oshib ketadi, natijada tiristor Vs bir paytda to'g'rilaqichni hamda rotor chulg'amini shuntlaydi, natijada motor avtomatik ravishda asinxron motor ish rejimiga o'tib ishlay boshlaydi. Motoring optimal ko'rsatkichlarida maksimal momentning nominal momentga nisbatini 2—2,5 gacha yetkazish mumkin. Quvvati 30 kW va undan katta quvvatli deyarli barcha faza rotorli asinxron motorlar bunday ko'rsatkichlarga ega.

Tavsiflar tahlilini umumlashtiradigan bo'lsak, faza rotorli asinxron motorlarni sinxron rejimga o'tkazish ularning energetik ko'rsatkichlarini sezilarli darajada oshishini ta'minlaydi, masalan, quvvati 80 kW gacha bo'lgan asinxron motorlarning FIK 2,5 % gacha va undan katta quvvatlilarniki esa 1,5 % gacha oshadi; o'rta hisobda quvvat koeffitsiyenti 30 % gacha ko'tariladi va yuklanish nominalga teng bo'lganida esa hatto 1,0 % gacha ko'tarilishi mumkin.

Shunday qilib, neft va gaz sanoati korxonalarida ishlab chiqarish mashina va mexanizmlarning elektr yuritmalarida faza rotorli asinxron motorlarining ish rejimlarini sinxron ish rejimiga o'tkazish, reaktiv quvvat iste'molini kamaytirish hisobiga elektr energiyani iqtisod qilishga hamda elektr ta'minoti tarmoqlari elementlarida aktiv quvvat isroflarining kamayishiga ham olib keladi.

Quvvati cheklangan elektr energiya manbalaridan ta'minlanadigan faza rotorli asinxron motorlarning ish rejimlarini sinxronlashtirish elektr energiyadan samarali foydalanish imkonini beradi. Ayniqsa, avtonom elektr energiya manbalaridan ta'minlanadigan neft va gaz quduqlarini qazishda keng ishlatalidigan burg'ulovchi qurilmalar elektr yuritmalarining katta quvvatli faza rotorli asinxron motorlari ish rejimlarini sinxronlashtirish elektr energiya iste'molini tejashda ancha samarali hisoblanadi.

### **Nazorat uchun savollar**

1. Qaysi ko'rsatkichlar asinxron motoring energetik ko'rsatkichlariga kiradi?
2. Faza rotorli asinxron motorlarning sinxron ish rejimiga o'tkazish ularning qaysi energetik ko'rsatkichlarining oshishiga olib keladi?

---

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Блантер С.Б., Суд И.И. Электрооборудования нефтяных и газовой промышленности. М.: Недра, 1980.
2. Справочник по автоматизированному электроприводу. Под ред. В.А. Элисеева и А.В. Шинянского. М.: Энергоатомиздат, 1983.
3. Мосхайн Б.И., Парфенов Б.М. Электропривод буровых лебедок. М.: Недра, 1978.
4. Медведев Г.Д. Электрооборудования и электроснабжения горных предприятий. М.: Недра, 1988. 356 с.
5. A.T.Imomnazarov. Sanoat korxonalarining elektr jihozlari. Kash-hunar kollejlari uchun darslik. T.: Sharq, 2005.
6. O.O.Hoshimov, A.T.Imomnazarov. Elektromexanik qurilmalar va majmualarning elementlari. Oliy o'quv yurtlari uchun darslik. T.: O'AJBNT Markazi, 2003.
7. O.O.Hoshimov, A.T.Imomnazarov. Elektr yuritma asoslari. 1- qism. Oliy o'quv yurtlari uchun o'quv qo'llanma. T.: TDTU, 2004.

## MUNDARIJA

Kirish .....	3
--------------	---

### I bob. Elektr jihozlarni portlash xavfidan himoyalash

1.1. Portlash xavfi mavjud bo‘lgan aralashmalar, neft va gaz sanoati korxonalari binolarining klassifikatsiyasi .....	4
1.2. Portlashni o‘tkazmaydigan qobiqli elektr jihozlar .....	7
1.3. Ventilator vositasida kuchli bosim ostida puflanadigan elektr jihozlar .....	9
1.4. Moyga botirilgan elektr jihozlar .....	11
1.5. Kvarts bilan to‘ldirilgan va maxsus ishlangan uchqunlanish xavfsiz bo‘lgan elektr jihozlar .....	12
Nazorat uchun savollar .....	13

### II bob. Elektr qurilmalarini himoyalash va boshqarishda qo‘llaniladigan elektr va elektron apparatlar

2.1. Elektr va elektron apparatlar haqida umumiy tushunchalar .....	14
2.2. Elektr zanjirlarni himoyalovchi kommutatsiya apparatlari .....	16
2.3. Elektron kommutatsiya apparatlari .....	24
2.4. Elektr qurilmalarini ishga tushirish va ko‘rsatkichlarini rostlash vazifalarini bajaruvchi qo‘l bilan boshqariluvchi apparatlar .....	27
2.5. Elektr qurilmalarini ishga tushirish va ko‘rsatkichlarini rostlashga xizmat qiluvchi apparatlar .....	31
2.6. Elektr qurilmalarining boshqaruvi zanjirlarida qo‘llaniladigan elektr releilar .....	34
Nazorat uchun savollar .....	38

### III bob. Elektr yuritma asoslari

3.1. Elektr yuritma haqida umumiy tushunchalar .....	39
3.2. Elektr yuritmaning harakat tenglamasi .....	41
3.3. Elektr yuritmaning turg‘un harakati .....	42

3.4. Elektr yuritmaning rostlanuvchi koordinatalari .....	44
3.5. Koordinatalari rostlanuvchi elektr yuritmalarining tuzilishi .....	47
3.6. Mustaqil qo'zg'aluvchan o'zgarmas tok motorli elektr yuritmalarining ish rejimlari va tavsiflari .....	48
3.7. Ketma-ket qo'zg'aluvchan o'zgarmas tok motorli elektr yuritmalarining ish rejimlari va tavsiflari .....	56
3.8. Asinxron motorli elektr yuritmalarining ish rejimlari va tavsiflari .....	63
3.9. Sinxron motorli elektr yuritmalarining ish rejimlari va tavsiflari .....	83
Nazorat uchun savollar .....	87

#### **IV bob. Burg'ulash qurilmalarining elektr jihozlari**

4.1. Burg'ulash qurilmalari haqida umumiy tushunchalar .....	88
4.2. Burg'ulash qurilmalarining elektr yuritmalariga qo'yiladigan asosiy talablar .....	93
4.3. Burg'ulash qurilmasini elektr energiya bilan ta'minlash .....	95
4.4. O'yuvchi asbob — iskanani harakatga keltiruvchi elektr yuritma .....	97
4.5. Elektr burg'u .....	100
4.6. Iskanani uzatish avtomatik rostlagichlari .....	107
4.7. Burg'ulash lebedkasining elektr yuritmasi .....	111
4.8. Burg'ulash nasoslarining elektr yuritmaları .....	119
Nazorat uchun savollar .....	123

#### **V bob. Neft olish quduqlari nasos qurilmalarining elektr jihozlari**

5.1. Shtangali chuqurlik nasos qurilmalari .....	124
5.2. Tebranma dastgohlarning elektromotorlari .....	125
5.3. Tebranma dastgohlarni elektr energiya bilan ta'minlash va ishga tushirish sxemalari .....	128
5.4. Shtangasiz chuqurlik nasos qurilmalari .....	130
5.5. Chuqurlik motorlari, ularni suvdan himoyalash .....	132
5.6. Chuqurlik motorlarini elektr energiya bilan ta'minlash qurilmalari va sxemalari .....	134
Nazorat uchun savollar .....	137

## **VI bob. Neft va gaz konlarini yoritish**

6.1. Yoritishning ahamiyati .....	138
6.2. Yorug'likning asosiy fizik kattaliklari .....	138
6.3. Yorug'likning elektr manbalari va ularning xususiyatlari .....	139
6.4. Yoritishni loyihalash va hisoblash .....	144
6.5. Asosiy obyektlarni yoritish .....	148
Nazorat uchun savollar .....	150

## **VII bob.**

7.1. Faza rotorli asinxron motorlarni sinxtron ish rejimiga o'tkazib quvvat koefitsiyentini oshirish .....	151
Nazorat uchun savollar .....	154
Foydalilanilgan adabiyotlar .....	155

**A.T. Imomnazarov.**

**Neft va gaz konlarining elektr jihozlari:** Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'lli./ A.T. Imomnazarov; O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi, O'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi markazi. — T.: Cho'lpion nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2007. — 160 bet.

1000 ayoll.

**ABDUQAHHOR TURAPOVICH  
IMOMNAZAROV**

**NEFT VA GAZ KONLARINING  
ELEKTR JIHOZLARI**

*Kasb-hunar kollejlari uchun o'quv qo'llanma*

*Muharrir Abdurahmon Akbar  
Badiiy muharrir Shuhrat Odilov  
Texnik muharrir Yelena Tolochko  
Musahhih Mahmuda Usmonova*

Bosishga ruhsat etildi 04.06.2007 Bichimi 60×90<sup>1/16</sup>. Tayms Tad garniturası. Sharlı b.t. 10,0. Nashr b.t. 9,86. Shartnoma № 57-2007. 1000 nusxada. Buyurtma №6

Cho'lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 100129, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30- uy.

«NOSHIR-FAYZ» MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Toshkent tumani, Keles shahar, K. G'ofurov ko'chasi, 97-uy.